

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2017

1-son

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish – barkamol avlod tarbiyasining muhim kafolatidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- D. Mamatqulov 6 Ma'kuraviy kompetentlilik tushunchasi va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati
- R. Safarova, F. Yusupova 11 O'quv modullarini tanlashda tayaniladigan prinsiplar
- D. Tashxanova 16 Ta'lim muassasalarida mikrobiologiya fanini o'qitishning samarali jihatlari
- A. Akramov 19 Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik jihatlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Toshpulatova 25 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda matematik masalalarning o'rni
- Ch. Yunusova 31 Ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagogning kasbiy mahoratini rivojlantirish yo'llari
- Sh. Mamasoliyeva 36 Talabalarning mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etishda loyihalash metodidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- A. Karimov 39 Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash – ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- H. Qodirov 44 Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish vositalari
- E. Alkarov 50 Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining yosh avlod hayotidagi o'rni



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

- D. Mahmudova 54 O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash



HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

- Sh. Akramova 59 Davlat boshqaruvi organlarida kasbiy saralashning korrupsiyaga qarshi motivatsiya segmenti



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

- F. Axmedov, F. Axmedov 65 Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining professiogrammasi



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- L. Yunusov 69 Katta yoshdagi auditoriya bilan ishlash tamoyillari va usullari



USTOZ-SHOGIRD MAK TABI

- M. Qambarov 75 Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishda "ustoz-shogird" tizimining ahamiyati



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- S. Sobirov 79 Uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish metodikasining ayrim masalalari

N. Mansurov, Sh. Nazirbekova

- 83 Rangtasvir mashg'ulotlari samaradorligini oshirish omillari



MAKTABGACHA TA'LIM

- S. Azimova 86 Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda yangicha yondashuvning o'ziga xos xos jihatlari



TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

- G. Ibragimova 90 Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari



TA'LIMDA AXBOROT RESURLARI

- Sh. Ergashev, A. Kolantarov 95 Maktab boshqaruvi axborot tizimining funksional vazifalari va joriy etilishidan kutilayotgan asosiy natijalar

- T. Hakimova 102 Yoshlarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot resuslarining o'rni



PSIXOLOGIYA

- U. Qodirov 106 Yoshlarda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari



KORREKSION PEDAGOGIKA

- N. Musayeva 113 Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvida muloqotning o'ziga xos o'rni



TAJRIBA MAK TABI

- A. Kenjaboyev, A. Maxmadaliyev 117 Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishda "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi



MEDIATA'LIM

- S. Babadjanov 123 Mediata'lim – yoshlarni destruktiv axborotlardan himoya qilishning samarali vositasi sifatida



КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: ЦЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЯ. МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ

- A. Magrupov 128 Инновационный менеджмент: основные аспекты и принципы в управлении качеством образования



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Ш. Рахимова 132 Общие принципы подготовки будущих учителей к диагностической деятельности в условиях реализации компетентностного подхода в образовательном процессе



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

- A. Akbarov 136 Значение личностных качеств учителя в обучении младших школьников иностранному языку

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MUHIM KAFOLATIDIR

Ma'naviyati yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Shu bois istiqlolning dastlabki yillaridan milliy ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi.

Buyuk Yo'lbo'shchimiz, istiqlolimiz asoschisi Islom Karimov boshlab bergan barcha sohalaridagi keng ko'lamli islohotlar ayni kunlarda ham izchillik bilan davom ettirilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya alohida ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida, axborot texnologiyalari asrida yoshlarni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalash juda dolzarb va aslo kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Ildizi baquvvat daraxt kuchli shamol va dovullarga, qor va bo'ronlarga bardosh bera olgani singari, ta'lim-tarbiyani yoshligidan mukammal egallagan bola ham o'zida tashqi ta'sirlardan himoyalalanish immunitetini shakllantira oladi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2015–2016-yillar davomida 459 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mukammal ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi.

Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejarlariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida “2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident qarori qabul qilingani ayni muddao bo’ldi.

Ushbu hujjatga asosan bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg’or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o’quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish ko’zda tutilgan.

Shuningdek, 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o’quv-metodik qo’llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minlash ham rejalashtirilgan.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so’m mablag’ ajratilishining o’zi bu euzu ishlar ko’lami naqadar kengligidan dalolat berib turibdi.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida yuqori sifatli maktabgacha ta’lim ta’minlanib, bolalarni sifatli maktabga tayyorlash tubdan yaxshilanadi. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlar joriy etiladi.

Endilikda yurtimizda bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo’lgan 6100 ta qisqa muddatli guruh tashkil etiladi. Bu esa farzandlarimizning kelajagi uchun mustahkam poydevor vazifasini o’taydi.

Ta’kidlash joizki, bola tarbiyasi faqat ota-onaning yoki murabbiyning vazifasi emas. Balki barcha, shu jumladan, mahalla-ko’y ham bunga mas’ul. Xalqimiz bejizga: “Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona”, deyishmagan. Shuni inobatga olib, endilikda mazkur qaror bilan 3-6 yoshdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo’llanmalar bilan ta’minlash orqali maktab ta’limiga tayyorlash tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’i yanada kengaytiriladi. 50 ta yangi bog’cha qurilishi hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta’mirlash ko’zda tutilgan.

Shu bilan birga, mazkur qaror bilan qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar badal to’lovi 30 foizgacha kamaytiriladi, bolalarning maktabgacha ta’limga qamrovini 1,5 barobar oshiriladi.

Ushbu ishlarning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz ta’lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo’lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning barkamol bo’lib ulg’ayishida, avvalo, ota-ona o’rnak, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari tashabbuskor bo’lsa, ayni muddaodir. Zero, ertamiz egalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burchi va mas’uliyatini teran his etadigan, oilaparvar, yurtparvar va taraqqiyparvar inson sifatida voyaga yetkazishda yuqorida zikr etilgan qaror muhim ahamiyat kasb etadi.

* * *

Jurnalimizning ushbu sonidagi 5 ta maqolaga tahririyat o’z fikr-mulohazalarini bildiradi. Keyingi sonlarda esa dolzarb mavzudagi, ta’lim tizimiga yangilik olib kirgan ilmiy-metodik maqolalarga tahririyat fikrini bildirishni yanada kengaytirib boramiz.

Davlatjon MAMATQULOV,
A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MAFKURAVIY KOMPETENTLILIK TUSHUNCHASI VA UNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada chuqur g'oyaviy bilim va e'tiqod (mafkuraviy immuniteti)ga ega bo'lish hamda ushbu bilim va e'tiqodini boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasini anglatuvchi mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi haqida so'z boradi. Muallif maqolada mafkura va kompetensiya tushunchalarini tahlil etgan holda mafkuraviy kompetentlilik bugungi kun uchun yangi tushuncha ekanligini aytib o'tgan. Shuningdek, mafkuraviy kompetentlilikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati to'g'risida atroflicha fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy va g'oyaviy tarbiya, mafkura, kompetensiya, kasbiy kompetentlilik, mafkuraviy kompetentlilik, mafkuraviy immunitet, bunyodkor mafkura, vayronkor mafkura.

В данной статье речь идет об обладании глубокими идейными знаниями и нравственным иммунитетом и о навыках формирования этих знаний и умений. Автор анализирует понятия идеология и компетенция, излагает мысль о том, что понятие идеологическая компетенция является новым научным понятием. Также приведены рассуждения о том, что идеологическая компетенция является важной составляющей в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова. Духовное и идейное воспитание, идеология, компетенция, профессиональная компетентность, идеологическая компетентность, идеологический иммунитет, созидательная идеология, разрушительная идеология.

In this article we talk about acquiring thorough knowledge of ideological and moral immunity and the skills of formation of the same knowledge and skills with others. The author analyzes the concept of ideology and competence, but also expresses the idea that the concept of ideological competence is a new scientific concept. The article argues that the ideological competence is an important component in the educational process.

Key words. Spiritual and ideological education, ideology, competence, professional competence, competence ideological, ideological immunity, constructive ideology, destructive ideology.

Hozirgi globallashuv va axborot almashinuvi o'ta jadallashgan hamda bu jarayondan ayrim kuchlar o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotgan bir davrda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart"¹.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza // "Xalq so'zi", 2010-yil 13-noyabr.

Buning uchun avvalo, yosh avlodning intellektual salohiyatni kuchaytirish va ayni vaqtda ularni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash jarayonini to'g'ri tashkillashtirish juda muhimdir.

Yosh avlodni g'oyaviy jihatdan sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentliligi eng asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentliligini oshirmasdan turib yosh avlodni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalab bo'lmaydi. Shu ma'noda bugungi davr sharoiti va talablari – xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan barcha pedagog-kadrlarda mafkuraviy kompetentlikni shakllantirish masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda.

Ishlatilayotgan mafkuraviy kompetentlik tushunchasi bugungi kun uchun yangi tushunchadir. Chunki, ilmiy izlanish davomida ma'lum bo'ldiki, mafkuraviy kompetentlik tushunchasi mazkur sohadagi ilmiy adabiyotlarda, ya'ni:

– “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fani uchun tayyorlangan o'quv adabiyotlar va lug'atlarda;

– pedagogika faniga doir ilmiy adabiyotlar va lug'atlarda;

– O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi va boshqa shu kabi adabiyotlarda ushbu tushuncha uchramaydi.

Mazkur adabiyotlarda, albatta, mafkura va kompetensiya tushunchalari haqida alohida ma'lumotlar mavjud. Masalan, “Milliy g'oya va rahbar ma'suliyati” kitobida “Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish tizimi”², deya ta'riflangan. Mafkura tushunchasiga doir shunga o'xshash ta'riflarni boshqa manbalarda ham ko'rish mumkin³.

“Kompetensiya” tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu tushuncha lotincha “campetere” – munosib bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u Yevropada birinchi marta 1596-yilda Vikiped lug'atida ishlatilgan. Hozirda Vikipediya elektron lug'atda “kompetensiya” tushunchasi “bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir”⁴, deya izohlangan.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida “kompetensiya” tushunchasi “Kompetensiya – (lot. compete – erishayapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba”⁵, deya ta'riflangan.

Yuqoridagi manbalarda “kompetensiya” tushunchasi orqali keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyati nazarda tutilgan bo'lsa, yurtimizning pedagogika sohasidagi olimlari tomonidan aynan o'qituvchining kasbiy kompetentliligi tushunchasiga ham ta'riflar berilgan bo'lib, unga ko'ra “kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining

² Milliy g'oya va rahbar ma'suliyati. – T.: G'ofur G'ulom, 2007. 184-b.

³ Qarang: Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushunchalar, atamalar va tamoyillar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 6-16-b; Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushunchalar, atamalar va tamoyillar (qisqacha izohli tajribaviy) lug'at. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2002. 73-b; Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushunchalar, atamalar va tamoyillar (qisqacha izohli tajribaviy) lug'at. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 71-91-b; Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: Akademiya, 2007. 185-b;

⁴ Qarang: <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya>.

⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashr. 4-jild. 2002, 682-b.

ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyati jarayoni-ning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi"⁶, deya izohlangan.

Hozirda mafkura va kompetensiya tushunchalari bo'yicha aniq ilmiy tasavvur va ta'riflar shakllangan. Biroq bugungi kunda chuqur g'oyaviy bilimga ega bo'lgan va mazkur g'oyalar bo'yicha e'tiqodi (mafkuraviy immuniteti) shakllangan hamda o'zi ishongan g'oyalarni boshqa insonlarga ham singdirish malakasiga ega bo'lgan shaxslardagi bunday bilim, ko'nikma va malakani anglatuvchi muayyan tushuncha ilmiy iste'molga kiritilmagan. Vaholanki, ilmiy iste'molda chuqur g'oyaviy bilim va e'tiqod (mafkuraviy immuniteti)ga egalik hamda shu bilim va e'tiqodini boshqa insonlarga ham singdira olish malakasini anglatuvchi muayyan tushuncha bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun chuqur g'oyaviy bilim va e'tiqod (mafkuraviy immuniteti)ga egalik hamda shu bilim va e'tiqodini boshqa insonlarga ham singdira olish malakasini mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi orqali ifodalash mumkin. Insonlardagi bunday xususiyatni mafkuraviy kompetentlilik tushunchasi orqali ifodalash ijtimoiy hayotda ham, ilmiy izlanishlar olib borishda ham katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

Fan va ijtimoiy hayot iste'molida mafkuraviy kompetentlilik tushunchasining mavjud bo'lishi g'oyaviy bilimi sayoz, e'tiqodi (mafkuraviy immuniteti) shakllanmagan, o'z navbatida muayyan g'oya asosida yashash u yoqda tursin, aksincha, turli yot, begona g'oyalarga ergashib ketish xavfi mavjud bo'lgan kishilar bilan chuqur g'oyaviy bilim va e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ga ega hamda shu bilim va e'tiqodini boshqa insonlarga ham singdira olish malakasi mavjud bo'lgan shaxslarning xususiyatlarini o'zaro farqlash va ularni aniq ilmiy tushunchalar bilan ifodalash imkonini beradi.

Ma'lumki, fan har bir yangi tushunchani ilmiy is'temolga kirib borishida ushbu tushunchaning mohiyatini ochib beruvchi muayyan tarifni taqozo etadi. Jumladan, bu mafkuraviy kompetentlilik tushunchasiga ham taalluqli bo'lib, ushbu zaruriyatga ko'ra mafkuraviy kompetentlilik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Mafkuraviy kompetentlilik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va o'zi ishongan mafkura bo'yicha kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarga singdira olish malakasidir.

Mafkuraviy kompetentlilik yaxlid ko'rinishda bo'lsa-da, biroq unda uchta asosiy komponent mavjuddir. Ya'ni ular:

1. Mafkura sohasida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish.
2. Muayyan mafkura (nazariyasidagi g'oya va tamoyillar)ga nisbatan kuchli ishonch va e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi.
3. O'zi ishongan mafkura g'oyalarni boshqa insonlarga singdira olish uchun muayyan (ichki, ilmiy-nazariy va tashqi tashkiliy-metodik) ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kabilardir.

⁶ Qarang: Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Otajonova D.M. O'qituvchilarning kasbiy kompetentlilikini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – T.: Sano-standart, 2011., 77-b., Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Umaraliyeva M.A., Shodmonova Sh.S., Turg'unova Sh.M., Tojiboyeva N.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentlilikini rivojlantirish. – T.: Sano-standart, 2012, 125-b.

Ta'kidlash kerakki, biror-bir shaxsda yuqoridagi uch komponentning birgalikda mavjud bo'lishi bu shaxsda mafkuraviy kompetentlilik mavjudligini ko'rsatadi. Aksincha bo'lsa, ya'ni muayyan shaxsda yuqoridagi komponentlardan birining mavjud emasligi unda mafkuraviy kompetentlilik to'la shakllanmaganligini bildiradi.

Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashib borayotgan davrda yosh avlodning hayoti juda ko'plab foydali va foydasiz axborotlar ta'siri ostida kechayotganligini inobatga olish hamda shundan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun avvalo, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi "pedagog kadrlarning mafkuraviy masalalar borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish"⁷ maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglik kasbi haqida so'z borganda, albatta, bu kasb uchun kasbiy kompetentlilik bilan birga mafkuraviy kompetentlilik ham o'ta zarur ekanligiga e'tibor qaratish juda muhimdir. Kasbiy kompetentlilik deganda "o'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyati."⁸ tushuniladigan bo'lsa, mafkuraviy kompetentlilik deganda o'qituvchining (bunyodkor va vayronkor) mafkuralar bo'yicha chuqur bilimga ega ekanligi va bunyodkor mafkura bo'yicha unda kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning mavjudligi va o'zi ishongan bunyodkor mafkuradagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlar, jumladan, o'quvchi-yoshlarga ham singdira olish malakasi tushiniladi.

Ta'kidlash kerakki, pedagoglik kasbida kasbiy va mafkuraviy kompetentlilikni bir biridan ayro holda qo'yib bo'lmaydi. Chunki o'qituvchining kasbiy kompetentligi asosan o'quvchiga ta'lim berishga qaratilgan bo'lsa, undagi mafkuraviy kompetentlilik o'quvchiga (ma'naviy va g'oyaviy) tarbiya berishga qaratilgan bo'ladi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi"⁹.

Insonlarda mavjud bo'ladigan mafkuraviy kompetentlilik haqida so'z borganda albatta u faqat bunyodkor mafkuragagina asoslangan bo'ladi, deya xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki ijtimoiy hayotda boshqa mafkuralar jumladan, vayronkor mafkuralar (diniy aqidaparastlik, "ommaviy madaniyat" va missionerlik g'oyalari)ni targ'ib etuvchi shaxslarda ham o'z mafkuralariga asoslangan kompetentlilik mavjud bo'lishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilardagi mafkuraviy kompetentlilik bunyodkor mafkura hisoblanmish milliy mafkuraga asoslangan bo'lishi lozim. Milliy mafkura deganda milliy qadriyatlar va ma'naviyatga asoslangan, kishilarda halollik, poklik, insof, diyonat, Vatanni sevishtirish, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va boshqa shu kabi fazilatlarini shakllantiradigan bunyodkor mexanizm tushuniladi. Milliy mafkuraga asoslangan mafkuraviy kompetentlilikka ega bo'lish orqali har bir o'qituvchi va murabbiy:

- chuqur g'oyaviy bilim va kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'ladi;
- dunyoning mafkuraviy manzarasini tushunish va uni tahlil qilishda adashmaydi;
- hozirgi mafkuraviy murakkab davrda milliy mafkura asosidagi pedagogik pozitsiyasiga ega bo'ladi;

⁷ G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012. 212-b.

⁸ Qarang: Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Otajonova D.M. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – T.: Sano-standart, 2011. 77-b.

⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 62-b.

– ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchi-yoshlarning g’oyaviy bilimi va ma’naviyatini yanada yuksaltirish uchun yetarli darajada amaliy ko’nikma va malakaga ega bo’ladi.

Hozirda ta’lim-tarbiya jarayoni uchun mafkuraviy kompetentlikning zaruriyatidan kelib chiqib, ushbu masalani tarix, sosiologiya, ijtimoiy falsafa va boshqa shu kabi fanlarda o’rganilishidan tashqari aynan pedagogika fani nuqtayi nazaridan ham o’rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozirda pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentligini shakllantirish orqali yosh avlodni ma’naviy va g’oyaviy tomondan barkamol qilib tarbiyalay olsak, bugungi globallashuv va axborot almashinuvi o’ta jadallashib borayotgan “bunday sharoitda mafkura sohasidagi g’alabaning ahamiyati siyosat va iqtisodiyot sohasidagi g’alabanikidan kam bo’lmaydi”¹⁰.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. 62-b.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza // “Xalq so’zi”, 2010-yil 13-noyabr.
3. Milliy g’oya va rahbar ma’suliyati. – T.: G’ofur G’ulom, 2007. 184-b.
4. Milliy istiqlol g’oyasi asosiy tushunchalar, atamalar va tamoyillar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 6-12-b.
5. Milliy g’oya: targ’ibot texnologiyalari va atamalar lug’ati. – T.: Akademiya, 2007.
6. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashr. 4-jild. 2002. 682-b.
7. Turg’unov S.T., Doniyorov B.X., Otajonova D.M. O’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – T.: Sano-standart, 2011. 77-b.
8. Turg’unov S.T., Doniyorov B.X., Umaraliev M.A., Shodmonova Sh.S., Turg’unova Sh.M., Tojiboeva N.M. O’qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – T.: Sano-standart, 2012. 125-b.
9. G’oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O’zbekiston, 2012. 74-b
10. [https://ru.m.wikipedia.org/wiki/ Kompetensiya](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya).

Tahririyat: Birinchi Prezidentimizning “Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko’proq kuchga ega”, degan fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etayotganini e’tiborga olsak, muallifning mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishni taklif etishi dolzarb masala sanaladi.

“Mafkuraviy kompetentlik” yangi tushuncha. Uni ta’lim jarayonida qo’llash, aniq bir metodikasini ishlab chiqish, albatta, o’z samarasini beradi.

¹⁰ G’oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O’zbekiston, 2012. 74-b.

Rohatoy SAFAROVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI professori, p.f.d.

Feruza YUSUPOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI ilmiy xodimi

O'QUV MODULLARINI TANLASHDA TAYANILADIGAN PRINSIPLAR

Annotatsiya

Maqolada modul shaklidagi o'quv materiallarini tanlashda tayaniladigan prinsiplar, ularning o'ziga xos tavsifi, o'quvchilarning o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari bayon etilgan. Muallif modul tarkibidagi o'quv materiallarining o'quvchilarda ijodiy faollik, mustaqillikni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, modul tarkibidagi o'quv materiallarining hajmi, savol-topshiriqlar, mashq va masalalarning xarakteri, didaktik jihatdan o'ziga xosligini tavsiflab o'tgan.

Kalit so'zlar. O'quv moduli, o'quv materiallari, prinsip, rivojlantiruvchi ta'lim, uzviylik, uzluksizlik, ilmiy axborotlar, o'quv bloklari, kompetensiyalar.

В данной статье раскрыты возможности развития знаний, умений и навыков учащихся и формирования их компетенций в процессе усвоения учебного материала на основе использования модульной формы обучения, приведены его характеристики и принципы отбора материала. Определено значение модульной структуры учебного материала для развития творческой активности и самостоятельности учащихся. Также даны разъяснения в отношении объема, характера вопросов, заданий и упражнений, дидактических особенностей модульной структуры учебного материала.

Ключевые слова. Учебный модуль, учебные материалы, принцип, развивающее обучение, преемственность, непрерывность, научная информация, учебные блоки, компетенция.

The article highlights opportunities for the development of knowledge and skills of students under modular approach, provides characteristics and principles for selection of the material. It determines the value of modular structure of educational material for the development of creativeness and independence of students. The article provides clarification of the volume, nature of the issues, tasks and exercises, didactic features of the modular structure of educational material.

Key words. Training module, training materials, the principle, developing training, succession, continuity, scientific information, educational blocks, concentrers, competence.

Jamiyatda muntazam tarzda vujudga keladigan o'zgarishlar o'quv jarayonining vositasi o'quv materiallarini nazariy asoslarga tayanib, modulli yondashuv doirasida tanlashni taqozo etmoqda. Bir tomondan o'quv materiallari zamonaviy fanda to'plangan bilimlar, ma'lumotlar majmuyi, mazkur bilimlarni bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirish vositasi, boshqa tomondan esa bilish materiallari, topshiriqlar, mashqlar majmuyi, o'quvchilarni istiqbolda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiruvchi, ular-da o'quv-biluv kompetensiyalarini shakllantiruvchi didaktik birlik hisoblanadi.

O'zlashtirilgan bilimlar istiqbolda o'quvchilar uchun faoliyat mezoniga aylanishi kerak. Ushbu mezon ular nafaqat o'quv predmeti doirasida foydalanib qolmasdan, balki uni hayotiy vaziyatlarda ham qo'llay olishlari lozim.

Zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni fundamental bilimlar bilan butunlay band qilib qo'ymaslik, balki ularda muvaffaqiyatli ijtimoiylashish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Modulli o'qitish jarayoni o'quvchilarda mana shu mustaqil bilim olish faoliyatini shakllantirish imkoniyatiga ega. Axborotlar jadal o'zgarayotgan bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'quv materiallarini modul shaklida taqdim etish ularni bilimlarni o'zlashtirish manbayi sifatida baholash imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini modul asosida tashkil etish, o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirish uchun modul shaklidagi o'quv materiallarini tanlashda bir qator didaktik va metodik prinsiplarga tayanish lozim. Bunda o'quv modullarining mazmuni, tarkibiy tuzilishi, hajmi, pedagogik-psixologik, mantiqiy, lingvistik, estetik, metodik va didaktik talablar to'liq hisobga olinishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, modul shaklidagi o'quv materiallari davlat ta'lim standartlari, optimallashtirilgan o'quv dasturlari, milliy g'oya asoslarini o'zida mujassamlashtiriladi.

O'quv materiallari bugungi kunda jamiyatning ma'lumotli, har tomonlama barkamol faol fuqarolarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, mazmunida fan asoslari, ijtimoiy voqelik va mehnat jarayoni bilan o'zaro aloqador voqeliklar o'z ifodasini topadi.

O'quv modullarini tanlashda ular tarkibiga kiritiladigan o'quv materiallari, mashqlar, savol va topshiriqlar o'quv fanini o'qitishning innovatsion metodlari va texnologiyalariga asoslanilishi, ta'limning ijodiy xarakterga ega bo'lishi ta'minlanishi, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini har tomonlama rivojlantirishi, tashabbuskorligini oshirishga xizmat qilishi lozim.

O'quv materiallari muayyan yo'nalishdagi ilmiy bilimlardan tashqari o'quvchilarda huquqiy, iqtisodiy, ekologik, ma'naviy-axloqiy, estetik tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi va o'zbek xalqining pedagogik tajribasiga tayangan holda tanlanishi kerak.

Modul shaklidagi o'quv materiallarini tanlashda bir qator prinsiplarga tayanish talab qilinadi. O'quv materiallari o'qitish vositalari tizimida tashkiliy va yo'naltiruvchi vazifani bajarishi, mazkur vositalar bilan birgalikda, maktabda ta'lim tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Chunonchi:

1. Taqdim etilgan o'quv materiallarining o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi prinsipi. Ushbu prinsip o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishlari, ularning bilish imkoniyatlarini kengaytirish, hamkorlikdagi faoliyatga undash, layoqatlarini ro'yobga chiqarish, ularda axloqiy faoliyat asoslarini shakllantirish imkonini beradi.

2. O'quv materialini tanlashda ta'lim-tarbiya birligiga amal qilish prinsipi. Mazkur prinsip doirasida muayyan mavzuda taqdim etiladigan o'quv materiallarining o'quvchilarda g'oyaviy dunyoqarash, milliy axloq me'yorlariga amal qilish, ularni ma'naviy yuksaltirish, o'zbek xalqining boy tarixiy merosidan xabardor qilish imkoniyatini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Darslikda beriladigan o'quv materiallari, matnlar va rasmlar o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur, iftixor, O'zbekiston davlati va jamiyatining porloq istiqboliga ishonch tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ko'z o'ngida moddiy olamni yaxlit tarzda gavdalantirish asosida nazariy-tahliliy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini taqdim etish ham alohida ahamiyatga ega. Bu talab o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantirish, ta'limni insonparvarlashtirish vazifalarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liqdir.

3. O'quv materiali tarkibiga kiritilgan barcha ma'lumotlar, tushunchalar, ilmiy axborotlar, o'quv qurilmalari, konsentrlar, kompetensiyalar ilmiylik prinsip talablariga mos ishonchli, didaktik jihatdan asoslangan, dalillarga boy bo'lishi, voqea-hodisalar o'zaro aloqadorlikda yoritilishi lozim. Taqdim etiladigan o'quv materiallari o'quvchilarda dunyoni bilish, ularda nisbiy va mutlaq haqiqatlar haqida tasavvur hosil qilish, dunyoni ilmiy bilishga ko'maklashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki o'quvchi shaxsining shakllanishi mustaqil fikrlash orqaligina to'la amalga oshishi mumkin.

O'quv modullari tarkibiga o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli ilmiy bilimlar va fanning hayot bilan aloqasini ochib beruvchi tarixiy ilmiy materiallar kiritilishi lozim. Ular tushuncha va g'oyalar takomili, fan va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligi, ilg'or olimlarning ilmiy haqiqat qaror topishi uchun kurash jarayonlarini ifodalashi kerak.

Ilmiylik prinsipiga amal qilish, bir tomondan, o'qitilayotgan fanning ahvolini tahlil qilish, o'quv modullari tarkibiga yangi ilmiy dalillarni olib kirish, eskilarini chiqarib tashlash va shu yo'l bilan ta'limning ilmiylik darajasini ko'tarish hamda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish yoki yangilashni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, o'quv materialini bayon qilish usulini takomillashtirishni talab qiladi.

O'quv materiallari tarkibidagi ilmiy bilimlarning o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning mavhumlik darajasini asta-sekin kuchaytirib borishni ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarning mavhum ibora va tushunchalarni o'zlashtirishga sarflaydigan vaqtini chegaralash zarurligini hisobga olish talab etiladi. Bunday tushunchalar har bir matn doirasida bitta yoki ikkita bo'lishi, ular izohlanishi, ikkitadan ortgan taqdirda esa ba'zilar avval o'rganilgan bo'lishi talab etiladi. Taqdim etilgan o'quv materiallari o'quvchilarda matnlarni o'qish jarayonida mustaqil fikrlash, mushohada yuritish, o'zlashtirilgan bilimlarni eslash, ularni taqqoslash, idrok etish ko'nikmalarini mustahkamlashi lozim. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash layoqatlarini rivojlantiradi.

4. Ta'limning qulayligi va hammabopligi prinsipiga ko'ra taqdim etiladigan o'quv materiallari o'quvchilarning rivojlanish darajasi, mavjud tajribalariga muvofiq kelishi lozim.

5. Ta'limning uzviyligi va uzluksizlik prinsipi modullar tarkibiga kiritiladigan o'quv materiallarining ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta'riflar ma'lum mantiqiy tizimda izchil bayon qilinishini taqozo qiladi. 5-9-sinf o'quvchilari bilimlarni tizimli tarzda o'zlashtirishlari talab etiladi. Buning uchun taqdim etiladigan fan asoslariga oid ma'lumotlar, bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar, ilmiy dalillar, tajribaviy va empirik bilimlar muayyan izchillikda, yaxlit tizim asosida ifodalanishi kerak.

6. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi doirasida taqdim etiladigan o'quv materiallarining mehnat jarayonlarini ifodalashi, o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirishi nazarda tutiladi. Bu amaliy fanlardan taqdim etiladigan o'quv materiallarida o'z ifodasini topadi. O'quv materiallarida jamiyat rivojlanishida mehnatning ahamiyatini ko'rsatishga katta e'tibor berilishi kerak. Shuningdek, o'quv materiallarida rivojlangan bozor munosabatlari, tadbirkorlik faoliyati, kichik biznes va mehnat jarayonlarida shaxslararo munosabatlar aks ettirilishi lozim.

7. Ta'limning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi prinsipi doirasida o'quvchilar taqdim etilgan o'quv matnlari, rasmlar, savol va topshiriqlar yordamida zamonaviy kasblar, hozirgi zamon ishlab chiqarish, fan va madaniyat yutuqlari bilan yaqindan tanishadilar. Ayrim mehnat jarayonlariga qo'yiladigan talablar ham o'quv materiallari mazmunida ham o'z ifodasini topishi lozim. Chunki mazkur talablar o'quvchilarda muayyan kasbga nisbatan qiziqish uyg'otish imkoniyatiga ega. O'quv materiallari mazmunida mustaqil mamlakatimizda yashovchi xalqlarning hayoti, turmush tarzi, millatlararo munosabatlari o'z ifodasini topishi kerak.

8. Taqdim etiladigan bilimlar va ma'lumotlarni ongli o'zlashtirish prinsipi o'quvchilarni o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarni egallashning zarurligini anglash, bu bilim va ko'nikmalarining hayot uchun foydasi, ahamiyatini tushunishga olib kelishi zarur.

9. O'quv materiallarini taqdim etishda mustaqillik prinsipiga tayanish ham alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'rganilayotgan o'quv materiallarini tushunishlari uchun ularni mustaqil tahlil qilishlari, egallangan bilimlarni aniq amaliy vazifalarni bajarishda samarali qo'llashlari talab etiladi. Shu maqsadda matn ustida mustaqil ishlash, egallangan bilimlardan amalda foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha maxsus topshiriqlar bo'lishi lozim.

10. Aniqlik va mavhumlikning birligi yoki ko'rsatmalilik prinsipiga o'qitish ba'zan dalillarni kuzatishdan boshlanishi, keyin esa xususiyydan umumiyga, aniqlikdan mavhumlikka, boshqa hollarda esa mavhumlikdan aniqlikka o'tish tarzida amalga oshirishini aks ettirishi lozim.

11. Taqdim etiladigan o'quv materiallari ko'rsatmalilik va hodisalar taraqqiyotining ichki mantiqiylikiga asoslangan bo'lishi kerak. O'quvchilarda voqea-hodisalar haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradigan zarur suratlar, chizmalar, rasmlar, illyustratsiya materiallari bo'lishi kerak.

Taqdim etiladigan o'quv materiallarining bayoni o'quv dasturida belgilangan tajribalar, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish, multimedialar, slaydlar va boshqa ko'rsatmali vositalardan foydalanishni ko'zda tutadi.

12. Bilimlarni puxta egallash prinsipi modul tarkibidagi eng muhim masalalarni aniq ajratib berish, ularni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hajmini imkon qadar kamaytirishni taqozo etadi. O'qitishning keyingi bosqichlarida o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash va mustahkamlashda o'quv materiallari kengaytiriladi va to'ldiriladi. O'quvchilarning bilimlarni puxta egallashlari uchun reproduktiv xarakterdagi o'quv materiallaridan emas, balki ularni faol fikrlashga undaydigan, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradigan didaktik materiallarni taqdim etish lozim. O'quv modullari o'quv fanida ko'zda tutilgan asosiy mavzularga qayta-qayta murojaat qilish, uni o'quvchilarga boyitilgan o'quv materiallari yordamida singdirish, bu materiallarni yangicha nuqtayi nazardan taqdim etish, ularni taqqoslash va yangi bilimlar bilan bog'lash imkonini berishi kerak.

13. Rivojlantiruvchi ta'lim prinsipi bilimlarni egallash va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o'rnatilishini talab qiladigan o'quv materiallarini taqdim etishni nazarda tutadi. Chunki bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ilmiy asos bo'lsa, uning rivojlanish darajasi bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun ham darsliklarda taqdim etiladigan bilimlar izchil tarzda o'quvchilarning rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda taqdim etilishi kerak. Shuningdek, mazkur bilimlar o'quvchilarni ijodiy faollikka unday olishi lozim.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun modul tarkibiga muammoli savol va topshiriqlarni kiritish talab etiladi. Mazkur savol va topshiriqlar bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish, tanish vaziyatlarda yangi muammolarni ilg'ab olish, muayyan faoliyat usullarini mustaqil tarzda yangilari bilan almashtira olish, o'quvchilarni muqobil topshiriqlarni idrok eta olishga undaydi.

O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyati ko'rinishlarini shakllantirish uchun taqdim etiladigan o'quv materiallarida mazkur faoliyatning quyidagi bosqichlari aniq ifodalanishi kerak:

- a) tadqiqotning maqsadi va obyektini aniqlash;
- b) o'rganilgan obyekt haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish;
- d) muammo, ilmiy farazni ilgari surish va tekshirish uchun tadqiqot rejasini tuzish;
- e) tadqiqot loyahasini tuzish va unga o'zgartirishlar kiritish;
- f) tadqiqot natijalariga asoslangan holda xulosalar chiqarish va topilgan yechimni tatbiq etish qoidalarini belgilash kabilar.

O'quv modullari tarkibida o'quvchilar uchun tadqiqot elementlarini aks ettiruvchi ijodiy tavsifdagi topshiriqlar va mashqlar taqdim etilishi kerak. O'quvchilarning aqliy layoqatlarini uzluksiz o'stirish uchun vazifalar izchil murakkablashtirilib borilishi talab etiladi.

14. Ta'limning ijtimoiy xarakterga egaligi va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipiga ko'ra o'quv modullari tarkibiga kiritiladigan o'quv materiallari, mashqlar, masalalar va topshiriqlarda o'quvchilarning aqliy hamda jismoniy quvvatlari, qiziqishlari, layoqatlari turlicha ekanligini nazarda tutish talab qilinadi. O'quv modullari tarkibida taqdim etiladigan o'quv matnlari barcha o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi, shu bilan bir qatorda har bir ta'lim oluvchining aqliy taraqqiyoti va layoqatlarini ro'yobga chiqishini ta'minlashi kerak. Buning uchun ijodiy xarakterdagi topshiriqlarda ularning murakkabligi va individual yondashuvni talab qilishini hisobga olgan holda maxsus belgilar qo'yilishi lozim.

15. Ta'limning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi prinsipiga o'quv modullari tarkibida taqdim etiladigan o'quv materiallari, savol va topshiriqlarda o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlari, bilim darajasini hisobga olishni taqozo etadi.

16. O'quv modullari tarkibida taqdim etiladigan o'quv materiallari, savol va topshiriqlar, rasmlarning mazmuni gender tenglik va farqlarni hisobga olish prinsipiga tanlanishi va funksiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Didaktik vosita sifatida o'quv materiallari o'quvchilarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жанпеисова М.М. Модульная технология как средство развития ученика. – Алматы, 2001.

2. Инусова Х.М. Модульное обучение - что это такое? // Школьные технологии. 1998, №2.

3. Олейникова О.Н. Модульные технологии: проектирование и разработка образовательных программ: учебное пособие. – М.: Альфа-М; ИНФРА-М, 2010. – С. 256.

4. Шамова Т.И. Основы технологии модульного обучения // Химия в школе. 1995, №2.

Dildora TASHXANOVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi

mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası assistenti

TA'LIM MUASSASALARIDA MIKROBIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING SAMARALI JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-qizlarga bo'lajak ona sifatida qaralib, ular uchun mikrobiologiya fanining ba'zi mavzulari (venerik kasalliklar) qo'shimcha dars sifatida o'qitilishi amaliy misollar yordamida taklif etilgan. Mazkur fanni nafaqat tibbiyot ta'lim muassasalarida, balki umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ham tashkillashtirish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Venerik kasalliklar, parenteral yuqish, kontakt yuqish, mikrobiologiya, virus.

В статье предложено проведение в учебных заведениях дополнительных практических занятий по микробиологии для учащихся-девушек как будущих матерей, с обсуждением вопросов венерических заболеваний. Подобные занятия рекомендуется проводить не только в средних специальных медицинских учебных заведениях а также в других учебных заведениях.

Ключевые слова. Венерические заболевания, путь заражения парентерально, микробиология, вирус.

The article proposes additional practical classes on microbiology, to discuss about venereal diseases. The suggestion is not only for medical training institutions, but also for the rest of schools.

Key words. Venereal diseases, parenteral infection, a way of infection contact, microbiology, a virus.

Bugungi kunda xalqimizning asriy an'analarini hisobga olib, "Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi", degan oliyjanob g'oyaning chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlarni amalga oshirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-e'tibor muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi qabul qilindi¹. Dasturga binoan, yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash, qiz bolalarni – bo'lajak onalarni – jismonan

¹ "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 7-son, 62-modda. 2016.

sog'lom va intellektual rivojlangan tarzda voyaga yetkazish ko'zda tutilgan. Ularning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari albatta ta'lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularning hayotda munosib o'rin egallashlarida, kelajakda sog'lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblangan.

Tirik mavjudotlar olamida mikroorganizmlar alohida o'z o'rniga ega bo'lib, yerdagi hayotning eng qadimiy vakillaridan biri hisoblanadi.

Mikrobiologiya hozirgi kunda juda taraqqiy etgan fanlar jumlasiga kirib, bu fandan quyidagi fanlar ajralib chiqqan va mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda.

1. Umumiy mikrobiologiya. Mikroorganizmlarning umumiy taraqqiyot bosqichlari, hayot faoliyatlari, tabiatdagi rolini o'rganadi. Umumiy mikrobiologiya boshqa mikrobiologiya fanlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Tibbiyot mikrobiologiyasi. Odamda kasallik chaqiruvchi patogen mikroorganizmlarni o'rganadi.

3. Sanoat mikrobiologiyasi.

4. Qishloq xo'jalik mikrobiologiyasi.

5. Veterinariya mikrobiologiyasi.

6. Suv mikrobiologiyasi.

7. Kosmik mikrobiologiya.

Tibbiyot mikrobiologiyasi. Hozirgi kunda bu fan tibbiyot o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ikki bo'limga bo'lib o'rganiladi.

1. Umumiy mikrobiologiya bo'limi.

2. Xususiy mikrobiologiya bo'limi.

Mikrobiologiya fanida talabalarining tabiiy va tibbiy biologik fikrlashning shakllanishi uchun zarur bo'lgan, mikroorganizm biologiyasi, ularning odam va hayvon organizmi o'zaro munosabatlarini ochib beruvchi har bir bo'limi talabani odam organizmida molekulyar, hujayraviy va organ darajasida ro'y berayotgan jarayonlarning tub mohiyatini yoritish uchun zarur axborotlar bilan tanishtiradi. Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya zamonaviy tibbiyotning nazariy fundamenti hisoblanadi. Asosiy bilimlarni egallash orqali odamda mikroorganizmdan zararlanganligi, unga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishga, to'g'ri davolash ishlari olib borishga yordam beradi.

Ushbu fan inson organizmining hujayralari, to'qimalari, a'zolari va sistemalarining embrional va postembrional taraqqiyoti, mikroskopik va submikroskopik tuzilishi, ularning faoliyat qonuniyatlari, fan tarixi va rivoji tendensiyasi, istiqboli masalalarini qamraydi hamda mutaxassisga fikrlash va belgilarni asoslash uchun zamin yaratib beradi.

Fanning o'qitish vazifalari:

– talabalarga mikroorganizmlar haqida tushuncha berib, ularning xilma-xilligini, bir-birlaridan farq qilishlarini va ularning zamonaviy klassifikatsiyasini o'rgatish;

– umumiy va xususiy mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya fanini o'zlashtirish, har bir bo'limda ko'riladigan masalalarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatib berish;

– yuqumli kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarning patogenlik omillarini, kasallik keltirib chiqarishda bu patogen omillarning ahamiyati va ularni laboratoriya sharoitida aniqlash usullari bilan tanishtirish;

– yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradigan mikroorganizmlarni mikrobiologik, virusologik, serologik, biologik, allergik tekshirish usullari bilan tanishtirish;

– patogen mikroorganizmni aniqlashda organizm qismlaridan to'g'ri surtma olishni o'rgatishdan iborat.

Tibbiyot o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mikrobiologiya fani dastur reja asosida o'tilib kelinadi. Ammo boshqa o'rta maxsus ta'lim muassasalarida asosiy fan bo'lmaganligi uchun dastur rejasiga kiritilmagan.

O'rta maxsus ta'lim muassasadagi o'quvchi-qizlarni bo'lajak ona ekanligini hisobga olgan holda mikrobiologiya fanidagi ba'zi mavzularni chuqurroq va qo'shimcha dars sifatida targ'ib qilish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Mikrobiologiya fanidagi ba'zi amaliyot darslari, ya'ni venerik kasalliklarga kiruvchi turli xil virusli kasalliklar, kantakt yo'li orqali o'tuvchi zamburug'li kasalliklar haqida bo'lajak onalarga qo'shimcha ravishda chuqurroq o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mikrobiologiya fanida venerik kasalliklar va uning oldini olish chora-tadbirlari haqida chuqurroq o'tilishi xalqimizda bu kasallikni bartaraf qilishga va xalq ongiga, madaniyatiga singdirish yo'li bilan bu kasallikni yo'qotish ham mumkin.

Venerik kasalliklarga zaxm, so'zak, yumshoq shankir, limfagranilematoz, donovanoz, xlamidioz, mikoplazmoz, ureaplazmoz, bakteriali uretrit, trixomoniaz, kandidoz, gardnerellez, herpes, papillomi va OITV, kontagiozli mollyusk kiradi.

Venerik kasalliklar odamga parenteral (kasallangan bemorning qoni sog'lom organizmiga tushishi) yuqishi mumkin. Bu holat bemordan qon quyilganda, bemorning qoni bilan zararlangan tibbiy asbob-uskunalar ishlatilganda (stomotalogik, ginekologik, xirurgik), qo'lga, oyoqqa, qoshga kosmetologik ishlov berilganda (tatuaj, rastushovka, manikyur, pedikyur) kuzatiladi. Kantakt (kasallangan bemor bilan o'zaro kantaktda bo'lish) bemorning kiyimini kiyganda, bemor ishlatgan sochiqlardan foydalanganda, bemor bilan umumiy holatlarda foydalanganda (par hammomi, hovuz) yuqishi mumkin.

Kasalliklarning yashirin davri 3 xaftadan bir necha oy bo'lib, ikkilamchi davrida asta-sekin klinik belgilari namoyon bo'ladi, ba'zi hollarda simptomiz (belgisiz) kechishi mumkin. Kasallikning simptomlari (belgilari)ga qov sohasida og'riq, hayz siklining buzilishi, shilliq bo'lishi, peshob chiqarganda og'riq bo'lishi, bepustlik, bola tashlash, toshmalarning toshishi, isitma ko'tarilishi, holsizlanishlar bo'ladi. Kasallikning boshlang'ich davri vaqtida mutaxassisga murojat qilish, mutaxassislar tomonidan belgilangan tartibga to'liq rioya qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchi-qizlariga bo'lajak ona sifatida qaralib, yuqorida keltirilgan kasalliklar havfli ekanligi, uning oldini olish uchun bu haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari, zarur qo'llanmalarni o'qishi kerak. Shuning uchun mikrobiologiya fanining ba'zi amaliy darslarini faqatgina tibbiyot o'rta maxsus ta'lim muassasalarida emas, balki barcha ta'lim muassasalarida chuqur yondashish va o'quvchilar bilan suhbatlashib, ularning muammolarini hal qilish zarur.

Foydalingan adabiyotlar:

1. "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 7-son, 62-modda. 2016.
2. Xujayeva Sh.A. Ayrim TORCH-infeksiyalarida qin, ichak mikroflorasi va mahalliy immunitet tizim holati, ularni korreksiyalash yo'llari. Avtoref. tib.fanlari nomz. – T., 2008.
3. Tashxanova D.Y. TORCH-infeksiyasi bilan kasallangan ayollarda qin mikrofilariidan ajratib olingan laktobakteriyalarning biologik xususiyati. Magistrlik dissertatsiya. – T., 2016.
4. Мухамедов И.М., Махкамова Д.Э., Мухамедов Б.И. Микроэкология влагалища, её нарушения и пути их коррекции. Учебное пособие. – Т., 2004.
5. Скрипкин Ю. К. Кожные и венерические болезни. Руководство для врачей, 2002.
6. Ryan KJ, Ray CG (editors). Sherris Medical Microbiology. 4th. McGraw Hill, 2004.

Abdumalik AKRAMOV,
Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Unda asosan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ahamiyatiga ko'ra guruhlariga ajratilishi xususiyatlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasasi, talaba-yoshlar, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, rivojlanish tendensiyalari.

В статье рассмотрены вопросы развития гражданской позиции на основе личностно-ориентированных технологий. В основном раскрыто значение формирования сильной гражданской позиции у студентов педагогического вуза. Представлены особенности разделения студентов по группам по уровню сформированности гражданской позиции.

Ключевые слова. Личностно-ориентированное образование, образовательная система, высшее образовательное учреждение, студенческая молодежь, гражданская позиция, формирование гражданской позиции, тенденции развития.

The article highlights issues of forming citizen opinions based on person centered approach. Stated the peculiarities of dividing groups of forming citizen stand based on person centered approach. Provides peculiarities of students' division in groups, depending on level of their civic stance.

Key words. Person centered approach, education system, higher education institutes, student-youth, civic stance, forming of citizen stance, developing tendencies.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida respublikamiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, ta'lim jarayonini o'qituvchi shaxsga yo'naltirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Chunki ta'lim jarayonida yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ijodiy va ijtimoiy faol kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, o'z haq-huquqlarini to'liq anglagan, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Shu bois, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlardagi fuqarolik hissini va mas'uliyatini tarbiyalash, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ehtiyoji o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Oliy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish muammosi ko'p qirrali bo'lib, bu sohada mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar va nuqtayi nazarlar ilgari surilmoqda. Professor-o'qituvchilardan shaxsga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda mazkur hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishlari talab etilmoqda. Professor-o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishlari, bu jarayonning maqsad-vazifalarini yaxshi tushunishlari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari lozim. Talaba shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish uchun bir qator mezonlarga tayanish talab etiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak o'qituvchini kasbiy rivojlantirish, unda fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirish jarayoni amalga oshiriladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldiga yangicha kasbiy sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida yondashish, ularning individual imkoniyatlarini aniq hisobga olish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozim. Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga insoniy munosabatda bo'lish ustuvor o'rin egallaydi. Buning uchun professor-o'qituvchilar ham, talabalar ham faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Tadqiqotlar natijasida bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir quyidagi kompetentsiyalar tizimi aniqlashtirildi:

intellektual, madaniy, ma'naviy, jismoniy, kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lish;

tarixiy meros va madaniy an'analarga nisbatan hurmat-ehtiromda bo'lishi, ijtimoiy va madaniy o'ziga xosliklarni bag'rikenglik bilan qabul qilish;

tarixiy jarayonni harakatga keltiruvchi omillar va qonuniyatlarni tushunish, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida inson omilining o'rnini anglash;

milliy va umumbashariy ahamiyatga ega masalalarni tushunishi, tahlil qilishi hamda axloqiy-huquqiy me'yorlar va majburiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat'iyat ko'rsatish;

kasbiy faoliyat sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mustaqil yangi bilim, amaliy ko'nikmalar va ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish;

yangi g'oyalarni yaratish, ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish;

faoliyati bo'yicha muloqot vositasi sifatida xorijiy tillardan birini erkin so'zlashuv darajasida bilish, nutq madaniyatini egallash, og'zaki va yozma nutqini asoslangan tarzda aniq bayon qila olish qobiliyatiga ega bo'lish;

jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib borayotgan axborot texnologiyalari mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informatsion xavfsizlik, ya'ni davlat sirini himoya qilish talablariga rioya qilish malakasiga ega bo'lish;

mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sog'liqni mustahkamlashdan metodik to'g'ri foydalanish vositalarini, to'laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta'minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning kerakli darajasini egallash.

Shu nuqtayi nazardan qaraganimizda, ta'lim yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan integrallashgan axborotlarni taqdim etish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o'zini o'zi anglash, ijtimoiy-g'oyaviy yetuklik, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, fidoyilik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarining talabalari fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlari uchun o'zlarida muayyan sifatlarning ham shakllanishiga erishishlari talab etiladi. Nazariy o'rganish, talabalar faoliyatini kuzatish, oliy ta'lim mazmuni bilan tanishish orqali yetuk fuqaro bo'lib shakllanish, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlari uchun talabalar quyidagi sifatlarni samarali o'zlashtirishi zarurligi aniqlandi:

- ma'naviy-axloqiy sifatlari – vatanparvarlik, baynalmilallik, mehnatsevarlik, fidokorlik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, vijdonlilik, davlat siyosatining to'g'riligi va o'z kuchiga bo'lgan ishonchga egalik, do'stlik tuyg'usiga egalik, tinchlik va adolat uchun kurashuvchanlik, bag'rikenglik, mas'uliyatlilik, insoniylik, insonparvarlik, milliy tarixga hurmat ko'rsatish, ijobiy milliy xususiyatlar (mehmondo'stlik, bolajonlik, jamoaviylik, saxiylik, oliyanoblik va boshqalar)ga sodiqlik, jamoa ishlarida faol qatnashish, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish, liderlik, o'z oilasi, ta'lim muassasasi hamda o'zi mansub bo'lgan akademik guruh sha'nini himoya qilish, jamoa obro'si uchun kurashish, intizomlilik;

- irodaviy sifatlari – mustahkam xarakter egasi bo'lish, irodalilik, ruhan tetiklik, tirishqoqlik, qat'iyatlilik, jur'atlilik, sabrlilik, matonatlilik, turli vaziyatlarda o'zini tuta bilish, o'zini o'zi nazorat qila olish, mardlik, faollik, dovyuraklik;

- aqliy sifatlari – bilimlilik, qobiliyatlilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlay olish, vaziyatni tahlil qila bilish, vaziyatni to'g'ri baholash, topqirlik, o'tkir zehnlilik;

- jismoniy sifatlari – jismonan sog'lomlik, jismonan yetuklik, harakatchanlik, jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarziga ega bo'lish;

- ekologik sifatlari – tabiat va atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo'lish, ekologik onglilik, ekologik faollik, ekologik mas'ullik, yer osti va yer usti boyliklarini asrash, ekologik xavfni bartaraf etishga hissa qo'shish, O'zbekiston faunasi va florasini asrash to'g'risida qayg'urish, ekologik tejamkorlik (suv, tabiiy yoqilg'ilar va elektr energiyasi kabilarni tejash);

- huquqiy sifatlari – huquqiy onglilik, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiy va ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni tan olish, davlat ramzlari (O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi va madhiyasi)ga hurmat ko'rsatish, Respublika qonunlariga qat'iy rioya etish;

- iqtisodiy sifatlari – iqtisodiy onglilik, halollik, ishchanlik, mehnatni va kasbiy faoliyatni sevishtirish, kasbiy faoliyatga nisbatan fidoyilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, iste'molchi huquqlarini bilish.

Talabalarda shakllantirilgan mazkur sifatlari jamiyatimizdagi siyosiy, iqtisodiy holat haqidagi turli xil nuqtayi nazarlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi. Buning natijasida talaba-yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yurtimizda fuqarolik jamiyati qurish jarayonida shaxs, davlat va jamiyatning siyosiy milliy xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda davlatimizning milliy barqarorligini ta'minlash vazifasi ustuvor o'rin egallaydi.

Fuqarolik tushunchasi keng mazmun-mohiyatga ega bo'lib, jamiyat a'zolarining siyosiy, ijtimoiy huquqlarini anglatadi. Fuqarolik tarbiyasi har tomonlama fidoyi, jamiyatga foyda keltiradigan, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Davlat siyosatining asosini fuqaro hamda davlatning o'zaro munosabatlari tashkil etadi. Uning mohiyati o'zaro aloqador bo'lgan burch va mas'uliyatlarni anglashdadir. Shuning uchun ham fuqarolik shaxsining ijtimoiy-axloqiy madaniyati ko'rsatkichi sifatida tarkib topadi.

Fuqarolik pozitsiyasi – bu shaxsning jamiyat hayotida turli yo'nalishlaridagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ko'rinishi bo'lib, u demokratik bilimlarni faol o'zlashtirish natijasida shakllangan shaxs nuqtayi nazarlari, qarashlari va amaliy harakatlarida o'z ifodasini topadi. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish o'z ichiga fuqarolikni anglash va fuqarolik faolligini qamrab oladi¹.

Fuqarolikni anglash shaxsning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. Mavjud pedagogik-psixologik adabiyotlarda shaxs – muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo'lgan, bi-ror faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'lgan aniq inson sifatida ta'riflanadi. Shaxsning o'zini anglashi murakkab psixologik jarayon hisoblanib, u shaxs faoliyatini boshqaradi, iroda va hissiyotlarini tartibga soladi. Shaxsning fuqarolikni anglashi esa, fuqarolik huquq va majburiyatlarini anglashi hamda ularni o'z xatti-harakatlariga faol tatbiq etishi bilan belgilanadi.

Fuqarolik faolligi – shaxsning fuqarolik huquq va majburiyatlariga bo'lgan mas'uliyatli munosabatida, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv, kasbiy va shaxsiy rejalarining ijtimoiy yo'nalganligida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsidagi fuqarolikni anglash va fuqarolik faolligining shakllanishi bevosita talabalik davrining ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilgandagina samarali natijalarni beradi². Chunki talabaning individual-psixologik xususiyatlari, nerv-fiziologik tuzilmasi va intellektual imkoniyatlari – tug'ma statusi, uning hayot davomida egallanadigan ijtimoiy statusi, fuqarolik pozitsiyasiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga nisbatan, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga, jamoaviy ishlarga bo'lgan munosabatida, ijtimoiy faolligida o'z aksini topadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilardagi fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning to'g'ri tashkillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu o'rinda yangicha mazmun, ilg'or texnologiyalar, xususan, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish shubhasiz, ijobiy natijalarni beradi.

Zamonaviy ta'limda shaxs – o'qitishning diqqat markazida bo'lib, shunga binoan, ta'lim maqsadi, mazmuni va shakllari talabaga, uning shaxsiga qaratilganligi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mohiyatini tashkil etadi. Bu yondashish mazmunida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilinib, ushbu jihatlar kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan birga, o'quv topshiriqlari,

¹ Сергейчик С.И. Факторы гражданской социализации учащейся-молодежи. Социологические исследования. 2002. № 5. – С. 107-111.

² Виленский М.Я., Зайцева С.Н. Педагогические основы формирования опыта творческой деятельности будущего учителя // Учебное пособие. – М.: МГПУ, 1993. – С. 57.

ularni tahlil etish va yechish borasidagi zaruriy ko'nikma hisoblangan ijodiy tafakkur operatsiyalarini rivojlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari pedagogikaning insonparvarlik tamoyiliga asoslanib, uning negizida shaxsning o'zini anglashi yotadi. Insonparvarlik, ta'lim-tarbiyaning shaxsga yo'nalganligi g'oyasi pedagogikaning tarixiy asoslariga bo'rib tayanadi.

Qadimgi yunon mutafakkirlari Suqrot, Platon, Aristotel ta'limda "inson barcha narsalarning o'lchov birligidir", degan aksiologik g'oyani keng talqin qilgan bo'lsalar, sharq mutafakkirlaridan Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Davoniy, Tusiylarning ma'rifiy qarashlarida erkin fikrlovchi shaxs, komil inson ta'limoti o'z aksini topgan. Jumladan, Farobiyni fozil jamiyat va fozil inson haqidagi ta'limoti insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo'nalishini asoslashga qaratilganligi bilan, ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi.

Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini boyitishda insonparvarlikka asoslangan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda va bu muammo bir qancha pedagog olimlar ilmiy ishlarining tadqiqot muammosi sifatida ham o'rganilgan.

Xususan, Y.V.Bondarevskiy o'z tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar – bu ta'lim oluvchi shaxsini individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dialogik, faoliyatli va ijodiy xarakterdagi o'qitishning mazmuni va vositalarini tanlashdagi erkinlik, ijodiylik va mustaqillikni ta'minlanishi bilan tavsiflanadi, deya ta'kidlaydi. Shu asnoda, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar pedagogik jarayonda faoliyat va muloqot vositalarini subyektlar orasidagi o'zaro hamkorlik xarakterida bo'lishini talab etadi³.

Bizga ma'lumki, an'anaviy ta'limda shaxs vositalaridan biri sifatida qabul qilinib, uning faoliyatida bajaruvchanlik, ijrochilik xususiyatlari ustunlik qilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar esa, o'z maqsadi va mohiyatiga ko'ra, an'anaviy o'qitishdan farq qilib, ta'lim oluvchi shaxsining tabiiy imkoniyatlarini namoyon qilishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishni taklif qiladi. Bunda talaba o'zini o'quv faoliyatining subyekti sifatida his qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni shartli ravishda uch guruhga bo'lishimiz mumkin bo'ladi:

1. Qadriyatli yo'naltirilgan, ya'ni shaxsdagi o'zini anglashning rivojlanishiga, uning ijtimoiy, shaxsiy, axloqiy, kasbiy, ayni damda fuqarolik qadriyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan texnologiyalar (ijtimoiy-psixologik treninglar, diskussiya, ishbilarmon va rolli o'yinlar).

2. Moslashtirilgan texnologiyalar, qaysiki, ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini o'quv motivlariga moslashish maqsadini ko'zlagan va o'quv faoliyatida talaba o'zini namoyon etishi va anglashi uchun qulay psixologik sharoit yaratishni ta'minlashga yo'naltirilgan texnologiyalar (differensial o'qitish texnologiyalari, modul o'qitish texnologiyalari, programmashtirilgan o'qitish texnologiyalari va h.k.).

³ Азизходжаева Н.Н. Национальные особенности развития высшего педагогического образования в Узбекистане. – Т.: Фан, 1990. – С. 85.

3. Shaxsni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari – ya'ni ta'lim oluvchining shaxsiy potensialini rivojlantirishga, ayni damda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan texnologiyalar (loyihalash texnologiyalari, TRIZ texnologiyalari, o'quv-tadqiqot texnologiyalari, ijodiy mahorat texnologiyalari va h.k.).

Mazkur guruhlariga ajratilgan texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning aniq doirasida amalga oshirilib, bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa ular bilan amalga oshiriladigan o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi, ya'ni:

- fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonini talaba shaxsining individual-psixologik xususiyatlari va yo'nalgan qiziqishlari bilan uyg'unlashtirish;
- shaxsni tarbiyalashda o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish;
- fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatiga olib keluvchi zaruriy kasbiy va shaxsiy sifatlar, xususan, tashabbuskorlik, muloqotchanlik, ijodkorlik, g'oyaviy e'tiqod, mas'uliyatlilik sifatlarini shakllantirish va maqsadli yo'naltirish;
- o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali shakl va metodlari tizimini ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan o'rinni foydalanish talaba-yoshlarda mustaqil fikr yuritish, shaxsiy "Men"ini va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini anglash ko'nikmalarini qaror topishiga munosib zamin hozirlaydi. Ma'lumki, talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayoni o'zining ichki murakkabliklari va qarama-qarshiliklariga ham ega. Mazkur vaziyatning o'ziga xos jihatlari oliy ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari ijtimoiy turmushdagi rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq holda ro'y bermoqda. Shu bilan bir qatorda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar ijtimoiy hayotdagi ijobiy o'zgarishlarning muhim qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сергейчик С.И. Факторы гражданской социализации учащейся- молодежи. – Социологические исследования. 2002. № 5. – С. 107-111.
2. Виленский М.Я., Зайцева С.Н. Педагогические основы формирования опыта творческой деятельности будущего учителя // Учебное пособие. – М.: МГПУ, 1993. – С.57.
3. Азизходжаева Н.Н. Национальные особенности развития высшего педагогического образования в Узбекистане. – Т.: Фан, 1990. – С. 85.

Ma'mura TOSHPULATOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA MATEMATIK MASALALARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematik masalalarning berilishi, yechish rejasi va yechilishi yoritilgan. Muallif masalalar yechish orqali o'quvchilarda masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish, tahlil qilish (ma'lumni noma'lumdan ajrata olish)ni ochib bergan. Shuningdek, qisqa yozish, sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirishi haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Sodda va murakkab masalalar, o'qituvchining matematik-metodik tayyorgarligi, masalaning sharti, masalaning savoli, masalaning to'la yechimi.

В статье излагаются вопросы формирования у будущих учителей начальных классов умений и навыков объяснения решения задачи, в частности проведения анализа и синтеза условия задачи (отделения известных данных от неизвестных), составления краткого условия, составления планы решение, умения выполнения проверки задачи, определения системы работы над задачей, обоснования выбора действий в простых и сложных задачах.

Ключевые слова. Простые и сложные задачи, методико-математическая подготовка учителя, условия задачи, вопрос задачи, полное решение задачи.

The article tells about development of future elementary school teachers, skills and abilities for problem solving, particularly in analysis and synthesis of task requirement (separation of the known data from the unknown), drawing a brief terms, drawing up plans for a decision, the task execution skills, determination operation system on a task, justify the selection of actions in a simple and complicated problems.

Key words. Simple and complex tasks, training of teachers, conditions of the problem, the question of problem analysis and synthesis tasks, work plan objectives Entirely solutions of the problem.

Ozbekiston Respublikasida chuqur, keng ko'lami islohotlar amalga oshirilgan ekan, yangicha fikrlaydigan, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, yuksak malakali, intellektual qobiliyatga ega yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratmog'imiz lozim.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy mamlakatlar hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish korxonalari bunyod

etilib, ularni kadrlar bilan ta'minlash ishlari hal qilinmoqda. Shunday bo'lsa-da, mamlakatimizda yuqori darajali kadrlarga huquqiy demokratik davlatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatli va sharaflı vazifani hal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati benihoya katta.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat..." ekanligini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati shaxsning o'quv jarayonida ta'lim olishi uchun qo'yilgan talab va qobiliyatlarini shakllantirishga sharoitlar yaratib berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan o'quv jarayonida lozim bo'ladigan ilmiy bilimlariga asoslanib, o'quv jarayoniga kirishar ekan, pedagogik va psixologik bilimlarni mukammal bilishi, dars berish metodikasini hamda texnologiyasini egallagan bo'lishi kerak.

Pedagog-axloqiy me'yorlarni bolaga uqtirish orqali uni hayotga, yashashga o'rgatuvchi shaxsgina emas, balki bolaning hayotini o'z shaxsiy hayoti singari his qilib, uning ichki, axloqiy-ma'naviy, umummadaniy o'sib-rivojlanishiga va bolalar hamda kattalar hamjihatining mustahkamlanishiga ko'maklasha borib, o'zi ham kamolotga intiluvchi insondir.

Boshlang'ich sinfda kechayotgan o'zgarishlar, Davlat ta'lim standartlari bilan belgilangan zamonaviy sharoitlarda o'z-o'zini takomillashtirishga barcha urinishlar faqat miqdor parametrlarini o'zgartirish sifatida baholanadigan bo'lg'usi o'qituvchini tayyorlashning an'anaviy usuli bemahsul bo'lib qolmoqda. Ijodiy izlanish, o'quvchilarga ta'lim berish amaliyotida o'qituvchining butun shaxsiy potensialini namoyon etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda faol, rivojlantiruvchi ta'lim shakllaridan foydalanishga imkon bermayapti.

Kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikadan sodda masalalarni to'g'ri va tez bajaradilar, lekin murakkab va muammoli masalalarni yechish jarayonida turli xatolarga yo'l qo'yadilar. Xo'sh, buning sababi nimada?

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematikadan masalalarni yechishga o'rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlili natijalari, ularning pedagogik ongi aniq o'quv fani, jumladan, matematikada rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalarini qabul qilish va mustaqil fikrlashga tayyor emas.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida metodik-matematik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. An'analarga muvofiq, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik tayyorgarligining asosiy mazmuni uni o'quvchilarga matematik bilimlarni berish, ularda dastlabki matematik bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi zamonaviy boshlang'ich ta'lim ehtiyojlariga o'quvchining mustaqil masalalarni yechishga o'rgatishni rivojlantirish va shu borada malakalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan javob bera olmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil masalalarni yechishni bilmasligi matematika, geometriya, fizika, kimyo va astronomiya kabi fanlarni o'zlashtira olmasligi va hayoti davomida biror mushkul vaziyatda mustaqil to'g'ri qaror qabul qila olmasligi, oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmasligiga olib keladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari

rini masalalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda muammoli vaziyatga duch kelishi uning eng maqbul yechimlarini topa bilishi, mustaqil qaror chiqarishi va shu qarorini himoya qilishi shakllanadi. Bu esa jamiyatda o'quvchilarning o'z o'rnini topa olishda, kasb tanlashda va farovon hayot kechirishida muhim o'rin tutadi.

Matematik masalalarni to'g'ri tushunmagan va masala mazmunini to'liq tasavvur qila olmagan o'quvchi keyinchalik geometriya, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya hamda iqtisodiyot fanlaridan berilgan masalalarni ham yecha olmaydi.

Matematik masala – bu bog'liqli ixcham hikoya bo'lib, unda ba'zi kattaliklarning qiymatlari kiritilgan bo'lib, ularga bog'liq va masala shartida kattaliklar bilan ma'lum munosabatlar orqali bog'langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi.

Ammo o'qituvchilar masalaning boshqa ta'rifini ham biladilar: “Masala – bu so'zlar bilan ifodalangan savol bo'lib, uning javobi arifmetik amallar yordamida olinishi mumkin”. Bu ta'rif faqat arifmetik masalalarga taalluqlidir.

Masala tushunchasini tor ma'noda qarab, unda quyidagi tarkibiy elementlarni ajratish mumkin:

a) *masalaning sharti* – syujetning so'zlar bilan bayoni bo'lib, son qiymatlari masala tarkibiga kiruvchi kattaliklar orasidagi funksional bog'lanish oshkor (sonlar yordamida) holda yoki yashirin shaklda (so'zlar yordamida) ko'rsatilgan bo'ladi;

b) *masalaning savoli* – bunda bir yoki bir necha kattalikning noma'lum qiymatlarini bilish taklif qilinadi.

Har qanday arifmetik masalada noma'lum (izlanayotgan) son (yoki bir nechta izlanayotgan son) va berilgan sonlar (ular ikkitadan kam bo'lmasligi kerak)dan iborat elementlar albatta bo'lishi kerak.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi.

Shart va savol – masalaning asosiy elementlaridir. Sonli (yoki harfiy) ma'lumotlar masala shartida berilgan; izlanayotgan miqdor har doim masala savoliga kirgan bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda masala shunday ifodalangan bo'lishi mumkinki, unda savol shartning bir qismini oladi yoki butun masala savol shaklida bayon qilinadi.

1-masala. Birinchi qutida 5 ta qalam bor. Ikkinchi qutidagi qalamlar soni birinchidagidan 2 ta ortiq. Ikkala qutidagi qalamlar soni nechta?

Matnli masalalarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda izlanayotgan sonni topish uchun berilgan sonlar ustida qanday amal (yoki amallar)ni bajarish kerakligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaydi. Shu sababli masala matnida berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi biror bilvosita ko'rsatmalar bo'lishi va bu bog'lanish kerakli arifmetik amallarni tanlash va ular tartibini aniqlashi kerak.

Masalaning to'la yechimi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- shartning analizidan (tahlilidan);
- amallarning bajarilish tartibini ko'rsatuvchi rejadan;
- kattalikni go'yoki bu qiymati qanday amal bilan topilishi va nega shu amal bilan topilishini tushuntirishdan;

- arifmetik amallarni bajarish va javobdan iborat bo'ladi. Shuningdek, masala yechilishiga tekshirish va olingan javobning yaroqli yoki yaroqsiz ekanini aniqlash ham kiritiladi.

Yuqoridagi 1-masalani quyidagicha qisqa sharti tuzib olinadi.

Berilgan:

1-qutida – 5 ta qalam

?

2-qutida – ?,2 ta ortiq

Yechish: 1) $5+2 = 7$ (ta) (ikkinchi qutidagi qalamlar soni)

2) $5 + 7 = 12$ (ta)

Javob: ikkala qutida 12 ta qalam bor.

Bilimlarni tekshirishda masala o'quvchi tafakkurining rivojlanishini bilish, kerakli amallarni to'g'ri tanlash, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

O'quvchilar maktabga kelgan davrining ilk kunlaridan boshlab matematik masalalarni o'rganadilar. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish va yozishni to'liq bilmasalarda, kundalik hayotda uchraydigan masalalarni og'zaki ravishda bemalol yecha oladilar. Tayyorgarlikda tasvirdagi matematikani o'qitishdan maqsad – bolalarga kundalik hayotda yuz beradigan holatlarni matematik belgilar tiliga o'tkazish imkoniyatini anglatishdan iboratdir. Bu holatda rasmga qarab masalalar tuzish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga sodda, bir amalli masalalarni o'qib berilganda undagi belgilarni daftar-ga yozishni o'rgatish orqali matematik tafakkur va nutq shakllantiriladi. Yig'indini va ayirmani topishga doir masalalarga namuna sifatida o'qituvchining o'zi sodda masala tuzib beradi.

Masalan: $\square + \square = \square$ yoki $\square - \square = \square$

Bu shakllar ichiga o'quvchilar masaladagi tegishli raqamlarni (sonlarni) qo'yadilar (yozadilar).

Masalan, hovlida ikkita o'rdakcha donlar edi. Ularga bitta o'rdakcha kelib qo'shil-gandan so'ng, hammasi nechta bo'ldi?

Bu masala yig'indini topishga doir masala bo'lib, $\square + \square = \square$ sxemaga tushadi.

$\square - \square = \square$ Unda ayirmani topishga oid masala tuziladi.

Xuddi shu kabi masala tuzish o'quvchilarga mustaqil tarzda topshiriq qilib beriladi.

Masala tuzish topshirig'ini tizimli tarzda umumsinf, guruh hamda yakka tarzda o'tka-zish va bunda o'quv ishi tashkiliy shakllarining uyg'unlashuvidan foydalanish o'quvchilar tomonidan mustaqil masala tuza olish ko'nikmasini tarkib toptirishda, o'quvchi ijodiy fa-oliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Sodda va murakkab masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirish-ning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga "yashirin ma'lumotlarni" oladi. Bu ma'lumot-ni qidirish, masala yechuvchidan tahlil va sintezga mustaqil murojaat qilish, dalillarni taqqoslash, umumlashtirish va h.k.larni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish ma-tematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Sodda masalalarni tuzishda ko'rgazmalikni ta'minlash maqsadida multfilmdan foy-dalanish ham maqsadga muvofiq. Masalan: "Ikki do'st", "Tanga topdi", "Susanbul" va h.k. Multfilmlardan foydalanishda masalaning mohiyati, berilish shakllari, savollari va uning yechimini topishda o'quvchilarni tasavvur qila olishlari aniq va ravshan bo'ladi. Ular orqali matematikaning hayotdagi o'rni va olingan bilimlarni kundalik turmushda ish-lata olishlari uchun muhim bir qadam hisoblanadi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog'i lozim.

1. *Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish.* Masala ustida ish-lash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga, shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi ma-sala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur.

Masala matni o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir-ikki marta o'qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o'qishda yoki uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o'rgata borish kerak.

2. *Masalani dastlabki tahlil qilish (ma'lumni noma'lumdan ajrata olish malakasi).* Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ajrata olish eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi.

3. *Masalani qisqa yozish malakasi.* Masala matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasini belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlili ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini tushuntirish imkonini yaratadi.

4. *Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi.* Dastlab sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga toxtalib o'tiladi. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivojlantiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlashishini bajarish asosi o'zgartiriladi.

5. *Yechimni bajarish*, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaniladi. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebrik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagi so'z boradi, masalani algebrik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

6. *Masala yechimini tekshira olish malakasi.* Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo'llaniladi:

- a) olingan javob bilan masala sharti o'rtasida moslik o'rnatish;
- b) teskari masala tuzish va yechish;
- d) masalani boshqa usullar bilan yechish;
- e) javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash).

7. *Masalalar ustida ishlashda ma'lum tizimni belgilash va uni joriy qilish malakasi.*

Masalalar ustida ishlash rejasi:

1. Masalani o'qib chiqing, masalada nima haqida gap borayotganini o'zingiz tasavvur qiling.

2. Masalada nima ma'lum va nimani topish kerakligini aniqlab oling. Agar masala matnini tushunib olish qiyin bo'lsa, uni qisqa yozing (yoki masalaga oid chizma tayyorlang).

3. Qisqa yozuv bo'yicha har bir son nimani ko'rsatishini tushuntiring va masala savolini takrorlang.

4. O'ylab ko'ring, masala savoliga birdaniga javob berish mumkinmi, agar mumkin bo'lmasa, nega? Oldin nimani, keyin nimani bilish mumkin?

5. Masalani yechish rejasini tuzing.

6. Yechishni bajaring va javobini yozing.

7. O'z yechimingizning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

8. O'zingizga berilgan masala haqida qiziqarli savollar bering va ularga javob bering.

Ilg'or o'qituvchilar ishlarida o'quvchilarni mustaqil masalalar yechishga o'rgatishning bir qancha bosqichi ajratib ko'rsatilgan:

1-bosqich. Masala o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari bo'yicha yechiladi va bu yechish doskada va daftarlarda bir vaqtda bajariladi.

2-bosqich. Masala sharti o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va yechish rejasi tuziladi. Yechimning o'zi doskaga yozilmaydi, og'zaki aytilmaydi ham o'quvchilar uni mustaqil bajaradilar.

3-bosqich. O'qituvchi rahbarligida masala faqat tahlil qilinadi. Masalani yechish rejasi va uni yechishni o'quvchilar mustaqil bajaradilar.

4-bosqich. Masalani o'qituvchining hech bir yordamisiz mustaqil yechish.

O'quvchilarda masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy xarakterdagi mashqlar ham muhim ahamiyatga ega. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Masalalarni har xil usullar bilan yechish.
2. Berilgan masalaga teskari masala tuzish.
3. Masalalar tuzish va ularni almashtirishga doir topshiriqlar.
4. Sonli ifodaga qarab masala tuzish.
5. Tenglama tuzishga doir masalalar.
6. Berilgan tenglamaga qarab masala tuzish.
7. Miqdorlarga oid masalalar tuzish.
8. Yasashga oid masalalar tuzish.
9. Ulushga ko'ra butunni va butunning ulushlarini topishga oid masalalar tuzish.
10. Geometrik mazmundagi masalalar tuzish.
11. Muammoli xarakterdagi masalalarni yechish.
12. Mantiqiy masalalarni yechish.

Yuqoridagilarni nazarda tutib shuni ta'kidlash mumkinki, matematik masala ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir masala bolalar uchun haqiqiy bilim manbayi bo'lib qolsin. Buning uchun o'quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko'proq ma'lumotlarni olishga yo'naltirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1997.
2. *Ahmadjonov I.G'. va bosh. III sinfda masalalar yechish. O'qituvchilar uchun qo'llanma.* – T.: O'qituvchi, 184-b.
3. *Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish.* – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.
4. *Qosimov F. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi. Dis.,ped.f.n.* – T., 2006. 202-b.

Cho'Iponey YUNUSOVA,
Jizzax viloyati XTXQTMOI o'qituvchisi

TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogning bilimiga oid o'quv maqsadga erishilganlik darajasini nazorat qilish va foydalaniladigan nostandart test topshiriqlarni keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, texnologiya, modul, standart, nostandart, rivojlanish, taksonomiya, o'quvchi, pedagog, ta'lim.

В статье освещена технология определения профессиональной компетенции учителя в повышении качества образования. Также автор предлагает контрольные нестандартные задания, которые дают возможность определить профессиональные компетенции учителя, контролировать его уровень достижения цели и использовать нестандартные тестовые задания.

Ключевые слова. Компетентность, технология, модуль, стандарт, нестандарт, развивать, таксономия.

In the article the technology of definition of professional competence of the teacher in improving the quality of education. The author also offers non-standard control tasks, which make it possible to determine the Occupational teacher competence, control the level of achievement and use non-standard test problems.

Key words. Competency, technology, modul, standart, non-standart, development, tacsanomy.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, shu jumladan, ta'lim muassasalari xodimlarini malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Darhaqiqat, doimo yangilikka intilib yashaydigan, o'z kasbiy salohiyatini oshirish uchun intiladigan, zamon bilan hamnafas bo'lib yashaydigan, jahon ilg'or tajribalaridan keng foydalaniladigan, millat, xalq, o'z jamoasi manfaatlarini har tomonlama muhofaza eta oladigan kadrlar, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini ta'minlash shu kunning dolzarb masalasidir. Shu jihatdan malaka oshirish tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish o'ziga xos imkoniyatlarini yaratilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan "ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimlarning kasbiy nufuzini oshirish"ga yo'naltirilgan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Oliy ta'lim muassasalari malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari rahbar va pedagogik kadrlarining yuksak kasbiy qobiliyatlari ko'p jihatdan ta'lim muassasalarida shakllantirilgan ilmiy-pedagogik salohiyat, uning ta'lim ehtiyojlarini to'laroq qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan “butun ta'lim tizimimizni tubdan qayta ko'rib chiqish, professional bilimlarni egallash uchun imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo'nalganlikni kuchaytirish” zarurati yuzaga keldi.

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar mazmuni asoslandi va ularning har biri ga tavsif berildi. Pedagog kadrlarga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma Davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalarni maqsad qilib oladi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlagan va puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik bilimlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash bilan bog'liq ijtimoiy buyurtmalar belgilab berilgan.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar evolyutsion tarzda ta'lim tizimining yangi mazmun kasb etishini ta'minlaydi, ilg'or g'oyalarni o'zida namoyon etuvchi ta'limiy qadriyatlar shakllandi. Umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy, kasbiy ahamiyatli qadriyatlar pedagog shaxsini tarbiyalashga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti va obykti sifatida tan olinishini ta'minlashi, unda ijodiy fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Malaka oshirish jarayonida “Pedagogikaning dolzarb masalalari” modulini o'qitishda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari mavzusini yoritish orqali o'qituvchining barcha ijobiy qirralarini ochib berish va ish tajribasini amaliyotga tatbiq etish, ya'ni uning kasbiy kompetentligi rivojlanishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislar kasbiy shakllanish jarayonining subyekti sifatida ishtirok etishining pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmi, metod va texnologiyalari belgilab berilgan. Chunonchi:

- pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini yoritish;

- pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'qitishning innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalaridan foydalanish yo'llarini ochib berish;

- “pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”ni o'qitishda texnologiyalardan foydalanishni malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi misolida bayon qilish;

- pedagoglarning kompetentlik faoliyatini faollashtirish yo'llari;

- “pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari” moduli bo'yicha tinglovchilarning bilimini nazorat qilish va baholash yuzasidan tavsiyalar berib borish lozim.

Malaka oshirish institutlarida o'qitish jarayonida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini o'rganishda tinglovchiga quyidagi ijobiy hal qilish imkoniyatini yaratadi:

- tinglovchilarda “Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari” moduli asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish ortadi;
- pedagoglarning kasbiy kompetentligiga doir nazariy bilimlari boyiydi va mustahkamlanadi;
- tinglovchilarda kompetentlikni rivojlantirish borasidagi ko'nikma va malakalar shakllanadi.

“Kompetentlik” yondashuvga asoslangan ta'lim tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining roli ham o'zgaradi. Chunki “bilimli” yondashuvda ta'lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, ta'lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi.

“Kompetentli” yondashuvda ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi.

O'quv maqsadlar taksonomiyasi Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z ishida bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Professor-o'qituvchilar o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, Blum taksonomiyasiga asosan o'quv maqsadlarini mashg'ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi.

Tinglovchilarning bilish o'quv maqsadiga erishganligini nazorat qilishda ular muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun tinglovchi mavzu bo'yicha obyektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashi, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Ushbu fikrlarni standart o'quv va test topshirig'i bilan amalga oshirib bo'lmaydi, bilish o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda rasmlil va ko'p javobli no-standard testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Test topshiriqlari tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan nafaqat bilimlarini, balki obyekt va uning qismlarini tanish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ko'nikmalarini nazorat qilish hamda baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish prinsiplari ichida nazariya va amaliyot birligi muhim o'rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o'quv maqsadlaridan tinglovchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniyatini yaratish zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quv topshiriqlarini tuzishda tinglovchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatda qo'llashini nazarda tutishi lozim. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida tinglovchilar o'quv materialini qayta ishlashi, moslashtirishi, loyihalashi, modellashirishi, qayta aytib berishi talab etiladi.

Tinglovchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash o'quv maqsadiga erishish darajasini standart o'quv va test topshiriqlari vositasida aniqlash

ko'zlangan natijani bermaydi. Shu sababli, ko'p javobli, jadvalli nostandart test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mashhur faylasuf Arastu tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi deydi, bular:

- ilmga;
- iste'dodga;
- tarbiyaga.

Tinglovchilarning umummadaniy kompetentlilik maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari o'quv maqsadlari ichida xulosa yasash yakunlovchi va tizim hosil qilish vazifasini bajaradi. O'quv maqsadining asosiy mohiyati talabalar tomonidan o'rganilgan kurs yoki mavzu yuzasidan xulosa yasash sanaladi. Bu jarayonda tinglovchilar tomonidan ta'lim mazmunidagi ma'lumotlarga baho berishi, tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini qo'llab, fikrga qarshi fikr bildirishi, qo'llab-quvvatlashi yoki inkor etishi talab etiladi.

Mazkur jarayonda nostandart ko'p javobli test topshiriqlaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo'q” so'zlarini yozing.

- a) nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismlaridan biri sanaladi;
- b) talabalarning tadqiq etish faoliyatini, ular matnni mustaqil o'qish topshirig'ini olishganida yo'naltirishga yordam beradi;
- d) qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan;
- e) nazoratning muntazamligi va izchilligi o'quvchilarni faol aqliy mehnat qilishga undaydi, ularda mas'uliyat, burch, diqqat, xotira, o'z-o'zini nazorat qilish va bahslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi;
- f) nazoratning to'liqliligi, haqqoniyligi, keng ko'lamlilik, muntazamliligi barcha metodlar kabi bu metodlarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va o'quvchilarga tafovutlab yondashish kabi funksiyalarini amalga oshirish imkonini beradi;
- g) bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradigan, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Javob:

A	B	D	E	F	G
ha	yo'q	yo'q	ha	ha	yo'q

Ta'lim-tarbiya jarayonida Blum taksonomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'qituvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyligi, keng qamrovliligini ta'minlaydi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat kasbiy mahoratidagi kompetensiyasini aniqlash texnologiyalarini tashkil etish bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda ishlash talab etiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan pedagog uchun asosiy deb belgilangan talablar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini belgilab beradi. Jamiyat talablarini qondirish hozirgi

zamon pedagogidan yuqori madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z ijodiy potensialini rivojlantirishga, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. O'qituvchining kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondashuv deyiladi.

Zamonaviy talablar asosida, ya'ni davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan raqobatbardosh yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashda o'qituvchilarga kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida, balki boshqa pedagogik tadbirlarda va o'zaro munosabatlarda ham o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish va unga o'qituvchilarni motivlashtirish zarurligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008. 176-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278-sonli Qarori.
4. Inatov X., Yunusova Ch. *Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishda fan o'qituvchisining kasbiy mahorati.* Qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2016. 76-b.
5. Asadov Y.M. *Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv.* –T.: "Maktab va hayot" jurnali. №1 (101), 2014.

Shohista MAMASOLIYEVA,
Samarqand Davlat universiteti o'qituvchisi

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda loyihalash metodidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari batafsil yoritilgan hamda loyihalash metodini amalda qo'llash bosqichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Mustaqil ta'lim, individual yondashuv, differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faollik, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik, tadqiqot, taqdimot.

В статье подробно освещены педагогические возможности применения метода проектирования при организации самостоятельных работ студентов. Приведены этапы внедрения метода проектирования.

Ключевые слова. Самостоятельное обучение, индивидуальный подход, дифференцированный подход, личностно-ориентированное обучение, активность, инициативность, исследование, презентация.

This article presents the pedagogical opportunities of the method of projecting in organizing individual works of students. It was also given the stages of using the method of projecting.

Key words. Self education, individual approach, differential approach, personal oriented education, activity, initiative, searching, research, presentation.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Fan-texnika taraqqiyotining intensiv rivojlanishi natijasida talabalar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni ularga o'rgatishda dars berishning an'anaviy uslublarini tubdan takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biri – ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini, tashabbuskorligini, izlanuvchanligini oshirish evaziga o'zlashtirish samaradorligini ta'minlashdir.

Chunki o'qitishning hozirgi uslublarida talabalarning o'qituvchidan olgan axborot miqdori bilan o'qituvchining uzluksiz nazorati mobaynida talabadan olgan axborot miqdori o'rtasida katta tafovut mavjud. Ta'lim berishning bunday uslubida talabalarning ijodiy faolligi darajasini yuksaltirib bo'lmaydi. Talabalarning ta'lim olish jarayonidagi faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri – fanlar bo'yicha mustaqil ta'lim ishlarini to'g'ri tashkil qilishdan iborat. Chunki mustaqil ta'lim asosiy o'quv jarayonidan tashqarida olingan bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish, kengaytirish va takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda differensiallashtirish tamoyillari asosida tashkil etilishini ta'minlash – talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy vazifalaridan biridir. Ta'lim oluvchilarning mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, ijodiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchilarni kuzatish, yordam ko'rsatish va ular bilan muloqotni individuallashtirish hamda differensiallashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish mustaqil ta'limning didaktik vazifalardan biri ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda loyihalash metodidan foydalanish – yuqorida tilga olingan masalani hal etishning yechimlaridan biridir. Loyihalash metodi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri sanaladi. Vaholanki, rus olimlari (P.F. Kapterev, P.P. Blonskiy, S.T. Shatskiy, A.S. Makarenko va b.) loyihalash metodini, avvalo, shaxsni shakllantirishda, ularni hayotga, mehnatga tayyorlashda muhim o'rin tutishini ta'kidlashgan. Xorijda esa, u o'quv mashg'ulotlarini real hayot sharoitida ko'rib chiqishni taqozo etadigan ta'lim maqsadlari pozitsiyasi sifatida talqin etilgan (U.X. Kilpatrick).

Loyihalash metodi muayyan vaqt mobaynida o'quvchilarning individual, birgalikdagi va guruhlariga bo'linib ish olib boradigan mustaqil faoliyatiga asoslanadi. Loyihalash metodi biror bir muammo yechimini shunday nazarda tutadiki, unda bir tomondan, turli xil usullar va ta'lim vositalarini qo'llashni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, fan, texnika, texnologiya va ijod sohasidagi bilimlar va malakalarni umumlashtirishni nazarda tutadi.

Amalga oshiriladigan loyihalarning natijasi shunday “sezilarli” bo'lishi kerakki, bunda agar u nazariy muammo bo'ladigan bo'lsa, o'zining aniq yechimini topishi; agar u amaliy muammo bo'lsa, tatbiq etilishga tayyor aniq natijaga ega bo'lishi lozim. Bunda talabalarga ular egallagan bilimlariga bo'lgan shaxsiy qiziqishlarini ko'rsatish va bu kelajakda asqotishi mumkinligini ta'kidlash o'ta muhimdir.

Bunda egallangan va egallanishi lozim bo'lgan yangi bilimlarni amalda qo'llash uchun talabaga ma'lum va ahamiyatli bo'lgan, real hayotdan olinadigan muammolar bilan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi talabalarning mustaqil tadqiqot olib borishlari uchun axborotlarning yangi manbayini berishi yoki shunchaki ularning tafakkurini kerakli yo'nalishga yo'llashi ham mumkin. Lekin natijada talabalar mustaqil va hamkorlikdagi tirishqoqlik bilan turli sohaga oid bilimlarni qo'llagan holda muammoni hal etishlari, haqqoniy va sezilarli darajadagi natijani qo'lga kiritishlari kerak. Shu tariqa barcha muammolar loyihali faoliyatning chizgilariga aylanadi.

Loyihalash metodini amalda qo'llashda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi – loyihaning maqsadi va mavzusini aniqlash.

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
O'qituvchi bilan birgalikda mavzuni muhokama qiladi va qo'shimcha axborotga ega bo'ladi. Maqsadlarni belgilaydi.	Talabalarni loyihaning mohiyati bilan tanishtiradi va ularga turtki beradi. Maqsadlarni belgilashda ko'maklashadi.

2. Rejalashtirish bosqichi – axborotlar manbayini aniqlash; axborotlarni to'plash va tahlil qilish usullarini aniqlash; natijalarni taqdim qilish usulini (hisobot shaklini) aniqlash; loyihani yaratish jarayoni hamda natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish; jamoa a'zolari o'rtasida topshiriq va majburiyatlarni taqsimlash.

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Faoliyat rejasini ishlab chiqadi. Topshiriqlarni shakllantiradi.	G'oyalarni tavsiya qiladi. Taxminlarni ilgari suradi.

3. Tadqiqot bosqichi – axborotlarni to'plash; joriy topshiriqlarni bajarish (asosiy qurollar: intervyu, so'rovlar, kuzatuvlar, tajribalar).

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Joriy topshiriqlarni bajarish orqali tadqiqot olib borishadi.	Kuzatadi, maslahat beradi. Faoliyatni bevosita boshqaradi.

4. Tahlil qilish va umimlashtirish bosqichi – axborotlar tahlili; natijalar tahlili; xulosalarni shakllantirish.

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Axborotlarni tahlil qiladi. Natijalarni umimlashtiradi.	Kuzatadi, maslahat beradi.

5. Loyiha taqdimoti bosqichi – natijalarni taqdim qilish shakli quyidagicha: og'zaki yoki yozma hisobot; videoprojektor orqali taqdim qilish.

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Hisobot beradi, muhokama qiladi.	Eshitadi, savollar beradi (ishtirokchi sifatida).

6. Jarayon va natijalarni baholash bosqichi.

Talaba faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Jamoaviy muhokama va o'z-o'zini baholash.	Talabalarning imkoniyatlarini, samarali foydalanilgan manbalarni baholaydi. Hisobot sifati bo'yicha xulosa beradi.

Loyihalash metodi oddiy jamoaviy tayyorlangan tadbirdan yoki natijalarni ko'rgazmali taqdim etish kabi muayyan ishdan shunisi bilan farq qiladiki, bunda loyiha ustida ishlashning asosiy natijasi – faoliyat tahlili va loyiha muammosini yechish usullarining namoyon qilinishi bilan namoyish etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurolov H.R. *Bo'lajak pedagoglar uchun mustaqil ta'lim darsini tashkil qilish uslubi*. – T.: "Uzluksiz ta'lim" jurnali. 2003. №2. 76-b.
2. Muranov B.I. *Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limini va faoliyatini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Uslubiy tavsiyanoma, SamDU, 2016. 5-b.*
3. Матяш Н.В. *Проектный метод обучения в системе технологического образования. Педагогика: Науч-метод. журн. №4. 2000. – С. 38.*

Abdujamil KARIMOV,

Turin politexnika universiteti huzuridagi
akademik litsey direktori

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH – TA'LIM SIFATINI BELGILOVCHI ASOSIY OMIL

Annotatsiya

Maqolada o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Muallif raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion va tashkiliy-pedagogik shakllarini nazariy asoslash, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tajribada tekshirish bo'yicha zarur bo'lgan bir qator vazifalarni ham tadqiqot objekti sifatida ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi, raqobatbardosh kadr, zamonaviy mutaxassis, innovatsion jarayon, ta'lim oluvchi, nazariy-metodologik yondashuv.

В статье основное внимание уделено подготовке конкурентоспособных кадров в системе среднего-специального, профессионального образования. Автор в качестве приоритетных задач исследования называет теоретическое обоснования инновационных и организационно-педагогических форм подготовки конкурентоспособных кадров, определение педагогических условий их практического применения и ряд других задач, необходимых при экспериментальной апробации.

Ключевые слова. Среднее специальное образование, профессиональное образование, конкурентоспособные кадры, современный специалист, инновационный процесс, теоретико-методологический подход.

In article the main attention is paid to preparation of a competitive personnel in system of specialized secondary and professional education. The author as objects of a research specifies on theoretical reasons for innovative and organizational and pedagogical forms of preparation of a competitive personnel, determination of pedagogical conditions of their practical application and a number of tasks necessary in case of experimental approbation.

Key words. Secondary special, professional education, competitive personnel, modern specialist, innovative process, methodological approach.

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylangan. Bugun mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari mamlakatimizda fan, texnika, texnologiyalar hamda iqtisodiyotning rivoj-

lanayotganligini hisobga olgan holda mutanosiblik tarzida kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi. Ertangi kun poydevori bo'lgan yosh avlodni har tomonlama raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlash uchun o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur. Zero, raqobatbardosh mutaxassislar istiqbolli masalalarni hal qilish qobiliyatiga, mustaqil fikr yuritish madaniyati hamda ilmiy texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy axborot bobida mustaqil yo'nalish olish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: “Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodning qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak”.

Shu sababli ham, avvalambor, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy qadriyatlar, fazilatlar, madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Zamonaviy mutaxassislar nafaqat tabiiy-ilmiy bilimga va kasb-hunar bilimiga, balki o'zining ma'naviy dunyosini kengaytirish uchun gumanitar bilimga ham ega bo'lishi lozim. Chunki axloqiylikdan mahrum bo'lgan, ma'naviy dunyoqarashi tor mutaxassislar har bir qabul qilinayotgan qarorning tub mohiyatini anglamagan holda o'ziga ham, jamiyatga ham zarar yetkazib qo'yishini o'ylamaydi.

Uzluksiz ta'lim turlaridan bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlariga muvofiq, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotda joriy etish, yuksak ma'naviyatli, ijodiy fikr yurita oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, jamiyat, davlat va oilada javobgarlikni his etadigan barkamol shaxsni tarbiyalash, ular qalbiga va ongiga milliy istiqloq g'oyalarini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xalqimizda “Hunar – oqar buloq, bilim – yonar chiroq”, degan purhikmat maqol bor. Zero, qo'lida hunari bor insonning xonadonida qut-baraka bo'ladi. Bilim yuksak manzillarga, baland marralarga eltuvchi yo'llarni belgilab beradi. Qo'lida kasb-hunari, yuksak bilimi bor inson hayot yo'llarida qoqilmaydi, o'z orzu-maqсадlariga yetadi.

Bugun mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmayapti desak adashmaymiz.

Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchisi mehnat bozorida o'z o'rnini topsa, raqobatbardosh bo'lsagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Tahlillar hozirgi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislar tezkor rivojlanayotgan jarayonlarning talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorligi ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa, mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo'lib, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va eng asosiysi – kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim jarayonida yoshlarga taqdim etilayotgan bunday imkoniyatlar ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodning o'z salohiyatini to'la namoyon etishi, o'zi tanlagan kasb bo'yicha o'qishi, ishlashi, hayotda o'z o'rnini topib olishi va jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan mutaxassislar bo'lib yetishishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ta'lim sohasiga bozor iqtisodiyoti munosabatlarini joriy etish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tasvirlovchi "raqobatbardoshlik", "raqobatbardosh mutaxassis", "raqobatbardosh kadr", "ta'lim xizmati", "ta'lim xizmati bozori", "iste'molchi", "mijoz" va h.k. tushunchalar paydo bo'ldi. Ayni paytda, yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda ta'limda tashkiliy, iqtisodiy, pedagogik, uslubiy va texnologik qayta jihozlashga yangi yondashuvlar talab qilinadi. Uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatini tubdan yangi shakllarda barpo qilish uchun mamlakatdagi ta'lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga asoslangan ta'lim rivojlanishining strategiyasini loyihalashtirishga, ta'lim xizmati bozorining dinamikasiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Ushbu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri – ilmiy va innovatsion yondashuvga asoslanishdan iborat.

Texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlarni o'rganish va tahlil etish asosida ta'lim tizimini modernizatsiyalash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari, o'quv-uslubiy jarayonga innovatsiyalarni joriy etish, pedagoglarni zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish, ta'lim sifatini ta'minlashga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bilan bog'liq masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Albatta, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosiy mexanizmi o'qitish va ta'lim xizmatlari sifatiga bog'liq. Iste'molchiga (ta'lim oluvchiga) ko'rsatilgan sifatli ta'lim xizmatigina uning ijobiy o'rnini shakllantiradi. Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish jarayonida zarur ahamiyatga ega eng muhim omil faqat texnik g'oyalarni ishlab chiqarish emas, balki ichki va tashqi bozorlarga xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, uni amalga oshirish uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni ta'lim muassasalarida sifatli tayyorlashga bog'liq.

Bugungi kunda yangi ta'lim paradigmasiga mos kelish uchun o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim oluvchilarni maqsadli ravishda ijodiy shaxs sifatida shakllantirishni ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta'minlash, balki unda tanlagan kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam berish lozim.

Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayoni uchta asosiy maqsadlarni hal qilishi kerak. Bular:

- davlat manfaatlariga mos holda o'quvchini bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlash;

- o'quvchini jamiyat a'zosi sifatida shakllantirib, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini, me'yorlarni anglagan hamda jamiyat manfaatlari bilan hamohang faoliyat ko'rsatuvchi kadrni tayyorlash;

- o'quvchini faol, tashabbuskor, mantiqan fikrlovchi individ sifatida rivojlantirish.

O'quvchilarni mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydigan quyidagi xususiyatlarga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Bular:

- o'z intellektual imkoniyatlarini yuqori darajada amalga oshira olish, ijodiy potentsialini imkoni boricha tashabbus va tadbirkorlikka yo'naltirish;
- ilmiy-texnik bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish;
- murakkab masalalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qila olish;
- raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyati darajasida raqabotbardosh etib tayyorlash.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik mutaxassislar tayyorlash tizimida keskinlashgan ziddiyatning mavjudligini ta'kidlashga imkon beradi.

Ushbu ziddiyatning jiddiyligi, shubhasiz, unda ta'limga, shaxsga va pedagogik kadrlar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga yetarli darajada javob bermaydigan kichik mutaxassislar tayyorlash tizimining holati o'rtasidagi tashqi nomunofiqlik aks etadi.

Ziddiyatlarni tan olish va ilmiy tahlil qilish ularni bartaraf etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, izlanishlarning mazmuni va yo'nalishlarini hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-didaktik tizimini ilmiy tamoyillar asosida qayta ishlab chiqishning aniq choralari aniqlaydi.

Aniqlangan ziddiyatlar bizga tadqiqot muammosini raqabotbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini nazariy-metodologik asoslash, amaliy ishlab chiqish, tajribadan o'tkazish va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi amaliyotiga tatbiq qilishdan iborat qilib belgilash imkonini berdi.

Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta'limga bo'lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirish, kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mohiyati uzluksiz ta'limning tabiatini – ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta'lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz ta'limi jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko'rinadi.

Uzluksiz ta'limning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobiy baho berib, hozirda shakllangan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida kadrlar tayyorlash zamonaviy talablarga javob bermayotganligini tan olmay bo'lmaydi.

Ilmiy ishimizning maqsadi raqabotbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion va tashkiliy-pedagogik shakllarini nazariy asoslash, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tajribada tekshirishdan iborat. Biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda raqabotbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan nazariy-metodologik yondashuvlar majmuasini ajratib olish va asoslash;
- tadqiqot muammosi bo'yicha muhim tushunchalarni aniqlashtirish va shakllantirish;
- raqabotbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash;
- raqabotbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini ta'lim muassasasi amaliyotiga tatbiq qilish texnologiyasini (metod, usul va yo'llari) ishlab chiqish va tajribada sinab ko'rish;
- raqabotbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va mezonlarini tajribada sinab ko'rish.

O'ylaymizki, tadqiqotimiz davomida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga bo'lgan nazariy-metodologik yondashuvlar aniqlanadi va asoslanadi (raqobatbardosh kadr, raqobatbardosh mutaxassis, kompetentlik sifatlar bo'yicha ta'riflar, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash xususiyatlari, ta'lim jarayoniga raqobatbardosh kadr modelini joriy etish asoslari).

Raqobatbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modeli va uni amaliyotga joriy etish metodlari ishlab chiqiladi va sinovdan o'tkaziladi (o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi – raqobatbardosh kadr tushunchasi, raqobatbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini ta'lim muassasasi amaliyotiga tatbiq qilish texnologiyasining komponentlari mazmuni).

Raqobatbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va mezonlari ishlab chiqiladi hamda ularni qo'llash tajriba-sinovdan o'tkaziladi (raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi – raqobatbardosh kadr modeli, uni amaliyotga joriy etish texnologiyasi va shart-sharoitlari).

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi – raqobatbardosh kadr modeli, tushunchalar, raqobatbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini ta'lim muassasasi amaliyotiga tatbiq qilish texnologiyasi (metod, usul va yo'llari), raqobatbardosh kadr – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisi modelini innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va mezonlari o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatiga tatbiq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni.* – Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.* Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. *Иноятлов У. И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятлов; – Т., 2003. – С. 236.*
4. *Иноятлов У.И. Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // Kasb-hunar ta'limi jurnali. 2001. №6. 28-31-b.*
5. *Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish.* – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.
6. *Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti.* – T.: Voris-Nashriyot, 2012. 167-b.
7. *Махмудов С. Ю. Организационно-педагогические условия подготовки конкурентоспособных специалистов в профессиональных колледжах: дисс. канд.пед. наук : 13.00.08 / С. Ю. Махмудов; – Т., 2002. – С. 201.*
8. *Sharipov Sh. Ta'lim jarayonlari sifatini oshirish tayyorlanayotgan kadrlar bandligini ta'minlash omili sifatida.* – /<http://dr-sharipov.com>, 2014.

Hayot QODIROV,
Nizomiy nomidagi TDPU
o'quv-metodik boshqarma boshlig'i

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARI

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarni faol va samarali tatbiq etish yangi, zamonaviy ta'lim tizimini yaratishga xizmat qilishi davlat ahamiyatiga molik dolzarb vazifa ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, muallif ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishning bosqichma-bosqich, uzviy va uzluksiz pedagogik omillarni ochib bergan.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya, texnologiya, ko'nikma, jarayon, takomillashtirish, mutaxassis, vosita, ehtiyoj.

В статье автор обосновывает активное и эффективное внедрение информационно-коммуникационных технологий, служащих созданию современной образовательной системы, как актуальную задачу государственной важности. Также раскрывает такие факторы внедрения информационно-коммуникационных технологий в образование, как поэтапность, преемственность и непрерывность.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационный, технология, умение, процесс, совершенствование, специалист, средство, потребность.

In this article the author substantiates active and effective implementation of information and communication technologies that serve as the creation of a modern education system, as the urgent task of national importance. The author also reveals the factors of information and communication technologies in education, both in-phasing and continuity.

Key words. Information and communication technology, Numerius, process improvement specialist, means need.

Axborotlashgan jamiyatni yaratish va rivojlantirishda bir qator omillar bilan aniqlanadigan ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashni taqozo etadi.

Birinchidan, ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish bilimlarni va insoniyat tomonidan to'plangan texnologik va ijtimoiy tajribalarni nafaqat avloddan avlodga balki, bir kishidan boshqa bir kishiga uzatish jarayonini keskin tartibda tezlashtiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'qitish va ta'lim sifatini oshirib, insonning atrof-olamga va ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarga tez moslashishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta'limga faol va samarali jalb etish axborotlashgan zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi ta'lim tizimini yaratishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyatning barcha sohalariga ommaviy ravishda tatbiq etish, yangi kommunikatsiya va yuqori darajada avtomatlashtirilgan axborot muhitini shakllantirish nafaqat an'anaviy tizimni o'zgartirishning dastlabki, balki axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning o'zaro birinchi qadami bo'lib hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga, yangi tarbiyaviy ta'sirlarni yaratishga, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining kompyuter texnikasi bilan samarali o'zaro ta'sirlashuviga imkon beruvchi yangi avlod axborot ta'lim texnologiyalarini yaratishga olib keldi.

Respublikamizning axborotlashgan jamiyat qurish va ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'lidagi harakatini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

- asosan, ta'lim tizimini boshqarish, uni ma'muriy boshqarish va boshqarish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni saqlash uchun kompyuterlardan individual foydalanish bilan bog'liq boshlang'ich bosqich;

- kompyuterli tizimlar, Internet va axborot va telekommunikatsion texnologiyalarining konvergentsiyasi bilan bog'liq zamonaviy bosqich;

- yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasiga asoslangan kelajak bosqichi.

Ta'lim sohasidagi jahon tendensiyasi ta'lim oluvchida tizimli, obrazli va egiluvchan fikrlashni, ekologik, refleksiv va axborot madaniyatini, ijodiy faollik va yangilikni his etishni, tolerantlikni shakllantirishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa ta'lim jarayoniga yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish lozim. Chunki ulardan foydalanilgan vaqtda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish muammolari samarali hal etiladi, ta'lim oluvchi iste'dodi va qobiliyatiga mos holda bilimlarning turli sohalarida maksimal darajadagi natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy sharoitda kompyuterli o'qitishni shaxsga yo'naltirilgan o'qitish sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki har bir bosqichda o'qituvchining axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish faollashadi. Ta'lim oluvchida mavjud bo'lgan shaxsiy resurslar, motivlar, qiziqishlar, qobiliyat va ko'nikmalar safarbar qilinadi, shuningdek, kompyuteri qo'llashning talab etilgan eng yuqori darajasi shakllanadi va rivojlanadi.

Nafaqat insonni yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirish, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini foydalanuvchining ehtiyoji va imkoniyati, so'rovi va qobiliyatiga moslashishini ham ta'minlashi muhim. Bo'lajak mutaxassis kasbiy faoliyatda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga imkon beradigan bilimlar va ko'nikmalar tizimini egallashi lozim.

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan globallashtirish va axborotlashtirish, ichki hamda tashqi bozorda kuchayib borayotgan raqobat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchisini tayyorlashga munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Birinchi navbatda, yuksak kasbiy ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislarga mehnat bozorida talab oshmoqda. Ma'lumki, har qanday soha mutaxassisining kasbiy salohiyati uning kasbiy masalalarni hal qilishga tayyorligi, shu bilan bir vaqtda olgan bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanishi bilan belgilanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining rivojlanish jarayonlari yo'nalishlarini tushunish va baholash hamda ularning borishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini takomillashtirish uning

kasbiy tayyorgarligi konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ratsional foydalanishga tayyorligi ana shu qobiliyat asosini tashkil qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi kasb ta'lim yo'nalishlari o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim metodlarini, balki ta'limning tashkiliy shakllari va vositalarini takomillashtirish sohasida keng imkoniyatlar yo'lini ochib beradi.

Oliy ta'lim muassasalari kasb ta'lim yo'nalishlari o'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim texnologiyalari, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini takomillashtirish sohasida keng imkoniyatlar ochib berishi bilan birga ta'limning turli pog'onalarida tashkil etiladigan o'quv jarayonini rejalashtirish amaliyotini tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun ham o'quv jarayonini yaxshilash bilan bog'liq masalalar bo'yicha tadqiqotlarda ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash asosida kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi pedagogikada nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi, shu sababli uning mazmuni, ta'rifi va xajmiga yagona nuqtayi nazar mavjud emas, har bir muallif o'zining tadqiqoti uchun eng muhim deb hisoblagan tomonlarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, axborot vositalari tarkibiy qismlari va ko'rsatkichlari ularning imkoniyatlari, maqsadli vazifalari va foydalanish metodikalarini tez o'zgarishi ushbu tushunchani yana qayta anglab yetish va qayta ishlashni talab etadi.

Kasbiy tayyorgarlik deganda kompyuterli ta'lim sharoitlarida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va bo'lajak mutaxassis shaxsini tarbiyalash jarayoni tushuniladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tizimlashtirilmagan, o'zaro bog'lanmagan bilim va ko'nikmalarni berishdan iborat bo'lishi kerak emas. Uni fanlararo yondashish asosida o'tkazish zarur. Buning uchun esa oliy ta'lim muassasasi kasbiy ta'lim yo'nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlar o'qituvchilari talabalarga o'quv fani mohiyatini ochib berar ekan o'z fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga maktabda, kasb-hunar kollejlari uni o'rganish metodikasi elementlari bilan va ishlab chiqarish sohasida ularni qo'llash doirasi bilan ham tanishtirishi kerak.

Bular esa, talabalarining ko'plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o'taydi, chunki har qanday yangi g'oyani taklif qilishda ilgari qaralayotgan sohani batafsil o'rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan yechim bilan bog'lashni o'rganish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa, albatta, oddiy inson xotirasida saqlab bo'lmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. Axborot texnologiyasi imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o'quv-axborot tizimlari, bilimlar va ma'lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ta'lim sharoitlarini aniqlashni, ularni tahlil qilishni, tayyorgarlik sifati o'lchamlari asosida bo'lajak o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi natijalarini baholash, mavjud ta'lim sharoitlaridan eng yaxshilarini tanlash, nazariy xulosalarni tajriba asosida tekshirish, o'rganilayotgan tizimning faoliyati o'zgargan holatlarda uni kelajakda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ichki tizim tashkil qiluvchi omil tizimning barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi kabi taqdim etilgan.

Tashqi tizim tashkil qiluvchi omil o'rganilayotgan tizim tabiatini bashorat qilish bloklari qaytar (teskari) aloqasi, natijalarni tajriba asosida tekshirish, ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash asosida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalari kasbiy ta'lim yo'nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash asosida kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning mavjud holatini tahlil qilib, ularni shakllantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlari sifatida D.Xenning konsepsiyasini asos qilib oldik. U o'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning quyidagi beshta mezonini ko'rsatgan.

1) o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ko'p sonli axborotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlashning zamonaviy tizimlari imkoniyatlari asosida axborot texnologiyalarining talabalar ehtiyojlariga moslashishga qodirligi;

2) ta'lim yaxlit pedagogik tizimini yaratish uchun axborot texnologiyasining ma'lumotlar bazalarini boshqarishga qodirligi;

3) o'quv jarayonini rejalashtirishga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish asosida o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatini belgilaydi. Shu bilan birga tegishli dasturiy vositalarni tanlash va moslashtirish zaruriyati bilan birga qaror qabul qilish uchun aniq vazifalar uchun avtomatlashtirishgan tizimlar va ularni qo'llash sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi;

4) o'quv muassasasi tuzilishini o'zgartirishni ifoda etadi. Telekommunikatsiya texnologiyalar oliy ta'lim muassasasi tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritadi, natijada individual reja asosida ishlaydigan talabalar soni ortadi;

5) axborot texnologiyalari o'quv dasturi konsepsiyasini umuman yangidan qurishga imkon beradi, chunki axborotlar yuqori sifat darajasida taqdim etiladi.

Multimedia texnologiyalari ayniqsa keng imkoniyatlar taqdim etadi, ular ko'plab ta'lim metodlarini amalga oshirish, yuqori sifat darajasida talabalarining idrok etish faoliyatlarini nazorat qilish va faollashtirishga imkon beradi.

Yangi axborot texnologiyalari kompyuterli ta'lim shakllarini – elektron darsliklar, elektron ta'lim trenajyori, multimedia-so'rovnomalalar va ensiklopediyalar, amaliy darslar, shuningdek, yangi axborot texnologiyalari ta'lim shakllarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Elektron darslikda ta'limning quyidagi shakllari modellashtirilishi mumkin:

– o'quv vazifalarini qo'yish, turli xil muloqotlardan foydalanish (monolog, guruh, bo'lajak faoliyati usullari to'g'risida yo'riqnomalar, tushuntirish va shu kabilar);

– bilimlarni ko'rgazmali namoyon etishni amalga oshirish bo'yicha harakatlar (ko'rgazmalilik, tushunarlilik, tizimlilik tamoyillarini amalga oshirish);

– o'quv vazifalarini hal qilish uchun qulay psixologik muhitni yaratish (materialni taqdim etishda psixologik qonuniyatlardan foydalanish).

Elektron darslik o'quv harakatlarini tashkil qilishni modellashtirish imkonini beradi. Kompyuter talabani nazariy bilimlarni o'rganishga, elektron ma'lumotnomada so'rovlar shakllantirishga, elektron masalalar bilan ishlashda topshiriqqa javob kiritishga yordam beradi. Laboratoriya mashg'uloti rejimida ko'pincha fan sohasida o'rganilayotgan obyektlar ustida o'quv harakatlarini namoyon qiluvchi biror bir model qaraladi, shu bilan birga talabalar qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'quv harakatlarini boshqarish, kuzatishlar natijalarini qayta ishlab chiqish va olingan bilimlaridan amaliyotda foydalanish imkoniyatini baholashga ega bo'ladilar. Ushbu ishda bo'lajak kasb ta'limi

o'qituvchilarida kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda elektron mashg'ulot imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

Elektron ta'lim trenajyori deganda, o'quv jarayonini didaktik kompyuterli ta'minlash vazifalarini bajaruvchi ko'p sonli elektron ta'lim resurslar sinfi tushuniladi. Bunday resurslarga alohida fayllar, masalan, o'quv topshiriqlari yechimlari fayllari, masalalar parametrlari generatsiyasi fayllari, o'quv topshiriqlar kartochokalari, interfaol testlar hamda giperilovalar va qo'yilgan o'quv masalalarini amalga oshiruvchi yagona didaktik resurslardan iborat obyektlar bog'liqligi yordamida birlashtirilgan faylli tizimlar kiradi.

Elektron ta'lim trenajyorining maqsadlari quyidagilar:

- nazariy bilimlarini mustahkamlash va zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- ishlab chiqarish masalalarini hal qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish;

- mustaqil bilim olishga o'rganish, o'zini o'qitish va nazorat qilish uslublari va usullarini egallash ko'nikmalarini shakllantirish.

Elektron ta'lim trenajyorini yaratishning asosiy tashkiliy-metodik tamoyillari sifatida N.A.Muslimov tomonidan masofali ta'lim o'quv-metodik to'plamlari uchun taklif etilgan quyidagi tamoyillarni asos qilib oldik:

- o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanni o'rganishning maqsadini ifoda etishi;

- o'quv materiallarining atamalar va shartli belgilarni aniq hamda to'g'ri ifodalash talablariga to'la javob bera olishi;

- elektron o'quv materialining talaba tomonidan avval o'rgangan muhitning yaratilishini ta'minlay olishi;

- gipermatnli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, elektron o'quv materialining talabalarning ilovalar bo'yicha harakatlanishlarida to'g'ri yo'lni topa olish hamda oddiy talablarga javob bera olishlariga imkon yaratishi;

- talaba faoliyatining mustaqil faoliyatga, o'qituvchi faoliyatining esa o'z-o'zini nazorat qilish faoliyatiga almashtirilishi;

- o'quv fanlari mazmunining to'laligi;

- talabalarning qo'shimcha o'quv ma'lumot manbalariga murojaat etishining bir qadar kamaytirilishi;

- o'quv fanlarining tuzilmasini yaratishda moduldan foydalanilishi;

- o'quv materiallari tarkibida nazorat topshiriqlari, glossariy, shaxsiy faoliyatni mustaqil nazorat qilish uchun taklif etilgan javobli testlar hamda mashq qilishga asoslangan pedagogika hamda ishlab chiqarishdagi muammoli – vaziyatli topshiriqlar kabi majburiy elementlarning mavjudligi.

Elektron ta'lim mashg'uloti o'quv jarayoni natijalarini bashoratlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik va metodik shartlarni aniqlashdagi butun harakatlar davomida esa u asosiy hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining “kasbiy ko'nikmasi” tushunchasining o'zi tashqi va ichki sharoitlarga qarab tizimning o'zini tutishini bashoratlashtirish bilan bog'liq. Tizimning kelajakda o'zini tutishi haqidagi axborot o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon faoliyati to'g'risidagi dastlabki axborotni qayta ishlash, tahlil qilish, tadqiqot predmetiga ko'chirish va sintez qilish natijasi hisoblanadi. Boshlang'ich yoki dastlabki axborot tizim faoliyati maqsadlari va sharoitlari, uni olish, saqlab qolish, o'zgartirish, qo'yilgan ustuvor vazifalarni hal qilish, o'quv jarayoni va uning natijalari normativ ko'rsatkichlari haqida bilimlarni namoyon etadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni bashoratlashtirishda talab etilishi va qayta ishlanganligi darajasiga qarab axborotlarni dastlabki, oraliq va yakuniy ax-

borotlarga ajratiladi. Boshlang'ich axborot – bu birlamchi, qayta ishlanmagan, “xom”. Oraliq axborot qayta ishlangan, lekin hali modeli tajribani boshqarishda foydalanish mumkin bo'lgan darajada emas. Yakuniy axborot modeli tajriba natijasi hisoblanadi, tartiblili, tizimlashtirilganligi va qo'llashga tayyorligi bilan ifodalanadi. Bashoratlashtiruvchi axborotning haqiqiy vaziyat bilan bog'liqligi o'tmishda tizimning faoliyati to'g'risidagi dastlabki axborot asosida amalga oshiriladi. Dastlabki axborotni mantiqiy ishlab chiqish uni yangi sharoitlarda tizimning taxmin qilinayotgan holatga ko'chirishga imkon beradi. Bashoratlashtiruvchi axborot taxminiy xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni kelajakda tizimning tendensiyalari va mumkin bo'lgan variantlari haqidagi bilimdan iborat.

Oliy ta'lim muassasasi kasbiy ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida ko'zda tutilgan umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida elektron ta'lim trenajyorini qo'llash quyidagi pedagogik va metodik maqsadlarga erishishda boshqa kompyuterli ta'lim vositalariga nisbatan samarali ekanligini ko'rsatdi: o'quv jarayoniga faoliyatli yondashuvni shakllantirish; o'quv jarayonining butunligini saqlagan holda uni individuallashtirish; talabning bilish faoliyatini rag'batlantirish; o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini to'g'rilash; o'quv jarayonining mashq qilinuvchi stadiyasini (bosqichini) nazorat qilish; teskari aloqa orqali, o'quv faoliyati natijalarini tashxislash va baholash orqali nazoratni amalga oshirish; o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan o'quv vaqtini tejash; o'quv jarayonining anglanganligini kuchaytirish; o'quv jarayoni axborot kanallarining o'tkazish qobiliyatini kuchaytirish (vizual va boshqa murakkab obrazlarni qurishga kompyuterlarning qobiliyatligi hisobiga); o'quv jarayoniga yangi bilish vositalarini (o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish va imitatsiyalash va boshqalar) kiritish; katta hajmli axborotni qayta ishlash va umimlashtirish bilan bog'liq ijodiy tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, mualliflarning ishlari tahliliga asoslanib axborotli yondashish nuqtayi nazaridan kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish – axborotlar to'laligi va sifatini ta'minlash, ya'ni tizimning barcha elementlari bo'yicha barcha kerakli axborotlarga ega bo'lishi kerak. Bunday axborot esa yechimlarning eng mos variantini tanlashga, ta'limda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga (bizning holatda elektron ta'lim trenajyori), ushbu jarayonni tezlashtirishga va kasbiy bilim va ko'nikmani shakllanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. *Kasb ta'limi o'qituvchisi kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: diss. p.f.d.: 2007. 315-b.*
2. Хен Д. *Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании // Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. – С. 43-49.*
3. Шолохович В.Ф. *Информационные технологии обучения: дидактические основы, проблемы разработки и использования. – М.: МГПУ, 2005. – С. 128.*

Elyor ALKAROV,

Toshkent shahar XTXQTMOI masofadan o'qitishni hududiy
muvofiqlashtirish markazi koordinatori

ZAMONAVIY TA'LIMDA AXBOROT- KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING YOSH AVLOD HAYOTIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jamiyat va yosh avlod hayotidagi o'rni hamda ahamiyati, ta'lim-tarbiyaning uzviyligida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, axborotning ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat ekanligi, Internetdan foydalanish borasidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim va tarbiya, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, kompyuter savodxonligi.

В статье проанализировано значение информационно-коммуникационных технологий в образовании, в жизни общества, а также освещен вопрос развития образования и воспитания с помощью информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. Образование и воспитание, информационно-коммуникационные технологии, современное образование, компьютерная грамотность.

The article analyses issues of ICT in education and society, also the issues of training with use of informational-communication technologies.

Key words. Education and training, informational-communication technologies, modern education, computer literacy.

Hozirgi kunda “ta’lim texnologiyalari” tushunchasi har bir maktab o’qituvchisining diqqat-e’tiboridagi mavzuga aylangan. Biroq bu muammoga munosabat bo’yicha turli vaziyat va yondashuvlar shu darajada keng tarqalganki, natijada bugungi kunda pedagoglar nimani xohlasa shuni, ya’ni aniq bir o’qituvchining maromiga yetgan muvaffaqiyatli ish tajribasidan tortib, to ta’lim usullari yaxshi ishlab chiqilgan darslarni ham texnologiya deb atamoqdalar. Hozirgi kunda o’qitishning sinf-dars shakli o’zining asosiy qoidalari bundan 400 yil avval ishlab chiqilgani va joriy etilganiga qaramasdan, hozirgacha butun dunyoda ta’limning eng ko’p uchraydigan shakli hisoblanadi.

Olimlar va amaliyotchilar o’quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ga urinish harakatlarida, ya’ni darsning natijalari kafolatlangan texnologik jarayonga aylantirishda nafaqat nimani o’qitish?, nega o’qitish?, qanday o’qitish? degan savollarga, balki qanday natija beradigan qilib o’qitish? degan savollarga ham javob qidirmoqdalar.

Bu kabi sa’y-harakatlarning barchasi o’sib kelayotgan yosh avlod kamolotiga qaratilgan. Chunki mamlakat ravnaqi ko’p jihatdan yoshlarning intellekti, bilimi, intilish-

lari va ishtiyoqiga bog'liq. Xususan, o'quvchi-yoshlarimizning qiziqishlari, xulq-atvori, ta'lim olishi va ijtimoiy tarmoqqa bo'lgan munosabatlari, dunyoqarashi, bo'sh vaqtlarini qanday va qayerda o'tkazayotganliklari, internetning salbiy va ijobiy tomonlari haqida ko'p gapirilmoqda. Bular yosh avlod tarbiyasida muhim omillar hisoblanadi.

Yosh avlod ta'limi va tarbiyasi haqida mashhur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy quyidagicha fikr bildiradi:

“Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob beradi.

Demak, har qanday ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi tegishli fandani o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni xotirada yaxshi eslab qolishini ta'minlash va o'quvchilarni ulardan hayotda to'g'ri foydalana olishga o'rgatishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri – ko'rgazmalilik tamoyilidan unumli foydalanishdir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etish ham eshitish, ham ko'rish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishga asos bo'ladi. Aynan shu ko'rgazmalilik axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali o'tilgan darsda mavjud.

O'quvchilarning aqliy taraqqiyotini maksimal darajada rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz merosini bugungi yosh avlodga etkazib berishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish, ya'ni Internet tizimida ta'lim va bilim beradigan veb-saytlar yaratilgan. Yagona ta'lim va bilim beradigan ta'lim tarmog'ini yaratish kabi masalalarning ko'tarilganligi ham davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Keyingi vaqtda Internet orqali tarqatilayotgan axborotlarning salbiy va ijobiy ta'siri haqida ota-onalar hamda keng jamoatchilikning fikrlari turli yig'inlarda, matbuotda bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida bu borada uch xil yo'nalishga barchamiz e'tibor berishimiz lozim.

*Birinchi*dan, kompyuter savodxonligi, boshqacha aytganda fundamental hamma bilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar. Ta'limning barcha bosqichlarida mazkur bilimlar yetarlicha o'qitilmoqda.

*Ikkinchi*dan, axborotning ijobiy tomoni hayotimizning har jabhasida, jumladan, ta'limda ham zarur ma'lumotlarni tez va oson olish mumkin.

*Uchinchi*dan, media savodxonlik. Birinchi yo'nalish bo'yicha o'quvchilar 5-sinf-danoq yetarli bilimga ega bo'lmoqdalar. Ammo ikkinchi va uchinchi yo'nalish bo'yicha muammolar ota-onalar, maktab va jamoatchilikning sa'y-harakatiga bog'liq. Kerak va nokerak axborotlarni yoshlarimiz ajrata olishlarini o'rgatish lozim.

Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi.

Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa, bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar

orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'alarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish biz o'qituvchi va ota-onalarning vazifasi sanaladi. O'z vaqtida qaratilgan e'tibor va tarbiya farzandlarimizni axborotning salbiy tomonidan saqlaydi.

Shunday ekan, o'qituvchi, pedagog-xodimlar, ota-onalar o'zlarining kompyuterda ishlash, axborot va media savodxonliklarini rivojlantirib, ularni farzandlar tarbiyasida to'g'ri joriy etishi o'quv jarayonida sifat va samaradorlikka erishishning eng maqbul yo'li sanaladi.

Ta'lim berishning bunday taraqqiyot bosqichi sifat jihatidan mutlaqo yangi texnologiyalarni samarali qo'llash zaruriyatini qo'ymoqda. Aynan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarishning omili sifatida ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozir maktablar multimedia mahsulotlari, kompyuter sinflari bilan etarlicha ta'minlangan. Demak, barcha loyihalarni amalga oshirishga zamin bor.

Xo'sh shunday ekan, bugungi kunda axborot texnologiyalarining taraqqiyoti va undan foydalanish shakllari qanday?

Zamonaviy texnologik jarayonlar axborot uzatish tizimiga ham tobora yangi o'zgarishlar olib kirmoqda. Xususan, Internet allaqachon jadallik bilan dunyo auditoriyasini egallab oldi. U o'zida barcha soha imkoniyatlarini mujassam etmoqda.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi-ki, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutlarning rivoji darajasi – baribir axborot texnologiyalari taraqqiyotiga bog'liq bo'lib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarimiz ko'proq xorijiy saytlarga kirishga qiziqadi? Demak, qachon-ki mahalliy saytlar, portallar kerakli axborotni yetkazib bera olmas ekan, u holda foydalanuvchi xorijiy Internet manbaalariga murojaat qilishi tabiiy hol. Xorijiy manbalardagi ma'lumotlarning barchasi ham birdek haqqoniy va xolis emas. Ongi shakllangan mustaqil shaxs bunday axborotlarni tahlil qilish, tanqidiy ko'z bilan nazardan o'tkazish va keraklisini tanlay bilish imkoniga ega. Aksariyat yoshlarda esa, bunday imkoniyat mavjud emas.

Biz Internetni batamom rad qilmoqchi emasmiz. Faqat undan me'yorida foydalanishni bilishimiz kerak. Aks holda tarmoq yoshlarning sog'lig'iga, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan bolalarning kompyuter qarshisida ko'p o'tirishi zararlidir. Ikkinchi tomondan esa, kerakli ma'lumot qidirib Internetga kirgan bola boshqa ma'lumotlarga chalg'ishi mumkin. Turli o'yinlar, musiqa va filmlar uning xayolini bo'ladi. Bular uning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarmoqdagi axloqiy buzuvchi kontentlar esa, bolaning ma'naviy taraqqiyoti uchun juda xatarlidir.

Internet hayotimizga tobora chuqurroq kirib borib, uni tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirib yuborayapti. Shu yerda bir muammo paydo bo'ladi: tun-u kun hamma murojaat qila oladigan va hatto yosh bolakaylar ham foydalana oladigan axborotlar manbaiga bog'liq bo'lib qolishda qanchalik darajada ijobiylik mavjud?

Albatta, Internetning asosiy yutug'i shundaki, u axborot tashuvchisi hisoblanadi. Axborot esa hozirgi globallashuv davrida neft, gaz, oltin va shu kabi qimmatbaho tabiiy boyliklardan yuqoriroq baholanadi. Axborotga ega bo'lgan odam hamma narsaga ega bo'ladi. Biroq borgan sari Internet o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani emas, aksincha, undan hech kim kutmagan narsalarni bajarmoqda. Unda joylashgan ma'lumotlar ham doimo foydali bo'lavermaydi.

Ta'limga oid portallar va saytlarga murojaat qilar ekanmiz, milliy ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ta'limiy va madaniy-ma'rifiy axborotlar foydalanuvchi ehtiyojlarini qondira oladigan darajada boy bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqchi edik. Qolaversa, aksariyat xorijiy saytlardagi axborotlar yoshlarni o'ziga tortayotganligi bejiz emas. Bizdagi olim va mutaxassislarimiz o'z ishlanmalarini sayt va portallarga taqdim etishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Afsuski, ko'plab ishlar tor doirada qolib ketmoqda. Bolalar milliy saytlarda ma'lumot topa olmasliklaridan ko'pincha nolishadi. Xorijiy axborot internet saytlaridan foydalanishning ko'payishi sabablaridan biri ham shunda deb o'ylaymiz.

Yoshlar turli ijtimoiy tarmoqlarda o'z guruhlarini tuzib, u yerda nima haqida suhbat qurayotganidan har bir ota-ona ham xabardor deb bo'lmaydi. Odnoklassniki, twitter, facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek yoshlarining soni jadallik bilan ko'paymoqda. Ularning turli yot g'oya va oqimlar ta'siriga tushib qolmasligiga kim kafolat beradi? Shu bois ota-onalardan o'z farzandlarining Internetda o'tkazgan vaqtini, shaxsiy sahifalarini nazorat qilib borishni yana bir bor so'ragan bo'lardik. Biz pedagoglarga esa, bu kundalik ish bo'lishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, barcha taraqqiyot mahsulotlari qatori, global axborot tarmog'idan ham faqat va faqat ma'rifiy yo'lda – umummilliy jipslikni mustahkamlash, avlodlar barkamolligini ta'minlash, yurtimiz nomini jahonga tarannum etish, umum-bashariy ma'naviyatga o'z hissamizni qo'shishda foydalanishimiz lozim. Zotan, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, *"...faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin"*¹.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 127-b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar., – T., 2008.
4. www.ziyounet.uz
5. www.kitob.uz

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 127-b.

Darmonjon MAHMUDOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchi

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHGA OID PEDAGOGIK FAOLIYAT ELEMENTLARI ORASIDAGI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Muallif o'quvchilarning o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini kengaytirish usullarini bayon etib o'tgan. Shuningdek, 8-, 9-sinf o'quvchilarini kasbga yo'llashga qaratilgan pedagogik faoliyatning mazmuni ular orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali ta'lim oluvchilar faoliyatlarini takomillashtirish imkoniyatlari hamda ularni kasb-hunar ta'limiga yo'naltirish maqsadida ijtimoiylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. To'g'ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik.

В статье освещены проблемы, имеющиеся в профессиональной ориентации учащихся, определены пути преодоления недостатков в этой сфере. Указаны возможности расширения самооценки учащихся. Раскрыто содержание педагогической деятельности по профориентации учащихся 8-9 классов с учетом обеспечения непрерывности и преемственности данного процесса, обозначены приемы социализации, учащихся в процессе профессиональной ориентации.

Ключевые слова. Правильный выбор профессии, социализация, самооценка, технологическое обучение, непрерывное образование, сотрудничество, межпредметная связь.

The article highlights the current problems in the vocational guidance students; identifies ways to overcome shortcomings in this area. Shown possibility of expanding the students' self-esteem. The content of educational activities for professional orientation of pupils of 8-9 classes with a view to ensuring continuity of the process, indicated by methods of socialization of students in the professional orientation.

Key words. The correct choice of profession, socialization, self-esteem, technological training, lifelong learning, collaboration, interdisciplinary communication.

O'quvchilar kasb tanlashda dastlab axloqiy-ixtiyoriy, keyin aqliy, eng so'ngida esa, tashkilotchilik sifatlariga tayanadilar. O'quvchilar ham, o'qituvchilar ham aksariyat hollarda o'z-o'zini baholashning kasb tanlashdagi ahamiyatini anglab yetmayaptilar. Ularning ko'pchiligi o'z imkoniyatlarini baholamasdan turib yuzaki tarzda kasb tanlayotganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Bu esa istiqbolda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning ma'na-

viy-madaniy yuksalishiga putur yetkazadi. O'quvchilarning o'zlari haqidagi tasavvurlari yuzaki, rejalari va o'y-xayollari taxminiy xarakterga egaligi kuzatilmoqda. Kasb tanlash muammosi biz kuzatishga muvaffaq bo'lgan o'quvchilarni jiddiy o'ylantirmayapti.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'zining mazmuniga ega.

8-, 9-sinf o'quvchilarida o'z-o'zini to'g'ri baholash quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- o'z-o'zini rivojlantirish va to'g'ri kasb tanlash;
- istiqbolda egallaydigan ijtimoiy faoliyatini aniq bashorat qilish.

Bitiruvchilar uchun kasb tanlash jiddiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadamdir. Biroq asosiy muammo shundaki, o'quvchilar kasblarning ilmiy asoslari, amaliy ahamiyatini yaxshi bilmaydilar. Ayniqsa, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy ahamiyati haqida o'quvchilarni xabardor qilish muhimdir. Ko'pgina o'quvchilar jamiyatning ijtimoiy talablari, undagi ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari haqida juda kam ma'lumotga egalar. Ularning jamiyat, unda shaxsning tutgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishi haqidagi bilim va tushunchalari kundalik muammolar doirasidadir. Bu shundan dalolat beradiki, o'quvchilarga shaxs va jamiyat, uning ijtimoiy faoliyati haqida tizimli tarzda bilim berish va tasavvur hosil qilish zarur. Bu esa, o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ko'pgina o'quvchilarning o'zlariga bergan baholari bir xil va bir-biriga yaqin bo'lib, kuzatishlarimiz davomida bunday o'quvchilarning o'ziga xos nuqtayi nafari haqida aniq tasavvur hosil qilish juda murakkab bo'ldi. Ba'zi bir o'quvchilar o'zlariga berilgan har qanday ijobiy bahoga loyiq emas ekanliklari ham aniqlandi. Ularning kasb tanlashga bo'lgan ehtiyojlari juda past darajada ekanligiga ham guvoh bo'ldik. Bunday loqaydlik asosida kasb tanlash jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy hayotlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini aksariyat o'quvchilar yetarlicha anglab yetmaganlar.

Kuzatishlar davomida o'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan o'z-o'zini baholashning ko'rinishlari quyidagilar:

– o'quvchilarning o'zlariga bergan baholari o'qituvchilar va ota-onalarining bahosi bilan teng kelishi; bu holat o'quvchilarning turli o'quv mashg'ulotlarda muvaffaqiyatga erishishlaridan dalolat beradi;

– o'quvchilarning o'zlariga bergan baholari bilan o'qituvchilar va atrofda gilarining ularga bergan bahosining mos kelmasligi; ko'pincha o'quvchilar o'quv predmetlaridan olgan bilimlari yordamida kasb tanlaydi, bunda ular o'zlarining mazkur kasbga yaroqli yoki yaroqli emasliklari masalasini e'tibordan chetda qoldiradi;

– o'quvchilar o'z qiziqishlari, shaxsiy ehtiyojlarini yetarli darajada baholay olmasliklari yoki juda yuqori baholashlari natijasida ota-onalar va o'qituvchilarning bergan baholari orasida nomutanosiblikning vujudga kelishi; bunday sharoitda ular tavakkalchilik asosida kasb tanlaydi.

O'z-o'zini baholash insondagi tabiiy holat emas, bu ko'nikma ta'lim-tarbiya va ijtimoiy munosabatlar jarayonida vujudga keladi. O'z-o'zini baholash shaxs taraqqiyoti mahsuli bo'lib, turli xarakterdagi obyektiv darajalarga ega. Unda ko'nikma to'liq, obyektiv va mutanosib tarzda shakllantirish o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonining muhim vazifalaridandir.

8-, 9-sinf o'quvchilarida muhim kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. O'quvchilarning ma'lum miqdordagi ijtimoiy-kasbiy bilim va tushunchalar bilan qurollantirish, shaxsni mehnat va ijtimoiy jarayonlarning subyekti

sifatida tushunishlariga ko'maklashish, o'zlarini anglashlari va o'z imkoniyatlarini amaliy tekshirib ko'rishlari uchun qulay pedagogik sharoit yaratish o'quvchilarning kasbga yo'naltirish jarayonining asosiy vazifalaridandir. Shu bois o'quvchilarning kasb tanlash muammosi maktab ta'limida katta o'rin tutadi.

Kasbni to'g'ri tanlash mehnat va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayoni va uning natijalaridan qoniqish esa, shaxsda ijodkorlik, hissiy ko'tarinkilik va jamiyat hayotida farovonlikni ta'minlashga ko'maklashadi.

Fan, ishlab chiqarish, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi barobarida jamiyatning o'z a'zolariga qo'ygan talablari ortib bormoqda. Bu esa, o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayonining ijtimoiy-pedagogik jihatdan takomillashtirishni talab etmoqda.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy islohotlar va fan-texnika taraqqiyoti insonning muayyan kasb egasi sifatida faollashuvini talab qilmoqda. Jamiyatning barcha a'zolari o'z shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishlariga ehtiyoj tug'ilmoqda. Buning uchun o'quvchilarni erkin, ongli kasb tanlashga yo'llashning ilmiy asoslangan uzluksiz tizimi maktab ta'limiga tatbiq etilishi lozim.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga yo'llash masalasiga ularni har tomonlama uyg'un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu shaxsni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-pedagogik muammodir.

Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik o'quvchilarni moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hozirlashning umumiy ko'rinishidir. Zarur texnologik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar ishlab chiqarishning muayyan sohalarini egallashga intiladilar. Bu esa, kasbiy ta'lim turini tanlashda o'quvchining qat'iy qarorlar qabul qilishiga imkon beradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish – maktabdagi pedagoglar jamoasi, ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyatidir.

O'quvchilarning kasbiy qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning texnologik asoslari boshlang'ich ishlab chiqarish tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ularni muayyan kasbga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Texnologik ta'lim kasbga yo'naltirish ishlari bilan uyg'unlashtirilgandagina kutilgan samarani beradi. Bugungi kunda maktabni bitirib, kasb-hunar kollejlari o'qishni davom ettirayotganlarning soni muntazam ortib bormoqda. Biroq ularning aksariyati ta'lim muassasalarini tasodifiy tarzda tanlamoqda. Sinf rahbari o'quvchining kasbiy qiziqish va tanlovini muntazam nazorat qilishi, buning uchun ularga har o'quv choragi yakunida maxsus varaqani to'ldirtirib borishi lozim.

O'quvchilar texnologik ta'lim darslarida mehnatning turli turlariga oid bilimlarni o'zlashtirmay, maxsus umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Mehnat ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotlarni shunday tashkil etishi kerakki, bu jarayonda har bir o'quvchida muayyan kasbga oid bilim, tushunchalar hamda umummehnat ko'nikmalari va kasbga nisbatan muhabbat, qiziqish, uni egallashga ehtiyoj, intilish tarkib topishi lozim.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarda faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan ish shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Bunday ishlar sirasiga laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlari, ishlab chiqarish sayohatlari, tajriba darslari kiradi. Bular mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilish hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni ham o'z ichiga oladi.

Mehnat o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma'lumotlarni muayyan mavzularga bog'lagan holda o'quvchilarga yetkazishi lozim. Chunonchi, elektrotexnika bo'limini o'rganish davomida o'qituvchi elektr quvvatining ishlab chiqarish, jamiyat ijtimoiy hayoti va iqtisodiyotdagi o'rni, uni ishlab chiqarish hamda iste'molchilarga yetkazish jarayoni, ushbu tarmoqqa oid kasblar uch guruhdan iborat ekanligini aniq misollar yordamida o'quvchilarga yetkazishi lozim.

O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o'qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o'quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatleri orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;
- kasblarning demografik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;
- o'quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo'yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;
- o'quvchilarni o'z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini bilan tanishtirish;
- o'quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarni rivojlantirishdagi o'rni haqida malumot berish;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish;
- o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;
- o'quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinab ko'rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;
- o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko'rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;
- o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o'tkazish va h.k.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xo-

nasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi.

Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;

- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1997. 63-b.
2. *Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlar.* "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. *G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi.* – T.: O'zMU, 2003. 156-b.

Shaxnoza AKRAMOVA,

Oliy harbiy bojxona instituti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi,

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA KASBIY SARALASHNING KORRUPSIYAGA QARSHI MOTIVATSIYA SEGMENTI

Annotatsiya

Maqolada korrupsiyaga qarshi motivatsiyaga urg'u berilgan holda kasbiy psixologik saralashning dolzarbligi va zarurati bojxona organlari misolida bayon etilgan. Soha xizmatiga qabul qilishda nomzodlarni psixo-pedagogik o'rganishning asosiy vazifalari, yo'nalishlari, metodikalar yoritilgan. Shuningdek, nomzodning korrupsiyaga moyillik darajasini belgilashga yordam beruvchi samarali metodikalar, pedagogik vaziyatli so'rovning ahamiyati izohlangan.

Kalit so'zlar. Motivatsiya, kognitiv dissonas, iste'molchi psixologiyasi, kasbiy psixologik saralash, pedagogik vaziyatli so'rovnoma, poligraf, psixofiziologik o'rganish.

В статье, акцентируется внимание на мотивации борьбы с коррупцией, обосновывается актуальность профессионального психологического отбора кандидатов в таможенную службу. Освещаются основные задачи, направления и методика психо-педагогического изучения кандидатов при отборе на службу в таможенные органы. В частности, раскрыта сущность эффективных методик и педагогических ситуационных опросников, помогающих определить степень предрасположенности кандидатов к коррупции.

Ключевые слова. Мотивация, когнитивный диссонанс, психология потребителя, профессиональный психологический отбор, педагогический ситуационный опросник, полиграф, психофизиологическое изучение.

In this article, focusing on motivation against corruption, according to the relevance and the need of professional psychological selection. It highlights the main challenges, trends and methods of psycho-pedagogical study of the selection of candidates to serve in the customs authorities. In particular, the disclosure of effective techniques and teaching situational questionnaires to help determine the degree of susceptibility to corruption of candidates.

Key words. Motivation, cognitive dissonas, the psychology of the consumer, professional psychological selection, teaching situational questionnaire, polygraph, psychophysiological studies.

Bojxona organi mansabdor shaxsi deganda, uning individual-psixologik xususiyatlari, ruhiy holatining xossalari va ustunlik jihatlari, shuningdek, bojxona xizmati jamoasiga uning o'zaro munosabatga kirishishi tushuniladi.

Bojxona organi mansabdor shaxsini belgilovchi xususiyatlari uning biror bir maqsadga yo'nalganligi hisoblanadi. Bunda faoliyat va xatti-harakatga yetaklovchi motivlari bojxona xizmati yoki boshqa ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan barqaror hayotiy va ijtimoiy maqsadlar majmuyini o'z ichiga oladi.

Motivatsion faoliyat organizm xatti-harakatlarini to'g'riligini baholovchi asosiy funksiyalardan biri bo'lgan o'z-o'zini boshqaradigan tizim hisoblanadi. Demak, inson qandaydir xatti-harakatni bajarayotgan paytda uning bajarilish samaradorligi, ya'ni ko'zlagan natijaga erishildimi yoki yo'qmi, buni o'zi uchun belgilab qo'yadi. Muvaffaqiyatli xatti-harakatlar shakli tanlab olinadi va mustahkamlanadi. Agarda inson o'ziga ma'lum bo'lgan holda kerakli natijaga erisha olmaydigan xatti-harakatlarni bajariganida, L.Festinger ta'biri bilan aytilgan "kognitiv dissonas", ya'ni keskin psixologik noqulaylik holati yuzaga keladi. Bu noqulaylik holati subyektni o'z xatti-harakatini yoki atrofdagilar haqidagi tasavvurlarini o'zgartirishiga majbur qiladi. Shunday qilib, xatti-harakatning maqsadga muvofiqligiga erishiladi.

Bojxona tizimiga ushbu holatdagi ishlarni tatbiq qilinishi quyidagicha sodir bo'ladi: Eng avvalo, bojxona qonunchiligi va rasmiylashtiruv qoidalariga amal qilmay, korrupsion yo'l bilan bojxona rasmiylashtiruvini qo'lga kiritgan shaxs beixtiyor shunday xulosaga keladiki, qonunga amal qilish hech qanday qimmatga ega emas, qonunchilikni buzishda hech qanday javobgarlikka tortilmaydi deb o'ylaydi. Bu esa noqonuniy daromad topishning ortishiga ta'sir ko'rsatadi va davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatiga nisbatan befarqlik holatini yuzaga keltiradi. Keyinchalik bu bojxona organlariga murojaat qilgan shaxslar dunyoqarashida noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'lib, deyarli davlat hokimiyatining butun tizimiga nisbatan noto'g'ri qarash shakllanadi. Natijada E.Fromm tavsiflagan "xaridga oid" tipli shaxs rivojlanib boradi. Ushbu shaxsni quyidagi xususiyatlar asosida xarakterlash mumkin:

- o'ziga o'zi baho berishida boshqa odamlarning fikriga tobeligi;
- jamiyatda aniq o'z o'rnini, o'zligini anglay bilmagani;
- axloq va etika me'yorlariga muvofiq kelishidan qat'i nazar kerakli vaqtda, kerakli joyda talab qilinadigan shaxsiy fazilatlaridagi kamchiliklarning mavjudligi.

Korrupsion huquqbuzarlikni sodir etilishiga imkon beradigan har bir mustaqil shaxsning psixologik xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin: maqsadga erishish uchun qat'iy intiladigan, har qanday urinishlar bilan "boyish" mumkin bo'lgan holatlarni topadigan, to'g'ri qarorni izlab topishni bilmaydigan yoki istamaydiganlikni ifodalaydigan aniq bir yurish-turish uslubi vujudga keladi.

Psixolog va kriminolog Y.M. Antonyan o'z tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda bu holatda g'arazli motivlardan tashqari o'yinli motiv ham yetakchilik qiladi¹. Korrupsion xatti-harakatda o'yinli motivlar g'arazlar bilan qo'shilib ketib, bir-biriga ta'sir ko'rsatishni boshlaydi. Shunday qilib, korrupsiya muhiti nafaqat odob va axloqiy me'yorlarning qadrsizlanishiga, balki jamiyatning tanazzuli va inqiroziga ham sabab bo'ladi.

Shaxsiy tavsifnoma, psixologik xususiyatlar va yurish-turish uslubini hisobga olish bojxona organlari mansabdor shaxslari o'rtasida olib boriladigan profilaktik ishlar bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda bojxona ishi mutaxassisi kasbi shaxsga nisbatan juda yuqori talablarni qo'yimoqda, xususan, uning ruhiy jarayonlari (e'tibor, tafakkur, xotira, nutq va h.k.) rivojlanganlik darajasi; uning o'z-o'zini anglashining rivojlanganlik darajasi, maxsus qobiliyatlarning – kommunikativ, tashkilotchilik va h.k. mavjudligi.

¹ Тогоидзе Н. В. Административно-правовые проблемы предупреждения коррупции и организованной преступности// Государство и право, 2002, № 50; 2001, № 7.

Bojxona ishi mutaxassisi ishining keskinlik va vaqt tig'izligi bilan ifodalaniishi asosida xarakterlanadi. Mansabdor shaxs bojxona nazoratini olib borish va rasmiylashtirishda ko'pincha asabiy-ruhiy va jismoniy zo'rliqishni, tashqi muhit: harorat, shovqin, namlik, tebranish va h.k. omillar ta'sirlarini boshdan kechirishadi. Shuning uchun ularning funksional holati va mehnatga layoqati izdan chiqishini yuzaga kelishining ehtimoli ortib boradi.

Bojxonachi faoliyatining amaliyotida eng yuqori xatar bojxona xodimlarini huquqqa qarshi harakatlarga aralashib qolishi bo'lib, Bojxona Kodeksini buzishni niyat qilgan shaxslar bilan yuzma-yuz bo'lgan aloqalarda bo'lgan paytda yuzaga keladi. Bojxona qonunchiligining mukammal emasligi, tovar va mulkni rasmiylashtirishning ishlab chiqilgan sxemalari yo'qligi, yuzaga keladigan savollar bo'yicha o'zicha qaror qabul qilish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun bir kishi qiladigan tartibda borib kelish va shunga o'xshash vaziyatlarda mansabdor shaxs va qonunchilikni buzilishiga manfaatdor shaxs bilan yakkama-yakka bo'lgan muhitni vujudga keltirishga imkon yaratiladi. Bunda yo'ldan ozdirish, mansabdor shaxsga ta'sir ko'rsatish va uni korrupsion huquqbuzarlikka og'dirish ehtimollari vujudga keladi. Bojxona xizmati xodimi noqonuniy daromad topish yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishi uchun har qanday "qulay" sharoit yuzaga kelganda ham axloqiy tarbiyasi va vijdoniga ko'ra ish tutishi muhim ahamiyatga ega. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganlaridek: "Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q"².

Shunga ko'ra, bojxona xizmati tizimiga tayyorlanadigan kadrlarni qabul qilish davridayoq kasbiy-psixologik saralab olish korrupsion ko'rinishlarning namoyon bo'lishini bartaraf etishda samarali natija beradi. Chunki kasbiy-psixologik (korrupsiyaga qarshi ishlar doirasida) saralashning maqsadi – nomzodni psixologik, ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik texnologiyalar, metodlar va metodikalar vositasida davlat xizmatining vakant lavozimlariga joylashtirishda ularda korrupsion xatti-harakatlarga moyilligi (motivatsiya) mavjudligi haqidagi to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ma'lumot beruvchi ishchanlik va shaxsiy sifatlari, tarjimai holidagi ma'lumotlar va h.k.lar orqali aniqlashtirish hamda tegishli rahbariyatga "xatar omillari" aniqlanganligi haqida xabardor qilish hisoblanadi.

Bojxona organlariga xizmatga qabul qilishda nomzodlarni psixo-pedagogik o'rganishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat xizmatining vakant lavozimlarga joylashtirishda nomzodlarni ishchanlik va shaxsiy sifatlarini baholash (o'rganish);
- davlat xizmatining vakant lavozimlarga joylashtirishda nomzodlarning tarjimai holi va boshqa ma'lumotlarini o'rganish;

² Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. – T.: O'zbekiston, 1998. 49-b.

– psixologik ko'rik materiallarining qiyosiy tahlilini o'tkazish va oldinda turgan faoliyat sharoiti va xarakteriga optimal moslasha olishni ta'minlaydigan hamda istiqboldagi kasbiy mahoratini rivojlanishiga bashorat qilishga imkon beruvchi individual xususiyatli nomzodlarni aniqlash.

Bojxona organi xizmatiga kelgan nomzodlarni kasbiy-psixologik saralash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– kasbiy-psixologik ko'rikdan o'tkazish (psixodiagnostika, suhbat);

– poligrafni qo'llagan holda psixofiziologik tekshiruvdan o'tkazish.

Kasbiy-psixologik saralashda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish lozim:

– asabiy-ruhiy barqarorlik;

– axloqiy-etik tamoyillar (axloqiy nazoratni pasayishiga nisbatan moyillik);

– ruhiy jarayonlarning tavsifi (xotira, diqqat, tafakkur, qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari);

– umumiy holatda shaxsning moslashuvchanlik imkoniyatlari;

– xizmatga kelishining motivatsiyasi.

Poligraf yordamidagi so'rov ko'rikdan o'tayotgan nomzodni umumiy baholashda ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha (yashirin) ma'lumotni olish va maxsus metodikalar bo'yicha berilayotgan savollarga psixofiziologik reaksiyalarini qayd etish maqsadida olib boriladi.

Poligraf yordamidagi so'rovning asosiy vazifalari quyidagi yo'nalishlarda (mavzularda) ma'lumotlarni olish hisoblanadi:

– bojxona organlariga xizmatga kirish, lavozimga tayinlanish chog'ida salbiy motivlarni aniqlash;

– psixotrop moddalar iste'moliga bog'liq holda o'zini tutishini izdan chiqqanligini aniqlash;

– shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish (soxta hujjatlardan foydalanilganligi va h.k.);

– jinoiy elementlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin xizmatdan tashqari ish (shaxsiy) aloqalarini aniqlash;

– zararli odatlarga moyillik va ayrim o'ziga xos xatti-harakatlar (alkogol ichimliklarga mukkasidan ketish; notibbiy maqsadlarda giyohvand va psixotrop vositalarni iste'mol qilish; pulga (qimmatbaho buyum)ga intilish, qimor o'ynashdagi tizimli o'yinlar va boshqalar) mavjudligini aniqlash;

– tibbiy xarakterdagi xizmatga nisbatan to'g'ri kelmaydigan jihatlarni aniqlash;

– ilgari g'ayriijtimoiy harakatlarni sodir etganlik (jinoiy javobgarlikka tortilish va h.k.) holatlarini aniqlash;

– Bojxona organlarida xizmatni davom ettirishga to'sqinlik qiluvchi faktlarni aniqlash (korruptsiya, poraxo'rlik, xizmat mavqeyini suiiste'mol qilganligi kabi dalillar).

“Xatar omillari”, korruptsiya harakatlarga moyilligi mavjudligi haqida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita tasdiqlovchi omillarni fosh qilinishi mumkin bo'lgan psixodiagnostik metodikalar³ 1-jadvalda ko'rsatilgan.

³ Человеческий фактор в управлении. Серия: Российская Академия наук сборник статей ученых Института проблем управления им. В.А.Трапезникова. РАН – Издательство: КомКнига, 2006. – С. 47.

**Korrupsion yoʻnalganlik mavjudligi haqida tasdiqlaydigan omillarni
aniqlashning psixodagnostik metodikalari**

№	Metodika	Mazmuni	Baholar
1	Kettell	Hokimiyat va hukmronlikka moyillik; prinsipsizlik, oʻz injiqliklariga erk berish, axloq tamoyillarini mensimaslik; tavakkalchilik va kuchli his-tuygʻularga nisbatan qiziqish; sovuqqonlik va ratsionalizm, ayyorlik va ziyraklik.	E+; G-; H+; N+;
2	Richi Martin	Bu shkalalarning qolgan omillardan oshib ketishi subyektning muammoli va zaif tomonlari hamda ular vasvasasiga muhtaloligi (moddiy farovonlik, tavakkalchilik, hokimiyat va taʼsir doirasiga ega boʻlishga ehtiyoj) haqida bevosita guvohlik berishi mumkin.	Omillar 1 (yuqori ish haqqi) 6 (hurmat qozonish) 8 (hokimiyat va taʼsir doirasi) 9 (xilma-xillik va oʻzgarishlar)
3	Zondi testi	Yurish-turishning ijtimoiy-salbiy boshqariluvchi belgilari	Gipertonus k+, paraksizmal vektorning oʻziga xos xususiyatlari

Ehtimoliy boʻlgan korrupsion moyilliklarni aniqlash usullarining biri sifatida pedagogik vaziyatli soʻrovnoma taklif etiladi. Bunda koʻrikdan oʻtuvchiga oʻziga maqbul shaklda yo oʻz moddiy boylik orttirish foydasini tanlash yoki foydali jihatlar mavjud boʻlmagan vaziyatni qonuniy hal qilinishi tanlashni nazarda tutuvchi murakkab, bir xil mazmunga ega boʻlmagan vaziyatni “tasvirlash” imkoniyati yaratiladi. Masalan, savollar quyidagicha tuzilgan boʻlishi mumkin:

1. Siz bilan yaxshi munosabatda boʻlgan hamkasbingiz kimgadir qilib bergan xizmati uchun moliyaviy haq olayotganini tasodifan guvohi boʻlib qolsangiz nima qilar edingiz?

2. Noqonuniy ishlar qilmaslikka nisbatan mustahkam qarashlarga ega inson bir kun kelib shunday vaziyatlarda buni qilishga bari-bir majbur boʻlishi mumkinligi boʻyicha nima deb oʻylaysiz?

3 Umrida bir marta taklif etilgan porani olishga rozi boʻlgan insonni nima bilan oqlash mumkinligi haqida fikr bildiring.

Bojxona organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbuslari bilan barpo etilgan Oliy harbiy bojxona instituti zimmasiga yuklatilgan. Institut oʻz vakolati doirasida oʻqishga xohish bildiruvchi nomzodlarni har yili kasbiy layoqatiga mosligi yuzasidan saralash ishlarini amalga oshirib keladi.

Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 141-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy taʼlim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidolari toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori⁴ hamda Davlat bojxona qoʻmitasining 2015-yil

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy taʼlim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidolari toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – OʻzR QHT, 2014, 23-son, 271-modda.

12-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 5-martda 2659-son bilan ro'yxatdan o'tgan qaror ijrosi to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq, Oliy harbiy bojxona institutiga o'qishga qabul qilinishda abituriientlar 2 bosqichli individual-psixologik va psixofiziologik qo'shimcha o'rganish jarayonidan o'tadi. Unga ko'ra, maxsus topshiriqlar yordamida nomzodning dunyoqarashi, bilim saviyasi, fikrlash darajasini aniqlash, shaxsidagi aqliy (intellektual) xususiyatlarini har tomonlama psixologik jihatdan baholash hamda ularning aqliy rivojlanganlik darajasini aniqlash; tanlagan kasbi uchun muhim bo'lgan individual shaxsiy xislatlarni o'rganish; kasbiy motivlarni aniqlash va kasbiy yo'nalganligini baholash kasbiy professiogramma orqali aniqlab olinadi.

Mazkur amalga oshirilgan ishlarning ilk natijalari sifatida institut 1- va 2-kurs talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring natijalari tahlil qilinda, avvalgi yillarda qabul qilingan ushbu kurs talabalariga nisbatan o'rtacha 77 foizdan 86 foizga oshganligiga erishilgan. Bu esa bo'lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetning asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan bilim, ko'nikmalar hamda burch, iroda, mas'uliyat kabi fazilatlarini kasbiy faoliyatga professional ravishda tatbiq qilishga hamda tizimda xizmat qilayotgan xodimlar tomonidan sodir etilishi ehtimoli bo'lgan huquqbuzarliklar, korrupsiya ko'rinishlarining oldi olinishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida*. – T.: O'zbekiston, 1998. 49-b.

2. *O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori*. – O'zR QHT, 2014 y., 23-son, 271-modda.

3. Тоголидзе Н. В. *Административно-правовые проблемы предупреждения коррупции и организованной преступности* // *Государство и право*, 2002, № 50; 2001, № 7.

4. *Человеческий фактор в управлении. Серия: Российская Академия наук сборник статей ученых Института проблем управления им. В.А.Трапезникова. РАН – Издательство: КомКнига, 2006. – С.47.*

Furqat AXMEDOV,

Jizzax Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, p.f.n.

Farrux AXMEDOV,

Samarqand Davlat universiteti o'qituvchisi

ZAMONAVIY JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING PROFESSIOGRAMMASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar hamda jismoniy tarbiya o'qituvchisining professiogrammasi tahlil qilingan. Shuningdek, muallif ilmiy-pedagogik kuzatishlar natijasida zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasini o'rganilganlik xulosasini ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi, professiogramma, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, amaliyot, xususiyat, faoliyat, pedagogik takt, pedagogik harakatchanlik.

В статье анализируются требования к современному учителю и профессиограмма учителя физического воспитания. Автор представляет выводы научно-педагогических наблюдений при изучении профессиограммы современного учителя физического воспитания.

Ключевые слова. Современный учитель физического воспитания, профессиограмма, требование к преподавателю, деятельность, педагогический такт, педагогическая активность.

The article in object analyzes professiogramm of modern physical training teacher. Pedagogical monitoring is established and professiogramms of modern physical training teacher analysed.

Key words. Modern physical training teacher, professiogramm, requirements of physical education teacher, pedagogical tact, pedagogical action.

Vatanimiz taraqqiyotining bugungi kunida Respublikamizda qator sohalar va kasblar bo'yicha mutaxassis-kadrlar tayyorgarligiga alohida talablar qo'yilmoqda. Barcha kasblar singari jismoniy tarbiya o'qituvchisi ham ma'lum darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi va o'z faoliyatini shu tayyorgarlik asosida tashkil qilishi lozim.

Mustaqillik yillarida yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida qator sohalar kabi jismoniy madaniyat kadrlari, xususan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash hamda ulardan amaliyotda samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor vazifalari sirasiga kiritilgan. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ham yuqori talablar qo'yilmoqda. Bunday talablar majmui professiogramma termini bilan izohlanib, u o'zida zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun xos bo'lgan xususiyatlar va sifatlarni birlashtiradi.

Professiogramma bu murakkab va ko'p qirrali tarzda bo'lib, o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, ruhiy-fiziologik imkoniyatlari va kasbiy-pedagogik mahoratini ko'rsatib beruvchi tushunchadir. Professiogramma o'qituvchi modeli sifatida aksariyat mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan va zamonaviy o'qituvchi shaxsi etaloni darajasida qaraladi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, professiogramma pedagogik model, pedagogik konsepsiya kabi atamalar mazmuni bilan mos keladi.

O'qituvchi professiogrammasi haqidagi zamonaviy ilmiy izlanishlar asosan 1960-1970-yillarda ilmiy omma e'tiboriga tushdi (AQSH, Rossiya, Angliya va h.k). Masalan, K.Feldman (1976), M.Gildebrandt, V.Vilson, D.Dinst (1970), V.Krutetskiy (1972) kabilar mazkur masalaga doir ilmiy-pedagogik kuzatishlar olib borganlar. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek mutafakkirlari XIX asr va hatto undan ilgariroq haqiqiy pedagog to'g'risidagi ilmiy qarashlarni bayon qilib, o'qituvchi faoliyatining asosiy jihatlarini ko'rsatib o'tgan (masalan, A.Avloniy, Behbudiy, Fitrat va boshqalar). Keyinchalik, zamon taraqqiyoti pedagogika sohasida ham yangilanishlar yuzaga chiqishiga zamin yaratdi. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi rivojlanish zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasini qayta tuzish va takomillashtirish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasi tushunchasini yoritishdan avval, unga qo'yiladigan talablar va jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak.

Ilmiy-pedagogik kuzatishlar va tahlillar hamda sohaning rivojlanish tendensiyalari zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisiga quyidagi talablarni qo'yadi:

1. Ma'naviy tarbiyalanganlik. Ma'naviy yetuklik, doimo komillik sari intilish, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash hamda o'quvchilarga singdirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnat-sevarlik xislatlarining yuqori darajada shakllanganligi.

2. Axloqiy fazilatlar. Jamoadagilar, o'quvchilar va umuman insonlar bilan samarali muloqotga kirishish, muomala madaniyatining yuqoriligi. Doim o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o'zini boshqara olish. Turli salbiy illatlardan holi bo'lish. Sog'lom turmush-tarziga intilish. Umume'tirof etgan axloq me'yorlari doirasida bo'lish.

3. Ruhiy-irodaviy xususiyatlar. Doimiy faol, intiluvchan, mulohazali, har qanday sharoitda o'zini nazorat qila olish. O'z kasbining barcha qiyinchiliklarini ongli ravishda tushunib yetish, doimo izlanishda bo'lish. Shuningdek, o'z intilishlari va pedagogik harakatchanligini muntazam oshirib borish.

4. Kasbiy savodxonlik va pedagogik bilim. O'z ustida tinimsiz ishlash, soha yangiliklaridan muntazam xabardor bo'lish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan erkin foydalana olish, chet tillarini bilish. O'qitishning ilg'or usullaridan amaliyotda keng foydalanish. Shuningdek, o'z jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish va oshirib borishga intilish.

Psixologiya, xususan, jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi ma'lumotlariga ko'ra, turli soha o'qituvchilaridan farqli ravishda jismoniy tarbiya o'qituvchilari quyidagi sharoitlarda faoliyat ko'rsatishi bilan farqlanadi:

Yuqori ruhiy kuchlanish sharoiti, bunda:

- dars va mashg'ulotlardagi shovqin (asosan, o'quvchilarning ovoz shovqini);
- turli yosh guruhlari bilan ishlashda o'qituvchi ruhiyatiga beriladigan ta'sir;
- eshitish va nutq organlarining ta'sirlanishi hamda ularning o'zaro aloqasi;

- o'quvchilarning salomatligi va xavfsizligi masalasida javobgarlikning yuqoriligi. Organizmga beriladigan jismoniy yuklamalar sharoiti, bunda:
- mashqlarni bajarib ko'rsatish, tushuntirish va o'rgatishning bir vaqtda amalga oshirilishi;

- jismoniy harakatlarni o'quvchilar bilan birgalikda bajarish va ularga yordamlashish;
- o'quvchilarni turli jarohatlardan saqlashdagi harakatlar.

Tashqi ta'sir sharoiti, bunda:

- ochiq havoda dars va mashg'ulotlarni tashkil qilish;
- dars va mashg'ulotlar o'tish joylarining gigiyenik holati.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablar asosida zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasi tashkil topadi (1-chizma). U quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

I. Psixologik va pedagogik sifatlar

1. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi adabiyotlarni o'qish, ularni tahlil qila olish, pedagogik va psixologik bilimni oshirib borish.

2. O'z pedagogik faoliyatini va o'quvchilar o'quv faoliyatini tanqidiy tahlil qilish.

3. Pedagogik mahoratini o'stirish va rivojlantirishni doimiy monitoring qilib borish.

4. O'quvchilar va shug'ullanuvchilar ruhiyati, ularning ichki dunyosi va emotsional holatini tushunish.

II. Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik sifatleri

1. O'ziga nisbatan talabchanlik.

2. O'z ustida ishlash va pedagogik harakatchanlik.

3. Mehnatsevarlik.

4. Sog'lom turmush tarziga intilish va o'z salomatligi haqida g'amxo'rlik. Shaxsiy jismoniy tayyorgarligini oshirib borish.

5. Yuqori pedagogik madaniyat va pedagogik takt.

III. Shaxsiy-metodik sifatlar

1. O'quv materiallarini tahlil qilish, rejalashtirish, baholash va ularning mohiyatini ongli ravishda tushunish.

2. Darslarni sifatli tashkil qilish va tahlil qila olish.

3. Darsdan tashqari sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va ommaviy sport tadbirlarini tashkil qila olish.

4. O'quvchilarning salomatligini mustahkamlash va ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga intilish.

5. O'quvchilarning jismoniy faolligi va jismoniy imkoniyatlarini baholay olish, ularning jismoniy tayyorgarligini muntazam nazorat qilib borish.

6. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mashg'ulotlar va darslarning didaktik mohiyatini tushunish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini bilish. O'quvchilarni turli salbiy illatlar va yot g'oyalarga ta'siridan asrash.

IV. Kommunikativ-tashkilotchilik sifatleri

1. O'quvchilar guruhi, sinf va muayyan bir o'quvchi bilan maqsadga qaratilgan pedagogik aloqalarni yo'lga qo'yish hamda unga rahbarlik qilish.

2. O'quvchilar orasida o'zaro hurmatga asoslangan pedagogik iqlimni shakllantirish.

3. Dars, mashg'ulot, musobaqalar va sport tadbirlari jarayonida o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarni nazorat qilish va boshqarib borish.

4. O'zining mustaqil qarorlarini qabul qilish.

V. Ilmiy-pedagogik sifatlar


1. Sohadagi yangiliklar va o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, o'qitishning ilg'or usullari to'g'risida ma'lumotlarga va bilimlarga ega bo'lish hamda ularni amaliyotda qo'llash.

2. Sohaning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish va baholash, sohadagi ilmiy muammolarni tahlil qilish va ko'ra bilish.

3. Soha bo'yicha turli adabiyotlar va axborotlardan to'g'ri foydalana olish, tajribalar tashkil qilish.

Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasi mutloq o'zgarmas tushuncha emas. U zamon talablari va soha rivojining xususiyatlariga qarab mukammallashib, takomillashib boradi. Ammo, shu aniqki, jismoniy tarbiya o'qituvchisi professiogrammasi har doim o'qituvchiga qo'yiladigan talablar doirasida va sohaning xususiyatlariga asosan tarkib topadi.

1-chizma



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonova O. va boshq. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim atamalarining izohli lug'ati*. – T., 2011. 185-b.

2. В.В.Верещагин. *Профессиограмма учителя физической культуры*. – М.: 2011. www.professigramma.docx.

3. Евсеев. Ю.И. *Физическая культура*. – Ростов на Дон: Феникс, 2003.

Laziz YUNUSOV,

Toshkent shahar XTXQTMOI kafedra mudiri

KATTA YOSHDAGI AUDITORIYA BILAN ISHLASH TAMOYILLARI VA USULLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlashda zamonaviy talablarga muvofiq, takomillashtirilgan tizimdan foydalanish masalasi bayon etilgan. Shuningdek, muallif katta yoshdagilarga ta'lim olish nimaga kerakligi hamda ular qanday ta'lim olishi lozimligini turli misollar bilan hayotiy, ijodiy tushuntirib, uning tamoyillari va usullarini bergan.

Kalit so'zlar. Katta yoshdagilar, taqdimotchi, dunyoqarash, bilim, ko'nikma, innovatsion faoliyat, interfaol usullar.

Статья посвящена вопросам переподготовки руководителей и педагогических кадров образовательных учреждений на основе современных требований. Также рассматриваются особенности преподавания, принципы и методы работы с взрослой аудиторией, вопросы организации образовательного процесса с учетом профессиональных и жизненных запросов педагогов.

Ключевые слова. Образование, взрослые, наставник, мировоззрение, знание, навыки, инновационная деятельность, интерактивные методы.

The article reviews delivery peculiarities, principles and methods of working with adults, the issues of training process organization and successful use of acquired skills.

Key words. Learning, adults, trainer, world views, knowledge, skills, innovational activities, interactive methods.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning chuqur bilimga ega bo'lishida, yuksak salohiyatli, teran fikrli, innovatsion-intellektual bilimlarni chuqur egallashida albatta o'qituvchi-pedagoglar har tomonlama tayanch bo'lmog'i lozim.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida ularning qonunchilik me'yor-

lari, nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganish; yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egalash va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish kabilar ko'zda tutilgan.

Insoniy ta'lim konsepsiyasida tinglovchilarda bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojni hosil qilish va uni o'qishga o'rgatishga, insonning ichki tajribasi, his-tuyg'ulari, xayoli, tafakkuriga katta e'tibor qaratiladi. Buning uchun "tanlash erkinligi", "faol ishtirok etish", "guruhda ishlash", "alohida uslub", "muvaffaqiyat vaziyati", "o'z-o'zini nazorat qilish", "tanqidiy baholash" usulini qo'llash kabilar shaxsning o'quv faoliyati jarayonida uning o'z-o'zini ijodiy namoyon qilishiga shart-sharoit yaratadi. Ta'lim islohotlari sharoitida ta'lim muassasalarida turli pedagogik yangiliklarni joriy etishga qaratilgan innovatsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu faoliyat pedagogik jarayonning barcha jihatlari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllari, mazmuni va texnologiyasini qamrab olmoqda.

Innovatsion jarayonlarning murakkabligi birinchi navbatda pedagogik faoliyatni psixologik jihatdan tubdan qayta qurishni talab qilishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy buyurtmani bajarish uchun avtoritar usullardan voz kechish, o'qituvchi (trener, ma'ruzachi, moderator) va o'quvchi (tinglovchi, ishtirokchi) hamkorligidagi faoliyatga asoslangan pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi pedagog (trener, tadqiqotchi, ma'ruzachi, orator)lardan katta kuch-g'ayrat, yangilikka bo'lgan intilish va fidokorlikni talab qiladi.

Eskirgan tushunchalardan voz kechib, yangi, innovatsion faoliyatning yanada mukammal tajribasini egallash jarayonida bir nechta bosqichlarni ko'zda tutish kerak: muammoli fikrlashni shakllantirish, zarur axborotlarni qidirish, innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish, dasturni ro'yobga chiqarish hamda yangi tajribani mustahkamlash lozim.

Muammoli fikrlashni shakllantirish uchun ishdagi qiyinchiliklar oqibatida yuzaga kelgan qoniqmaslik hissi o'z faoliyatidan qoniqmaslik hissiga, ya'ni tashqi to'siq ichki to'siqqa aylanishi zarur. Bu borada qo'yilgan murakkab vazifalarni hal etish uchun pedagoglarning o'z faoliyatidan qoniqmaslik sabablarini ularning o'zlaridan qidirishga o'rganish, o'ziga tanqidiy qarashni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Taqdimotchi (trener, ma'ruzachi, moderator) uchun innovatsion faoliyatni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa, yordam beruvchi axborotlarni ajratib olish va harakat rejasini belgilash lozim. Axborotlarni izlash davomida tadqiqotchi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab mavjud yechimlar ichidan ayni sharoit va vaziyat uchun eng muvofiq bo'lganlarini tanlab oladi. Tanlab olingan yechim o'qituvchining muammosini yechish uchun ishlab chiqilgan g'oyasi sifatida yuzaga keladi. U pedagogik faoliyatning turli qirralarini: mazmuni, shakli, usullari, ta'lim texnologiyasini yangilashga qaratilgan dasturning negizini tashkil qiladi.

Ta'limni yangi qadriyatlar va imkoniyatlar bilan boyitib borishda o'qituvchilarning kasbiy mahorati va ilmiy-nazariy malakasi, ijodiy imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu o'quv jarayonida dialektik, muammolilik, muloqotlilik, sabr-toqatlilikni e'tiborga olgan holda, intellektning tahliliy yo'nalganligi bilan ham aloqadordir. Shuningdek, insonga mo'ljallangan zamonaviy bilimlar majmui darajasi, bu bilimlarni muqobil tarzda ishlatish qobiliyati, ularga tanqidiy baho berishga qodirligi bilan ham izohlanadi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, ma'lum vaqt o'tib, albatta, insonning muayyan darajadagi intellektual salohiyati to'liq yuzaga chiqishiga, hayotimizda ijobiy oqibatlariga olib keladi. Har bir inson jamiyatda o'zining munosib o'rnini topadi. Ta'limning yangi modelini amalga oshishi jamiyatimiz potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Hozirgi vaqtda katta yoshdagilarga ta'lim berish haqida ko'p gapirilyapti. Insoniyat taraqqiyotining oxirgi o'n yilliklarda shiddat bilan amalga oshirilayotgan jarayonlar yangi muhitga moslashishni talab etadi. Individdning jamiyatda yashash sharoitlari o'zgarmoqda, qadriyatlarni qayta baholash jarayonlari kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda inson va uning muammolarini yechishga kompleks yondashuv talab qilinadi. Katta yoshdagilarga ta'lim berish tor mutaxassislik doirasida amalga oshirilishi mumkin emas. Katta yoshdagilarga ta'lim berish jarayoniga kompleks yondashuv muhimdir, ya'ni ular ma'naviy, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim.

Shunday qilib, "katta yoshdagilarga ta'lim berish" haqida gap ketganda, insonlarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sir etuvchi barcha sohalar nazarda tutiladi. Ushbu masalalar bilan ta'lim (qo'shimcha kurslar, to'garaklar, malaka oshirish tizimi), madaniyat (klublar, xorlar, hunarmandchilik to'garaklari, kutubxonalar), bandlik xizmatlari (qayta o'qitish va qayta tayyorlash), nodavlat tashkilotlari (fuqarolik tarbiyasi, ayollar, yoshlar, nogironlar bilan ishlash), har qanday tashkilot rahbari (seminar, yig'ilish, majlislar) kabilar shug'ullanadi. Ya'ni, katta yoshdagi kishilarning dunyoqarashi, bilimi, ko'nikmalarini kengaytirish bilan bog'liq jarayonlar katta yoshdagilarga ta'lim berish hisoblanadi.

Ushbu atama bilan bog'liq yana bir anglashilmovchilik mavjud. Kimlarni biz katta yoshdagilar deb hisoblashimiz mumkin? Odatda 30 yoshdan oshgan yoki nafaqaxo'r kishilarni katta yoshdagilar deb hisoblashadi. Ammo o'rta yoki oliy ta'limga ega bo'lgan, ishlayotgan har qanday odam katta yoshdagi kishi deb hisoblanadi. Ya'ni, bu toifada ishlayotgan yoshlar ham, o'rta yoshdagi kishilar ham kiradi.

Shuning uchun ham, biz o'rta va oliy ta'limda asosiy mutaxassislikni olish bilan bog'liq bo'lmagan, insonning ma'naviy, intellektual rivojlanishi haqida gapiramiz. Biz katta yoshdagilar qanday o'qitilishi hamda ularning rivojlanishi o'quvchi va talabalar-dan nimalar bilan farqlanadi, katta yoshdagilarga ta'lim berishda qanday yondashuvlar samarali bo'lib hisoblanadi, ushbu sohada qanday muammolar mavjud va ularni qanday vositalar yordamida hal qilish mumkinligi haqida gapiramiz.

Katta yoshdagilarga ta'lim olish nima uchun kerak?

Ta'lim – bu shunchaki trener bilan mashq qilish emas, bilim olish va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pqirrali, murakkab jarayondir. Hozirgi kunda YUNESKO rasman ta'limning quyidagi uchta shaklini e'tirof etgan:

1. Formal (formal) – ya'ni maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladigan va mutaxassislik guvohnoma, diplom topshirilishi bilan yakunlanadigan ta'lim bo'lib, u kasbiy ta'lim tizimi va malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarini o'z ichiga qamrab oladi.

2. Noformal (non-formal) – har qanday joyda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan hamda guvohnomaning berilishini talab etmaydigan ta'lim. Bularga turli ko'rinishdagi klublar, to'garaklar, sho'balarni kiritish mumkin. Ta'limning ushbu turi bilan madaniyat tashkilotlari va muassasalari shug'ullanadilar. Shuni a'lohida ta'kidlash kerakki, rivoj-

langan mamlakatlarda noformal ta'lim tizimi formal ta'lim tizimi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda esa undan ustun turadi, chunki noformal ta'lim tizimi insonning ijodiy taraqqiyoti uchun optimal sharoitlar yaratadi.

3. Informal (informal) – tashkil etilmagan kutubxona, ommaviy axborot vositalari, o'rtoqlari, teatr va muzey, ko'rgazmalar orqali axborot olishning odatda maqsadga aniq yo'naltirilmagan ta'lim turi¹.

Ko'rib turganingizdek, biz, o'zimiz buni anglamagan holda, butun hayotimiz davomida o'rganamiz. Boshqacha aytganda, “Biz nima uchun o'rganamiz?” degan savol o'rinsiz bo'lib ko'rinadi. Uning o'rniga “Qayday qilib ta'limni samarali tashkil etish mumkin va nima uchun?” degan savolni qo'yish lozim.

O'tgan davrlarning buyuk pedagoglar va ma'rifatparvarlari A.Fitrat, M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy kabilar uzluksiz ta'lim haqida ko'pgina fikrlarini aytib o'tganlar. Ammo uzluksiz ta'lim haqidagi g'oyalarni targ'ib etish harakatlari, ayniqsa oxirgi o'n yilliklarda kuchayib bordi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari asosiy hujjatlardan biri bo'lib hisoblangan “Uzluksiz ta'lim Memorandumi”ni muhokama qilmoqdalar. Ushbu hujjat “hayot davomida” (lifelong learning) ta'lim olishga asos solishi kerak. Nima uchun ushbu muammo aynan bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda?

Birinchidan, bu ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'zlashtirishning obyektiv zaruriyati bilan bog'liq. Bugun hayotimizga elektron manzil, Internet, yangi hisobot dasturlari kirib kelmoqda. Agarda biz ularni tezda qabul qilmasak, biz nafaqat kasbiy, balki jamoatchilik hayotidan ortda qolamiz.

Ikkinchidan, ijtimoiy muhitning murakkablashuvi, boshqacha aytganda, hamisha to'g'ri qarorni qabul qilish zarurati. Agarda avval, tanlash imkoniyati bo'lmagan bir paytda - qaysi nomzodga ovoz berish, qaysi bankda omonatni saqlash, qaysi maktabga bolani berish kabi masalalar bizni umuman qiziqtirmagan bo'lsa, bugungi kunda reklamalar va saylovoldi plakatlardan va boshqalar orqali tezda xabardor bo'lishimiz mumkin. Inson qanchalik ko'p axborot va ma'lumotga ega bo'lsa, u chiroyli reklama-ga qarab emas, balki o'zining bilimi va irodasiga tayanib, ongli ravishda biror narsani tanlab oladi.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyatning axloqiy-estetik talablariga javob berishdir. Axloqiy-psixologik me'yorlarning o'zgarishi sharoitida ijtimoiy hayotda axloqning roli kuchayib bormoqda. Insonlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy illatlar bilan kurashish, qonunlarga itoat qilish, fuqarolarning haq-huquqlarni hurmat qilish va ta'minlash, oilani mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini olib borish, atrof muhitni avaylab asrash va h.k. kabi masalalarga jamiyat a'zolarining e'tiborini jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, nafaqat yosh avlodni, balki katta yoshdagi kishilarni tarbiyalash muammolarini kun tartibiga qo'yimoqda.

Shu bois kishining o'z shaxsiyatini yanada rivojlantirish, ko'payib borayotgan talablarni qondirish muammolari yuzaga kelmoqda. Boshqacha aytganda, bu yerda shaxsning mukammalligiga erishish, rejalarini ro'yobga chiqarish maqsadidagi ta'lim nazarda tutiladi. Amerikalik psixolog A.Maslou fikricha, inson o'zining fiziologik talablarini qondirib borgani sari (oziq-ovqatga, uy-joyga, xavfsizlikka), ular o'rnini murakkab talablar egallab boradi (insonning o'zi xohlaganicha o'zgarib borishi, maqsadlarga erishuvi, o'zining umuminsoniy va individual mohiyatini namoyish etishi). Katta yoshdagilar qanday ta'lim olishadi?

¹ O'qitishning interfaol usullari va taqdimot ko'nikmalari. – T.: Mintaqaviy siyosat jamg'armasi, 2007.

Biz o'rtoqlar va hamkasabalarimizdan "Yo'q, men o'qish-o'rganish uchun juda qaridim! Xotiram yaxshi emas, ma'ruzachini eshitib o'tirishga holim yo'q!" degan gaplarni ko'p eshitganmiz. Ammo televideniye orqali namoyish etiladigan seriallar syujeti yoki oilada bo'lib o'tgan voqealarni ipidan-ignasigacha eslab olishga qodir bo'lgan katta yoshdagi kishilarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Demak, gap bizning fiziologik va neyro-psixologik xususiyatlarimizda emas, balki biz nimani eslab turishni yoki tushunib olishni xohlayotganligimizdadir.

Nima uchun "o'qish" so'zini eshitganimizda, qator partalar va auditoriya qarshisida turgan ma'ruzachi ko'z oldimizga keladi. Vaholanki, o'qishning bunday shakli bilan biz faqat 10-15 yil davomida bog'liq bo'lamiz. Biz maktabga bormagan bolalarni partaga o'tkazish hamda 45 daqiqa davomida ma'ruzachini qimirlamasdan eshitib o'tirishni tasavvur ham qila olmaymiz. Bunday bolalar o'qishni bilmaydiganlar degan xulosa noto'g'ri, albatta. Ular ham o'rganadilar, ammo ular boshqacharoq qabul qildilar.

Xuddi shunga o'xshab katta yoshdagi kishilar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular ham butun hayoti davomida o'rganadilar (avval aytib o'tganimizdek, formal va noformal o'qishni eslang), ammo buni boshqacha qiladilar. Biz esa, ularni o'quvchi yoki talabaga o'xshab oxirgi partaga o'tkazib, o'qitishga urinamiz. Buning natijasida – qoniqmaslik kayfiyati, ishonchni yo'qotish, "endi o'rganish uchun kech bo'ldi" kabi tasavvurlar hosil bo'ladi. Harakatlarimiz biz xohlagan natija bermayotganligining guvohi bo'lamiz-u, nima qilishni bilmay qolamiz.

Eslab ko'ring, oxirgi marotaba katta yoshdagilar guruhi bilan ishlashga to'g'ri kelganda (suhbat, ma'ruza, seminar), darsingizni rejalashtirganingizda siz nimalar haqida ko'proq o'yladingiz? Albatta, ularga nima deyishingiz haqida. Material tayyorlashda qator adabiyotlarni ko'zdan kechirdingiz. Keyin esa, qiziqarli misollarni to'plab, reja yoki butun ma'ruzangizni yozdingiz, ko'zgu oldida mashq qildingiz. Balki, tinglovchilar sizning mehatingizni baholashdi ham. Ammo auditoriyada zerikkan, esnayotgan yoki soatga qarab qo'ygan tinglovchilarga ham ko'zingiz tushgan. O'zingizni oqlash uchun siz "O'qish ham mehnat-u oson ish emas", deb ham qo'ygandirsiz. Biroq bu eng be'mani gapdir. Agar shunday bo'lganida, biz gazeta sahifalarida e'lon qilingan navbatdagi "yulduzlar janjali"ni, kechagi to'yda kim qanday kiyimda bo'lganligini va dasturxonga nimalar tortilganligini ham eslamas edik.

Mashg'ulotingiz to'g'ri rejalashtirilganmi, uni qanday olib borasiz, nimadan boshlaysiz, auditoriya diqqatini qanday jalb etasiz, charchoqni olish uchun nima haqida so'zlab berasiz, tinglovchilarga o'z fikrlarini bayon etishi uchun imkoniyat yaratasizmi kabilar haqida o'ylab ko'rdingizmi? Agarda yo'q bo'lsa, unda aynan sizning ma'ruzangiz "og'ir majburiyatga" aylanganligiga, katta yoshdagilar endi bizga bilim olish uchun kech bo'ldi, deb hisoblashlariga sabab bo'lasiz.

YUNESKO tashkiloti ko'p yillar davomida katta yoshdagilarni o'qitish xususiyatlarini o'rganish bilan jiddiy shug'ullanib, quyidagi asosiy tamoyilni shakllantirdi: "Katta yoshdagi kishilar uchun o'qitish jarayoni qiziqarli tashkil etilishi lozim! (Adult learning must be fun)". Bu nimani anglatadi? Psixologlar katta yoshdagi o'quvchini o'qitishda maktab o'quvchisi va talabalar bilan farqli beshta asosiy xususiyatlar borligini ta'kidlaydilar:

1. Katta yoshdagi kishilar o'zini mustaqil, o'zini-o'zi boshqara oladigan shaxs deb hisoblaydi, aytmasa ham lekin unga rahbarlik qilishga har qanday urinishlarga tanqidiy qaraydi.

2. Katta yoshdagi kishilar katta hayotiy, ijtimoiy va kasbiy tajribani to'playdi. Ushbu tajriba ular dunyoqarashini shakllantiradi hamda qabul qilinayotgan har qanday axborot ana shu dunyoqarashga asoslanib baholanadi.

3. Katta yoshdagi kishilarning o'qishga intilishi pragmatik yondashuvga asoslanadi. Ya'ni, ular o'qish yordamida o'zining hayotiy muammolarini hal etishni maqsad qilib oladilar (muloqot, ko'ngil ochish va h.k.).

4. O'quvchi yoki talabadan farqli o'laroq katta yoshdagi kishilar olgan bilimlarini kechiktirmasdan amalga oshirishga, ta'lim jarayonidan qoniqishga intiladilar.

5. Katta yoshdagi kishilarning idroki axborotni emotsional baholash bilan uzatib boriladi. Ularning miyasi salbiy emotsiya bilan uzatib boriladigan har qanday axborotni to'xtatib qo'yishga harakat qiladi (hatto ushbu kayfiyat qorin ochganligi, o'rindiqning qulay bo'lmaganligi tufayli paydo bo'lgan bo'lsa ham).

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, katta yoshdagi auditoriyada dars olib boranda ma'ruzachining o'zi ham ana shunday kishilar toifasiga kirishini hamda bunday kishilarga xos shaxsiy xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Ma'ruzachi o'zini tinglovchilar orasida o'tirgandek faraz qilishi kerak, bunday usulda olib borilgan mashg'ulotda o'zi zerikmagan bo'larmidi? degan savolni o'ziga qo'yishi kerak. Biz darsga tayyorgarlik ko'rib charchaganligimiz tufayligina katta yoshdagi kishilarni azobga qo'ymasligimiz kerak. Shuni esda tutish lozimki, agarda tinglovchilar sizning mashg'ulotingizda zerikib, qiynalib, sabr qilib o'tirishini istamasangiz, ta'limning interfaol usullarini o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatingizda keng qo'llashingiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T., 1997. 30-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2004 – 2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. 28(112)-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4732-sonli Farmoni// "Xalq so'zi", 2015-yil 12-iyun.
4. O'qitishning interfaol usullari va taqdimot ko'nikmalari. (mualliflar jamoasi. – T.: Mintaqaviy siyosat jamg'armasi, 2007.
5. Голуб И., Розенталь Э. Секреты хорошей речи. – М.: Международные отношения, 1993.

Tahririyat: Ta'lim olish yosh tanlamaydi. Inson katta yoshga yetganda ham o'zida ilm olishga ehtiyoj sezadi. Aslida bugungi kunda katta yoshdagilar ta'lim olishi shartmi? Bu savolga muallif o'z maqolasida yechim topgan. Ya'ni inson umri davomida ta'lim olishi kerak degan g'oya atrofida fikr yuritgan.

Musaxon QAMBAROV,

Namangan Davlat universiteti o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA “USTOZ-SHOGIRD” TIZIMINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishni innovatsion muhit sharoitida amalga oshirish bilan bog'liq masalalar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, kasbiy ta'lim tizimida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish usullari va vositalari, shart-sharoitlari, ta'sir etuvchi omillar tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion faoliyat, mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash, intellektual qobiliyat, tahlil, baholash, psixologik adaptatsiya, ijodiy jarayon, “ustoz-shogird” tizimi.

Статье изложены вопросы формирования самостоятельного мышления у будущих учителей в инновационных условиях. Представлена классификация методов, средств, условий, факторов воздействия на культуру самостоятельного мышления в системе образования.

Ключевые слова. Инновационная деятельность, логическое мышление, самостоятельное мышление, интеллектуальная способность, анализ, оценивание, психологическая адаптация, творческий процесс, профессиональная культура, система “Наставник-ученик”.


The article highlights issues related to development of future teachers' independent thinking in innovative atmosphere. It provides classification of methods, means, conditions, factors which influence the culture of independent thinking in education system.

Key words. Innovative activity, logical thinking, independent thinking, intellectual ability, analysis, assessment, psychological adaptation, creative process, professional culture, “Master-apprentice” system.

Ma'lumki, har bir kasbning yo'nalishi alohida yondashuvni va kasbiy faoliyatning u yoki bu funksional vazifasiga ko'ra maxsus shakllanishini talab qiladi. Pedagogik faoliyat o'qituvchi-mutaxassisning mustaqil fikrlash madaniyatiga alohida talablar qo'yadi. Negaki, pedagogning mustaqil fikrlash darajasi o'quvchi va talabalarning ham mustaqil fikrlashini yuzaga keltiradigan asosiy omildir.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarning mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishiga qaratilgan faoliyat.

Bilamizki, “innovatsiya” – yangilik va uni muayyan jarayonga olib kirish, tatbiq etish ma'nosini anglatadi. Innovatsion muhitni yaratish orqali ilmiy izlanishlarga shart-sharoit yaratiladi.



"Ustoz-shogird" tizimida talabalar ilmiy faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun barcha bo'g'inlardagi ishlarni takomillashtirish hamda ijodiy va innovatsion muhit yaratish talab etiladi.

Ilmiy seminarlarga talabalarni jalb etish – "ustoz-shogird" tizimidagi ishlar va talabalar ilmiy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Ilmiy seminarlar faoliyatiga jalb etilgan talabalar xilma-xil mavzulardagi ilmiy-nazariy ma'ruzalarni tinglab, o'qituvchilar bilan ilmiy muloqotga kirishadilar. Bunday jarayonlar ta'sirida talabalarning iqtidori, fikrlash salohiyati, bilim va malakalari takomillashadi. O'zi tanlagan hamda ilmiy kuzatishlar olib borayotgan mavzusi bo'yicha ma'ruza qilish imkoniyati unda mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi, o'z qarashlarini ilmiy jamoatchilik hukmiga, e'tiboriga taqdim etish davomida ilmiy ijodiy tafakkuri takomillashadi; fikrlarini asoslash, dalillash malakasi tarkib topadi, ilmiy izlanishlari haqidagi ustozlar fikrini tinglaydi, kamchiliklarini tasavvur qiladi, rag'batlantiriladi.

Mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda talabalar nazariy ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirish, bilimlarini muntazam boyitib borish va mukammallashtirish, shuningdek, mustaqil ta'lim usullarini egallash muhim o'rin tutadi. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion muhitni tashkil etishni taqozo etadi.

Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman, ta'lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do'stona sharoit tug'diriladiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi. Jamoada ichki intilish, moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada aks etadi. Bunday muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga tayyor bo'ladi. Aks holda, ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Talabadan ta'lim jarayonini bo'lajak ish faoliyatiga solishtirish va o'xshashliklar topa bilish talab qilinadi. Deylik, muammoli holat asosida ishlaydigan rivojlantiruvchi ta'lim metodi kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan masalalarga o'xshaydi. Biroq kasbiy masaladan farqli o'laroq, o'quv masalasi yechimiga aniq yo'l bilan borilmaydi. Bir-biriga o'xshash bo'lgan masalalarning barchasi uchun bitta umumiy yechim izlanadi.

Bunday yechim o'quv shartlarini tushunish, tahlil qilish, uning umumiy qirralarini aniqlab, xususiy munosabat keltirib chiqarish, qarashlarni yaxlit obyektga yo'naltirish jarayonida fikran o'rganilayotgan obyekt tasvirini yaratishning umumiy usulidan iboratdir. Bunday analitik-sintetik jarayon pedagog va o'quvchi orasida subyektiv munosabat paydo qiladi. Subyektiv munosabat esa, mustaqil fikrlash madaniyati rivojini protsessual jihatdan ta'minlab, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tayyorgarlik bosqichi – mashg'ulot maqsadini, o'qitish usuli va shakllarini aniqlash, o'quv materiali mazmunini tanlash va bir tizimga solish, amaliy ko'nikma shakllanishiga yo'naltirilgan mustaqil ishlar, savol-topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va h.k.;
- o'qitishni tashkil etish – tashkiliy, kommunikativ, diagnostik faoliyat vositasida umumkasbiy fanlar mazmunini o'rganish; mavzular yuzasidan murakkablik darajasi turlicha bo'lgan masala-topshiriqlarni bajarish; o'quvchining o'qituvchi va guruhidagi o'rtoqlari bilan hamkorlik qilishiga erishish va h.k.;
- analitik baholash – o'qitish natijalarini tahlil qilish, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash.

Ko'rinadiki, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy ta'minoti talaba shaxsining integrativ pedagogik va ijtimoiy-madaniy komponentidir. U qarashlar dialogida faol o'qitish muhitini yaratadi, sermahsul ijodiy muloqotni ko'zda tutadi.

Shunga asoslanib aytish mumkinki, majburiy ta'lim bosqichi hisoblangan umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bosqichlarida mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllantirilib, bu fazilat ma'lum darajada malakaga aylanib ulgurgan yoshlar oliy ta'lim muassasalariga o'z fikri va qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida keladilar. Mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lish – mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lish demakdir.

Oliy ta'lim tizimida, xususan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy, amaliy muammolarni hal qilishda ular qaror topib ulgurgan fikr shakllari, tiplari va usullarini maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llab, mustaqil fikrlash jarayonini yo'lga qo'yish bo'lajak mutaxassisda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning asosini tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalari sharoitida mustaqil fikrlash madaniyatining namoyon bo'lish mezonlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- intellektual qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy psixologik jarayonlar yuzasidan o'zining shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarini bilish;
- fikriy faoliyat jarayonlari va usullarni egallaganlik darajasi hamda ularni o'quv-biluv faoliyatida qo'llay olish;
- fikrni rivojlantirish usullarini har qanday sharoitda amalga oshira bilish;
- yuqori darajada shakllangan fikr turlaridan foydalana bilish;
- fikr sifatlarining holati va dinamik o'sib borishi (mustaqillik, teranlik, tanqidiylik, moslanuvchanlik, izchillik, tezkorlik va boshqalar)ni ta'minlash.

Bo'lajak mutaxassisning ta'lim sharoitlarida bilish va amaliy faoliyati tizimida mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanish jarayoni diskret, emotsional va irodaviy komponentlar bilan uzluksiz bog'langan. Ya'ni shaxs fikriy faoliyatining psixologik namoyon bo'lishi faqat tahliliy jarayonlarning o'zi bilangina cheklanib qolmaydi.

Bo'lajak o'qituvchining mustaqil fikrlash madaniyati nutq madaniyati bilan uzviy bog'liq. Nutqning rivojlanganlik darajasi fikrning rivojlanganlik sifatini namoyon etadi. Mustaqil fikrlash madaniyatining paydo bo'lishi shaxsning bilish va amaliy faoliyatining motivatsiyali, emotsional va irodaviy unsurlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Kasbiy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislar mustaqil fikrlash madaniyatining samarali rivojlanish jarayoniga doir shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-psixologik adaptatsiya (talabalarining jamoaga – o'quv guruhi, kursi, fakultetga moslashuvi va ular bilan o'zaro munosabati);
- shaxsning bilish va emotsional-irodaviy doiralarining rivojlanishi (fikriy faoliyatning, atrof-muhit va ijtimoiy muhit ta'sirlarini emotsional-irodaviy qabul qilishning murakkablashuvi);
- shaxsning yo'nalganligi (ehtiyollar, motivlar, dunyoqarash, shaxs hayoti va faoliyat maqsadlari), xarakter va qobiliyatlarning rivojlanishi;
- shaxs faoliyatining maqsad qo'yish qobiliyati, jarayonlar va usullarni ishlab chiqish, amallarni rejalashtirish, motiv va maqsad orasidagi munosabatni o'z ixtiyoriga ko'ra o'rnatish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zlashtirish singarilarda namoyon bo'ladigan psixologik tuzilmasining rivojlanishi.

Mustaqil fikrlash madaniyati tushunchasining tarixan boyib borishini olimlar shaxs va jamiyat rivojlanishiga mos beshta asosiy bosqich bilan bog'lab ko'rsatadilar: ibtidoiy, qadimgi (yoki antik), o'rta asrlar, yangi tarix va hozirgi zamon.

Dastlab shaxsning fikrlash sxemasi olamning umumiy yaralish manzarasida berilar edi. Ibtidoiy jamiyatda fikr shaxsning xulqi, qabilaning turmush tarziga muvofiq ravishda afsonaviy ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Zamonaviy ta'lim tamoyillarida esa, ta'limning aniq, tarixiy tajribaga tayanuvchi me'yoriy asoslari o'z ifodasini topgan. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialining mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Yana shuni ham ta'kidlash o'rinliki, mustaqil fikrlash madaniyati tushunchasi zamirida mustaqil fikrlash ko'nikmasi tushunchasidan farqli o'laroq, insonga xos bo'lgan tafakkurning mazmundorligi, faolligi, tanqidiyligi, ratsionalligi, originalligi, mustaqilligi fikrning elastikligi singari xususiyatlar yotadi.

Xulosa o'rinda mustaqil fikrlash madaniyatining bu kabi sifatlarini quyidagicha sharhlash mumkin:

- inson tafakkurining mazmundorligi shaxsning muammo mohiyatiga kirib borishi, asosiy va ikkinchi darajali masalani ajrata bilish qobiliyatida namoyon bo'ladi;

- fikrning elastikligi (moslashuvchanligi) shaxsning o'z fikrlash faoliyatida bir usuldan ikkinchisiga oson o'tishi, ya'ni faoliyat usulini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartira olish qobiliyatida nazarga tashlanadi;

- tafakkurning faolligi muammoni hal etishga qaratilgan tirishqoqlikning mavjudligida ko'rinadi;

- fikrlash jarayonining tanqidiyligi muammoni hal etishda faoliyat usulining to'g'ri tanlanganligi, faoliyatni boshqara bilish hamda unda me'yorni saqlash va erishilgan natijaning qanchalik to'g'riligida ko'zga tashlanadi;

- ratsional fikrlash, turli usullarni taqqoslash qobiliyati muammoni hal etishda kam vaqt sarflab, ko'p samara beradigan usullarni topa olishida namoyon bo'ladi;

- original fikrlash qobiliyati qo'yilgan muammoni mutlaqo yangi usullardan foydalangan holda hal etishdadir. U ko'pincha fikrlashning teranligi natijasida namoyon bo'ladi;

- fikrlashning mustaqilligi muammoning yechimini o'zgalar yordamisiz mustaqil topa olish, faoliyatning oraliq va oxirgi natijalarini ko'ra bilishda, fikr-mulohazalarning mustaqil, erkin va asosililigida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi: – T.: Ma'naviyat, 2006.*

2. Ahlidinov R. Sh. *O'zbekistonda ta'limni boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. – T., 2000. № 3-6. 5-93-b.*

3. Подласий И. П. *Педагогика. – М., Высшая образования, 2008.*

4. Крышова Н. Б. *Формирование культуры будущего специалиста: Методическое пособие. – М., Высшая школа, 1990.*

Sarvar SOBIROV,

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 298-maktab o'qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASINING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at fanini o'qitish muammolari hamda ta'limning tashkiliy masalalari bayon etilgan. Shuningdek, muallif tasviriy san'at fanini o'qitishda Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini asos qilib olib, mazkur vazifalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator takliflarni berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ta'lim, tasviriy san'at, metodika, o'quvchi, estetik tarbiya, ijod, dars, ajdodlar me'rosi, muammo.

В статье изложены проблемы обучения изобразительному искусству и организационные вопросы обучения в системе непрерывного образования. На примере изучения фактов жизни и творчества Камалиддина Бегзода при обучении изобразительному искусству, автор даёт рекомендации по эффективному обучению предмету.

Ключевые слова. Непрерывное образование, изобразительное искусство, методика, ученик, эстетическое воспитание, творчество, наследие предков, проблема.

The article describes problems of teaching visual arts and organizational issues in the system of continuous education. However, taking as a basis the life and work of Kamaliddin Begzod in teaching fine arts, the author puts forward some suggestions on the implementation of these tasks.

Key words. Lifelong learning, art, technique, student, aesthetic education, art, heritage of their ancestors, the problem.

Respublikamizning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirishni talab qiladi. Buning uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularni uzluksiz ta'lim jarayonida bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bunday murakkab ijtimoiy vazifani hal etishda boshqa fanlar qatori ilmiy asosga qurilgan tasviriy san'at fani zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Tasviriy san'atni o'qitishning birlamchi asosi dars hisoblanadi. Bu o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- estetik tarbiya beruvchi;
- estetik tarbiya oluvchi;
- dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma;
- didaktik materiallar;
- pedagogik usul va uslublar;

– o'qitishning texnik vositalari.

Darsning bu besh qismi o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni tasviriy san'at darsini tashkil qiladi. Birining mavjudligi boshqasining mavjudligini taqozo etib, birining yo'q bo'lishi, boshqa barcha qismlarning faoliyatini yo'qqa chiqaradi. Bu qismlarning har biri, o'z navbatida, bir butunlik (majmua) bo'lib, bir necha qismlardan tashkil topgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishning metodikasini amalga oshiruvchi darsni bir butun qilib turuvchi qismlar tasnifini tasviriy san'atni o'qitishdan boshlashimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlarida estetik tarbiya beruvchi, avval ham aytib o'tganimizdek, turlicha atalib, murabbiy, ustoz, o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, professor va ma'ruzachi deb yuritiladi. Bularning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan dastur asosida darsni tashkil etish va ishchi rejada ko'rsatilgan bilimlarni, ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator tasviriy san'atni o'qitishning metodikasi va texnik vositalaridan foydalanib yetkazib berishdir.

O'rta Osiyo tarixiga nazar solar ekanmiz, eramizdan avvalgi minginchi yillarda Zardushtiylilik otashxona-ibodatxonalarida kohinlar tomonidan yoshlarni to'plab, bilim berganliklari “Avesto” va boshqa tarixiy manbalardan bizga ma'lum. Ammo qadimgi davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Farobiy “Fan va aql-zakovat” asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Bu masalalar Mirzo Ulug'bek davrida ham ko'tarilib, ma'lum darajada amalga oshirilgan. Hozirda tasviriy va asosiy san'at sohasidagi mutaxassislik fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitishni taqozo etmoqda.

Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Yassaviy, Zamaxshariy, Ulug'bek, Bobur, Navoiy kabi o'nlab ajdodlarimizning meditsina, matematika, geodeziya, geografiya, astronomiya, falsafa, adabiyot va san'at sohasida yaratgan buyuk asarlari allaqachon umuminsoniy qadriyat sifatida butun jahonda e'tirof etilgan. Shunday daholar ichida Sharq musavvirlarining peshvosi, sharqona tasviriy san'atni badiiy mukammallik borasida yuqori pog'onasini egallagan Kamoliddin Behzodning ham munosib o'rni bor. U nafaqat Sharq, balki jahon tasviriy san'ati rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan. Behzod asarlari bugungi kunda ham millionlab tasviriy san'at ixlosmandlariga badiiy-estetik zavq bag'ishlab kelmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishda misol tariqasida Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o'rganishni nazarda tutamiz. Mustaqillik davrida xalqimiz o'zining milliy qadriyatlarida jahon ilmu-fani, madaniyati, san'atida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarini bilish imkoniga ega bo'ldi.

Ana shundaylardan biri Sharq Renessansining buyuk vakillaridan naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod edi. U jahon tasviriy san'ati, xususan, kitob bezagi sohasida, portret, manzara, maishiy, tarixiy janrlarda yuksak g'oyaviy, badiiy saviyada shunday asarlar yaratdiki, ularni jahonning ko'plab mamlakatlarida sevib o'rganilmoqda, uning hayoti va ijodi borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirda Behzod asarlari Berlindagi Milliy kutubxona, AQShdagi Boston kutubxonasi, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shcherdin nomli kutubxona, Erondagi Guliston saroyi kutubxonalari, Misr Arab Respublikasining Qohira, Londondagi Britaniya, Fransiyaning Luvr muzeylarida

saqlanmoqda. Behzodning zamondoshlari va undan keyingi tarixchi olimlarning Kamoliddin Behzodni “Sharq Rafaeli”, “Nafis va nozik iste’dodga ega rassom”, “Rangtasvirchilar uchun namuna”, “Ikkinchi Moniy” deb tariflaganlari bejiz emas. Bu fikrlardan shu narsa ma’lum bo’lib turibdiki, Kamoliddin Behzod ijodi jahon xalqlarining umuminsoniy qadriyatlariga, umumxalq merosiga aylanib bo’lgan.

Shuning uchun ham Behzod hayoti va ijodi barcha xalqlarning ta’lim tizimida joy olishi, yosh avlodni badiiy va axloqiy madaniyatini yuksaltirishga, san’at asarlarini o’rganishga, bo’lg’usi rassomlarni kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Bizning kuzatishlarimiz va tadqiqotlarimiz shuni ko’rsatadiki, Kamoliddin Behzodning ta’lim muassasalarida hayoti va ijodini o’rganish borasida O’zbekistonning mustaqillik yillarida ma’lum miqdorda ijobiy o’zgarishlar ro’y bermoqda.

Respublikamizning ayrim maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rta ta’lim maktablari, litsey va kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida uning hayoti va ijodi o’rganilmoqda. Avvalo, bu muammo barcha ta’lim-tarbiya muassasalarida bir xil mazmunda va bir xil saviyada o’rganilyapti, deb bo’lmaydi. Bir joyda uning hayoti va ijodiga bir soat, boshqasiga ko’proq vaqt ajratilmoqda. Bunga Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga doir materiallarning kamligi, uni ta’lim tizimida o’rganishga doir ilmiy-metodik ishlanmalar, tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligidandir. Shuningdek, musavvir hayoti va ijodini o’rganish tizimining yo’qligi ham bu muammoning yechimini ma’lum miqdorda murakkablashtirmoqda. Yana shuni ham aytilish joizki, mazkur tizimni ishlab chiqilmaganligi, musavvir hayoti va ijodini o’rganishda bir qator salbiy hollarni keltirib chiqarmoqda. Umumiy o’rta ta’lim maktablari, o’rta va oliy ta’lim muassasalarida Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o’rganishga yetarlicha e’tibor berilmayotganligini bildiradi. Bu esa buyuk ajdodlarimizni talablar darajasida bilish, o’rganish uchun qat’iy ishlab chiqilgan tizim bo’lishi lozimligini taqozo etmoqda.

Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini ta’lim tizimida o’rganish ikki yo’nalishda amalga oshiriladi.

1. Ommaviy badiiy ta’lim yo’nalishida. Bunda maktabgacha ta’lim muassasalari va umumiy o’rta ta’lim maktablarida amalga oshiriladigan mashg’ulotlar nazarda tutiladi.

2. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining darsdan tashqari ishlari, tasviriy san’atni chuqur o’rgatadigan maktab va sinflar, maktabdan tashqari qo’shimcha ta’lim muassasalari, maxsus badiiy ta’lim muassasalaridan (litsey, kollej, bakalavriat, magistratura, doktorantura) iborat.

Birinchi yo’nalish, bolalar va yoshlarga elementlar – umumiy bilimlar berishni nazarda tutsa, ikkinchi yo’nalish esa, ta’lim muassasasining yo’nalishdan kelib chiqqan holda Behzod ijodi bilan chuqurroq tanishtirishni maqsad qilib qo’yadi.

Behzod hayoti va ijodini o’rganishda uning quyidagi shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: ma’ruzalar, suhbat, davra suhbatlari, tanlovlar, ko’rgazmalar, insholar yozish, musavvir minatyurlaridan ko’chirish, kechalar o’tkazish, mustaqil ishlar va h.k. Bu ishlar bolalar va yoshlarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, ta’lim muassasalarining o’ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Behzod hayoti va ijodini quyidagi ketma-ketlikda o’rganish samaralidir:

- Behzodning ayrim, mazmunan sodda asarlari bilan tanishtirish;
- uning hayoti va ayrim asarlarini o’rganish;
- tasviriy san’at darslarida Behzod obrazi bilan tanishtirish;
- rassom hayotidan lavhalarni hikoya qilish;
- ijodida mavzu va mazmun masalalari;

– ijodidagi tasviriy san'at janrlarini (portret, manzara, maishiy, tarixiy, animal v.b.) o'rganish;

- asarlarida kompozitsiya, rang masalalari;
- Behzod ijodida planlilik;
- g'oya va uning ifodalanishi;
- asarlarini chuqur tahlil qilish;
- asarlaridan namunalar ko'chirish;
- naqqoshlik san'ati maktabini o'rganish;
- mutafakkirning jahon tasviriy san'ati rivojiga qo'shgan hisssasi; Behzod va Navoiy;
- Behzod ijodining pedagogik ahamiyati shular jumlasidandir.

Musavvirning hayoti va ijodini ma'lum bir tizim asosida o'rganishda quyidagi prinsiplarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

- bolalar va yoshlarning yosh xususiyatlari;
- ta'lim-tarbiya muassasasining xarakteri;
- bolalar va yoshlarning Behzod hayoti va ijodidan xabardorlik darajalari;
- ularning mavzuga qiziqishlari.

K. Behzod ijodini ta'lim tizimida maqsadga muvofiq o'rganish uchun uning asarlarini to'g'ri tanlash ahamiyatlidir. Bu masalada ham eng muhimi ta'lim muassasasining xarakteri, bolaning va o'quvchining yosh xususiyatlari, asarlar mazmunining bolalarga yaqinligi e'tiborga olinadi. Materiallarning ta'lim muassasalarining dasturi bilan bog'liq bo'lishligi hamda ularning g'oyaviyligi va badiiylik darajasi, asarlarni bolalar va yoshlarda qiziqish uyg'otishi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodini o'rganish tizimining ishlab chiqilishi yoshlarga o'z xalqining bebaho xazinasini, tarixi, madaniyatini puxta bilib olish imkonini beradi. Behzod asarlari yoshlarimizni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bo'lg'usi rassomlar va rassom-o'qituvchilar uchun esa, uning ijodi namuna vazifasini o'taydi. Eng muhimi u yoshlarimizda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Istiqlol va ma'naviyat*. – T.: O'zbekiston, 1994.
2. Ziyomuhhammadov B. *Pedagogika*. – T.: Tayme, 2006.
3. Xasanov R., Nurtayev O'. *Tasviriy san'at o'qitish metodikasi*. – T.: TDPU, 2005.

Ne'mat MANSUROV,
Shaxnoza NAZIRBEKOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchilari

RANGTASVIR MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rangtasvir san'atini yanada mukammal o'zlashtirishning zarur imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Xususan, rang tasvir mukammaligini ta'minlashga xizmat qiladigan qalam tasvirga ong fikrlar maqolaning ahamiyatini yanada oshirgan.

Kalit so'zlar. Tasvir, naqsh, yodgorlik, qadriyat, kasb, qalamtasvir, kompozitsiya, dizayn, demonstratsiya, soya-yorug', jism, manzara, fantaziya, ustaxona.

Данная статья рассматривает возможности необходимые для более эффективного усвоения искусства живописи. В частности раскрыто значение обучения графическим изображениям, позволяющим освоить более сложное искусство живописи красками.

Ключевые слова. Изображение, узор, мемориал, ценность, профессия, графические изображения, композиция, дизайн, демонстрация, тень-свет, фигура, пейзаж, фантазия, мастерская.

The article considers facilities required for more efficient assimilation of the pictorial arts.

Key words. Picture, pattern, memorial, value, profession, drawing, composition, design, demonstration, shadow-light, figure, scenery, fantasy, workshop.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy ijodiy mashg'ulotlarda yaxshi darsning oddiy darsdan farq qilinishining birinchi omili – dars jarayonida har bir o'quvchi-talaba uchun fanga doir muhit yaratish sanaladi. Aynan, uzluksiz ta'limda kasbiy ijodiy fan – tasviriy san'atning rangtasvir mashg'ulotlari bosqichma-bosqich, uzluksiz tizim asosida o'rganib boriladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga taqlid qilish yo'li orqali egallashgan. Tasvirlashga o'rgatish neolit davriga kelib vujudga keldi, ya'ni dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish yanada rivojlana bordi.

“Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avvalo, sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu tariqa tasvirlashning dastlabki metodlari yuzaga keldi. Endi shogird hunarmand-ustozining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib, undan yo'l-yo'riqlar o'rgandi. Chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarni davom ettirishda muhim o'rin tutgan edi”.¹

Xususan, rangtasvir darslari tasviriy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rsatiladigan joylar – muzey, ko'rgazma zallari, shuningdek, madaniy markazlar kabi joylarda o'rga-

¹ Boymetov B. Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. – T., 1995. 8-b.

nilsa, o'quvchi-talabalar bilim va malakalarini haqqoniy shakllanishida katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda kichik misol keltirishni lozim topdik. Masalan, Gretsiya (Yunon) san'atini o'rganish jarayonida Yakkasaroy tumanida joylashgan Grek madaniy markaziga ekskursiya uyushtirib, haqiqiy grek tilini tinglash bilan bir qatorda ushbu dargohdagi Gretsiya xalqining tarixi, madaniyati va san'atiga doir videomateriallarni tomosha qilish yoshlar xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Psixologiya fanidan bizga ma'lumki, insonlarning his qilish qobiliyati uch toifaga bo'linadi. Birinchisi – vizual (ko'rib eslab qolish qobiliyati), ikkinchisi – audial (tinglash bilan bog'liq qobiliyat), uchinchisi esa – kinestetik (ushlab ko'rish). Lekin shaxsda yuqorida aytib o'tilgan qobiliyatlar ko'pincha aralash ravishda uchraydi. Biri ko'proq, biri esa kamroq tarzda. Shunga qaramay, asosi nazariyadan tashkil topgan fanlar (Dizayn tarixi, Rangshunoslik, Kostyum tarixi, Kompozitsiya asoslari, Kasb ta'limi san'at o'qitish metodikasi) ni chuqurroq egallash uchun vizual qobiliyat katta e'tiborga ega, negaki, ko'rib (demonstratsiya, master klass, videotasmalar) egallangan bilimning 80 foizi eslab qolinadi. Audio (ma'ruza) tarzidagi ma'lumotni eslab qolish faqatgina 20 foizni tashkil etadi.

Atrof-muhitdagi jismlarning materiallik sifatlarini ko'rishda bizning ongimiz faqatgina uning rangi va yorug'-soyasining xarakterigagina emas, balki tus va rang munosabatlari (farqlari)ni ham sezish qobiliyatiga ega. Agarda soya-yorug' holati, rang va tus munosabatlari qo'yilmaning obrazli ko'rinishiga mos bo'lsa, biz natyurmortdagi buyumlar yoki manzara obyektlarining ko'rinishlaridagi materiallik xususiyatlarini haqqoniy ko'rsata olamiz.

Professor A.S. Korolev bu masala to'g'risida quyidagicha fikr bildirgan: "Rangtasvir – bu shaklning mustahkamligi, hajmliligi, materialliligi, havoilyigi – bularning hammasini biz qadrlaymiz, rangtasvir asarida haqqoniy qalamtasvir, rang va tus munosabatlarining nihoyatda to'g'ri olinishi asarning yuqori saviyada bajarilganligidan dalolat beradi"².

Endi asosida amaliy mashg'ulotlar bo'lgan fanlarga (rangtasvir, chizmatasvir, loyihalash, nusxa ko'chirish va b.) kelsak, o'qituvchi talabalar bilan bir qatorda navbatdagi darsga qo'yilgan maqsadni yechishi shartdir. Buni quyidagi misol bilan tasdiqlashimiz mumkin.

Uyg'onish davrining Andrea Verokkio maktabi (ushbu dargoh Lorentso Di Kredi, Sandro Bottichelli, Leonardo da Vinchi kabi rassomlarni yetishtirgan)ning asosiy qonun-qoidalar quyidagilardan iborat bo'lgan:

- har bir tahsil olayotgan bo'lajak rassom qo'liga mo'yqalam olishdan avval, bo'yoqlar tayyorlashni o'rgangan va o'quv dargohi ko'p yillarga uning uyiga aylangan;

- birinchi kundanoq yosh o'quvchi kelajakda tasviriy san'at ustasi bo'lib yetishishga moslangan muhitga kirib borgan;

- ilk kunlardanoq uning ko'z oldida ustozining navbatdagi tasviriy san'at asarini yaratish jarayoni gavdalanardi.

Kuzatuvchanlik rassomning zarur xususiyati sanaladi, buning yordamida rassom va chizish obyekti o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Qo'l harakatlarini ko'rish bilan uzviylikda uzoq muddat takrorlaganda, "inson qo'li – ko'zi" aloqasi mustahkamlanadi, vaqt o'tishi bilan

² Молева Н.М. Выдающиеся русские художники-педагоги. – М.: Просвещение, 1991. – С.95.

harakatlar avtomatlashadi. Rasm chizish “ko‘z – miya – qo‘l” o‘zaro aloqasini talab etadi yoki mashhur rassom-pedagog P.P. Chistyakov ta‘biri bilan aytganda, “Rasm chizish – bu fikrlash”.

Berlinlik pedagog Petr Shmidtning “rasm chizish nafaqat qo‘lning mexanik mashq qilishi, balki u aql uchun gimnastika hamdir, qolaversa, kuzatuvchanlik ham, shaklni umumiy his qilishi ham, fantaziyasi ham rivojlanadi” degan so‘zlariga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q.³

Rangtasvir mukammalligi qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o‘tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tasvirlovchi shaxs ma‘lum bir narsalar to‘plamiga (masalan, natyurmort) muayyan bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va u ko‘z qarashiga qat‘iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘zaro yoritilganligi va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular oralig‘ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug‘liklar taqsimoti ma‘lum bir tartibda bo‘ladi. Mabodo ko‘rish nuqtasi o‘zgartirilsa, naturaning o‘zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rish nuqtasi yorug‘likka qarama-qarshi bo‘lganda tasvirni siluet tarzida ko‘rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to‘plamdagi barcha narsalar, ularning o‘zaro joylashuvi soya-yorug‘ va tus munosabatlarining obrazli ko‘rinishiga buysundiriladi va idrok qilinadi.

Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog‘liq. Naturaga nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varag‘i yoki mato qanday o‘lchamda bo‘lishligini aniqlash zarur. Qog‘oz varag‘ida ifodalanadigan natyurmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab, tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog‘oz varag‘i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat‘iy rioya qilish samarali natija garovi sanaladi.

O‘qituvchining dars jarayonida yangi san‘at asari ustida ishlashi ikki tarafga, ya‘ni o‘ziga va o‘quvchi talabaga ham foyda keltiradi. Masalan, qalamtasvir yoki rangtasvir darslarida, o‘quvchilar bir tarafdin bilimi yetmaganligi, ikkinchi tarafdin o‘qituvchi yetarlicha tushuntirmaganligi tufayli, rasm chizayotgan talaba o‘zining asariga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi va uning ishi to‘xtab qoladi. Ushbu muammoni bartaraf etishda aynan ustoz yaratayotgan asar yordam berishi mumkin. O‘quvchi o‘qituvchisidan yordam so‘ramagan holda, oldida turgan muammoning yechimini ko‘proq tajribaga ega ustozlari ishlagan asaridan topishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N.U. *San‘at tarixi - 2/1. – T.: San‘at, 2001.*
2. Azimova B.Z., Rajapov R., Abdirasilov S.F. *Tasviriy san‘atga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T., 1994.*
3. Boymetov B. *Qalamtasvir o‘qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. – T., 1995.*
4. Молева Н.М. *Выдающиеся русские художники-педагоги. – М.: Просвещение, 1991. – С. 95.*

³ Молева Н.М. *Выдающиеся русские художники-педагоги. – М.: Просвещение, 1991. – С. 95.*

Sanobar AZIMOVA,

Namangan viloyati Norin tumani

10-maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGICHA YONDASHUVNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha tarbiya, sog'lom bola, innovatsion pedagogik texnologiyalar, milliy qadriyatlar, jarayon, mezon.

В статье автор рассуждает о недопустимости возникновения нравственной пустоты в сознании воспитанников дошкольных учреждений, об их воспитании в духе любви и преданности Родине, о задачах воспитания совершенного поколения, которое будет служить и трудиться на благо и процветание нашей Родины.

Ключевые слова. Дошкольное воспитание, здоровый ребёнок, инновационные педагогические технологии, национальные ценности, процесс, критерий.

The author discusses problems of barring moral void in the minds of preschool children, their upbringing in the spirit of love and devotion to the Motherland, the tasks of growing perfect offspring, who will serve and work for the benefit and prosperity of our country.

Key words. Pre-school education, healthy child, innovative educational technology, national values, the process criterion.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlashtiruvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom", "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" va shu kabi ko'plab hujjatlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida O'zbekistonda noyob uzluksiz ta'lim tizimi barpo etildi. Mana shunday bir sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarga o'zining mukammal bilimi bilan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bosh maqsadlarning biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, "Bolaning xarakterini, tabiati va dunyo qarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik

va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”¹.

Shunday ekan, biz oiladan boshlab bolalarga Vatan oldidagi burchi, ota-ona oldidagi vazifasi, odamiylik fazilatlarini o’rgatishni e’tiborga oladigan bo’lsak, ana shu davrda uning qalbida oiladagi va maktabgacha ta’lim muassasasidagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo’la boshlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko’ra, ta’limning poydevori qo’yiladigan dastlabki bo’g’ini maktabgacha ta’lim – bolani sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning ongida g’oyaviy bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo’lidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha jabhalarini qamrab olishi zarur bo’lib, mazkur ta’lim-tarbiya jarayonlarida o’rganilayotgan tushunchalarga, hodisa yoki voqelikka nisbatan tarbiyalanuvchilarning qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda ularning faolligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimizning “Ta’lim O’zbekiston xalqi uchun yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O’sib kelayotgan yosh avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo’ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o’tadi. O’qituvchining bilimi, pedagogik mahorati qizg’in mehnati barkamol avlodni tarbiyalashga, ularda tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik xislatlarini va ma’naviy ongini shakllantirishga qaratilgan”² degan so’zlari bejiz aytilmagan. Ayni paytda maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachisining mustaqil ravishda bilim egallab, o’z ustida tinimsiz ish olib borishi bugungi kunning kechiktirilib bo’lmaydigan talablaridan biridir.

Bog’cha yoshidagi bolalar juda sinchkov va qiziquvchan. Ular ko’p savol berishadi va hamma narsani bilishni xohlaydi, ba’zida ularning savollariga javob topish mushkul bo’lib qoladi. Tarbiyachi esa bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh jihatlari e’tiborga olgan holda osoyishta javob berishi lozim. Bolalarning bunday qiziquvchanligi yaxshi, albatta, chunki bola ulg’aymoqda va u o’zining bilimlari natijasida yangi olamni yaratayapti.

Maktabgacha ta’lim muassasasi bolada o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Mazkur tizimda tarbiyani rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlarning biri zamonaviy o’quv qo’llanmalar, texnik vositalar, o’yinchoqlar va o’yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarishdir.

O’qitish jarayonining samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim ahamiyatga egaligini esdan chiqarmaslik zarur. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o’ziga xosligi shundaki, ular tarbiyachi va bolalarning o’zaro muloqoti hamda bir-birlari bilan o’tkazilgan savol javoblari asnosida amalga oshiriladi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko’rinishidirki, uning yordamida insonlar bir-biri bilan o’zaro axborot almashadi, bir-biriga ta’sir o’tkazadi, bir-birini his qiladi va bir-birini tushunadi. Innovatsion texnologiyalarni mukammal o’zlashtirish ularni dars jarayonida samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Tarbiyachilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko’rishlari lozim. Bu o’z navbatida, ta’limni rivojlantirishga qaratilgan rejalarni tuzishda asosiy e’tiborni tarbiyachilarning u

¹ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

² Karimov I. A. O’zbekistonning o’z istiqloq va taraqqiyot yo’li. – T.: O’zbekiston, 1992. 78-b.


yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish hamda tushuntirish ishlarini olib borishga qaratishlarini talab etadi. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya jarayonida ko'rgazmali harakat va ko'rgazmali obrazli tafakkur turlari ustuvor ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar salohiyatini rivojlantiruvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlar hamda rivojlantiruvchi o'yinlar shular jumlasidandir.

O'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kattalar tomonidan qo'llaniladigan samarali hamda ijobiy faoliyatlardan biridir. Ushbu jarayon bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. O'yin nafaqat bolada shakllangan bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi, balki bolaning faol bilish jarayonining o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda bola tarbiyachi rahbarligida yangi bilimlarga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida, bolaning maktabga tayyorlanish jarayoniga poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, didaktik o'yin o'ynash orqali bola bevosita bilim olishga kirishadi.

Didaktik o'yinlarda bilim jarayoni o'yinlar bilan bevosita bog'langan. Didaktik o'yin-bolani aqliy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ta'lim olishga yo'naltirilgan o'yinlar bolalarda ruhiy bilish jarayonlarini, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlarning muhim jihati bolalarning fikrlash faolligini, mustaqilligini va nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bolaning nutqini o'stirishda mazkur o'yinlardan foydalanilsa, samarali natija beradi.

O'yin davomida bola o'zining harakatlarini sharhlaydi, berilgan topshiriqni qanday bajarganligini yoki bu muammoli vaziyatdan qanday chiqib ketganligini gapirib beradi, kattalarning savoliga javob beradi, o'z tengdoshlari bilan muloqot qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur, nutq, muloqot xususiyatlarini shakllantirish, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini tabiiy ehtiyoj sifatida tarkib toptirish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi (chizma).



Maktabgacha ta'lim tizimidagi o'yinlarni uch turga bo'lish mumkin bular:

1. Didaktik.
2. Tarbiyaviy.
3. Rivojlantiruvchi o'yinlar.

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga ta'rbiviy ta'sir o'tkazish natijasida insonda o'z vaqtida o'zini anglash hissi vujudga keladi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Har qaysi davrda bolalar rivojlanishining o'ziga xos qulay holatidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Agar bola shug'ullanishni xohlamasa, unda uni qiziqtirish yo'llarini topish kerak. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bolalarning asosiy faoliyati o'yin bilan bog'liq, shuning uchun har bir mashg'ulot o'yin qoidalariga moslab tashkil qilinishi lozim. Ayniqsa, aqliy o'yinlarning maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi ijobiy natijalarni yuzaga chiqaradi.

Aqliy o'yinlar ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bolaning dunyoqarashini tubdan o'zgartiradi va ularni fikrlashga chorlaydi. Aqliy o'yinlar tarbiyalanuvchilarning tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini hamda o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini kengaytirishga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga, uni bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatini, nutq jarayonini, shu jumladan, aqliy tafakkurini rivojlantirib, olgan bilimlarini tartibga soladi. Bu kabi o'yinlarni olib borishda quyidagi talablarga rioya qilib borish zarur:

- tanlangan aqliy o'yinlar tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi;

- har bir aqliy o'yinlar pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo'lishi;
- bir xildagi o'yinlarni ko'p marta takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'yinning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlariga e'tiborni qaratish;
- o'yin yakunida g'olib chiqqan bolalarni rag'batlantirib borish.

Shu tariqa bolalar bilan olib boriladigan aqliy o'yinlar murakkablashib, barcha tartib-qoidalarga rioya qilib o'tkazilsa, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borishi shubhasizdir. Tarbiyachilar esa mashg'ulotlar, ko'ngilochar o'yinlar, didaktik va harakatli o'yinlardan hamda boshqa faoliyatlardan unumli foydalanishlari lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'inini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko'tarishga, bolalarimizni sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi. Biz maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari va xodimlarini o'z faoliyatimizga yanada jiddiy yondashishga undaydi. Zero, O'zbekiston kelajagi biz tarbiyalayotgan bolajonlarning yuksak kamoloti, aql-u zakovotiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. *O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li.* – T.: O'zbekiston, 1992. 78-b.
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.* 2016-yil 29-dekabr.
4. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari.* – T., 2000.

Gulsanam IBRAGIMOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI O'ZLASHTIRISH JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqola o'qituvchilarning amaliy faoliyati jarayonida shaxsiy tajribalari va kasbdoshlarining faoliyatini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi xususida. Shuningdek, muallif pedagoglarning kreativ faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, ta'lim jarayoni, ko'nikma va malakalar, ta'lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion jarayon, o'qituvchi, talaba, faoliyat, kreativlik.

В статье рассматриваются вопросы развития креативной деятельности студентов в системе высшего образования, обоснована важность креативности в деятельности учителя. Анализируются мнения ученых по развитию креативной деятельности.

Ключевые слова. Педагогика, образовательный процесс, навыки и умения, образовательная система, педагогические технологии, инновационный процесс, учитель, студент, деятельность, креативность.

The article considers issues of developing students' creativity at higher education institutions, proves the importance of teachers' creativeness at work. Stated the scholars' ideas on developing future teachers' creative activity.

Key words. Pedagogy, higher education institution, education process, skills, education system, pedagogical technology, innovative technology, future teachers.

Ilg'or pedagogik tajribalar va ta'lim nazariyasiga oid yutuqlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'qituvchining pedagogik faoliyatiga joriy etish uchun ko'plab tajribalar vujudga kelmoqda va to'planmoqda. Biroq kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilar va bo'lajak pedagoglarda amaliyotda mavjud bo'lgan tajribalarni o'zlashtirish ehtiyoji shakllanmagan. Mazkur tajribalarni tanlash va tahlil qilish ko'nikma va malakalari ham yetarlicha tarkib topmagan. Amaliy faoliyat jarayonida o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalari va kasbdoshlarining faoliyatlarini tahlil qilishga yetarlicha e'tibor qaratmayapti.

O'qituvchining pedagogik faoliyati ommaviy hamda ilg'or bo'lishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, ilg'or pedagogik tajribalar cheklanganlik xarakteriga ega. Shu bilan bir qatorda pedagogik tajribalar yangi elementlarga ham ega bo'lib, mazkur elementlar ta'lim amaliyoti va didaktika nazariyasini boyitish xususiyatiga ega. Ilg'or tajribalarni yaratish va hamkasblari orasida ommalashtirishda o'qituvchining mavqeyi alohida ahamiyatlidir. Shuning uchun ham muayyan tajribaning asosiy holatlari va ko'rsatkichlarini

amaliyotga kiritish hamda ommalashtirishda subyektiv omillarni alohida hisobga olish kerak. Shuningdek, uning variantlarini baholash va pedagogik jamoada tatbiq etish nihoyatda zarurdir. Tajribalarni kuzatish va o'zlashtirish jarayonida uning obyekti va yangi jihatlariga alohida e'tibor qaratgan holda amaliyotga joriy etish talab qilinmoqda. O'qituvchi yangi tajribani amalga oshirishda uning qimmatini hamda samaraligiga e'tibor qaratishi kerak.

Ilg'or pedagogik tajribalar ommaviy xarakter kasb etishi uchun o'qituvchi obyektiv pedagogik nazariyalarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Pedagogik tajribalarning turli-tumanligini novatorlik hamda tadqiqotchilik orqali ko'rish mumkin. Bunda o'qituvchi amaliy faoliyatdan nazariy tahlil va umumlashtirishga o'tadi. Bunday yondashuvlarda yurtimiz ta'lim tizimiga xos bo'lgan innovatsion qarashlar va usullar o'z ifodasini topadi¹.

O'qituvchi faoliyatining innovatsiyalarga yo'nalganligi psixologik pedagogik tadqiqotlar natijasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Zamonaviy axborotlarning o'z vaqtida ommalashmayotganligi tufayli mazkur yangiliklar pedagogik jamoatchilikka yetib bormayapti. Pedagogik tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilardan olingan natijalar bilan tanishtirish talab etiladi. O'qituvchilarning yangi tajribalarini ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishonirish hamda ularning tajribalarini qo'llash ehtiyoji vujudga keladi. Bu yangiliklar mutaxassislar tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminarlar va treninglar tashkil etish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo'lajak o'qituvchilarga esa turkum ma'ruzalar o'qish orqali yetkaziladi.

Shu munosabat bilan yangi pedagogik g'oyalar va texnologiyalarning ommalashtiruvchisi va targ'ibotchisi kimlar? degan savol tug'iladi. Alohida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tajribasini o'rganish, ommalashtirish oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, umumta'lim muassasalarida ishlaydigan ilg'or pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday guruhlarini tashkil etish zaruriyati bir qator holatlar bilan ifodalanadi.

1. Pedagogik yangilik muallifi muayyan pedagogik g'oya yoki yangilikning istiqboli haqida zarur ma'lumotlarni va aniq bahoni bera olmaydi.

2. Ilg'or o'qituvchilar har doim ham o'z g'oyalarini ommalashtirish haqida o'ylayvermaydilar. Chunki bu pedagogdan qo'shimcha vaqt, mehnatni talab qiladi.

3. Yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi.

4. Mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini bayon qilishda o'zlari va hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq holda to'siq-larga duch keladilar.

5. Ijodiy guruh o'z zimmasiga nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida o'qituvchilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish bo'lajak pedagoglarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasini ham oladi.

6. Ijodiy guruh a'zolari pedagogik monitoring o'tkazish, innovatsiyalarni tizimli tanlash, yangi g'oyalar, texnologiyalarni baholash, oliy o'quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi.

Tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarishda innovatsiya muallifining o'zi ishtirok etmaydi. Bunday yondashuv ijodkor o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi. Shu tariqa pedagogik innovatsiya-

¹ Karimova G., Azamatova N. Bo'lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari. "Xalq ta'limi" j. – T., 2006. 3-son. 54-57-b.

larni yaratuvchisi va ommalashtiruvchining quvvatlari bir nuqtaga jamlanib, ma'lum bir maqsadga yo'naltiriladi².

Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan o'lchovlariga ega. Pedagogik innovatsiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirishiga xizmat qiladigan o'lchovlari quyidagilardan iborat: innovatsion usullarning yangiligi, optimalligi, yuqori natija berishi ommaviy tajribada ijodiy qo'llash imkoniyatiga egaligi.

Innovatsion usullarning asosiy o'lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko'rsatishni xohlovchi o'qituvchilar uchun yangilikning asosiy mohiyati nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatga ega.

Agar bir o'qituvchi uchun o'tkazilayotgan tajriba yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun esa mazkur usul yangi bo'lmasligi ham mumkin. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Shunday ekan o'qituvchilar ham, bo'lajak pedagoglar ham innovatsion ijodiy faoliyatga ixtiyoriy tarzda o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kirishishlari lozim. Bu o'z navbatida ularning shaxsiy o'ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullarning yangiligi bir necha darajalarda namoyon bo'ladi. Bular:

- absolyut daraja;
- lokal-absolyut daraja;
- shartli daraja;
- subyektiv daraja.

Bu farqlar ularning qo'llanish sohasi va aniqlik darajasi bilan bog'liq.

Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'qituvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Bazi o'qituvchilar va o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'qituv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni kiritish asosida imkon qadar kam kuch va vaqt sarflagan holda yuqori samaradorlikka erishish hamda kafolatlangan natija olish nazarda tutiladi. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi.

Innovatsion usullarning o'lchovi o'qituvchi faoliyatida ijobiy natijalarga erishgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiya, kuzatuvchanlik, natijalarning payd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi.

Pedagogik yangiliklarni ommaviy tarzda amaliyotda qo'llash pedagogik innovatsiyalarni baholashning mezon sifatida talqin etiladi. Pedagogik amaliyotda mazkur g'oyalar va texnologiyalar tor, cheklangan darajadagi qo'llanish doirasiga ega bo'lib qoladi. Bu asosan o'qituv jarayonining texnik ta'minoti va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bunday vaziyatda pedagogik yangiliklar haqida fikr yuritish ahamiyatsizdir.

Ommaviy pedagogik tajribalarda pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, obyektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini

² Нишналияев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. – В сб. материалов научно-практической конференции “Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи”. – Алма-Ата: Респ. издат. каб. Казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. – С. 235-240.

beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi³.

Pedagogik innovatsiyalarni baholash jarayonida muayyan bilimlar va ulardan foydalanish mezonlarini bilish bo'lajak o'qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishda ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining tajribalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogik yangiliklarni amaliyotga joriy etishda sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Pedagogik innovatsiyalarning aksariyat qismi amaliyotga tatbiq etilmay qolayotganligining ikkita asosiy sababini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

1. Umumta'lim maktablariga kirib kelayotgan innovatsiyalar amalda zarur eksperti-za va tajriba-sinovlardan o'tmayapti.

2. Pedagogik yangiliklarni amaliyotga joriy etish tashkiliy, texnik, shaxsiy-psixologik jihatdan oldindan tayyorlanmayapti.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni va o'lchovlari haqidagi aniq tasavvur ularni qo'llash metodikasi bo'lajak o'qituvchilarning ongi va faoliyatiga singdirilishi birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda.

Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Buning uchun, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish talab etiladi. Oliy ta'lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltir-maslik bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta'sir ko'rsatadi. Natijada talabalar amalda pedagogik yangiliklardan yetarlicha xabardor bo'lmaydilar. Bu esa, o'z navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchanlikning rivojlanmasligiga, aksincha, so'nib borishiga sabab bo'ladi. Yosh o'qituvchilarning innovatsiyalarni izchil o'zlashtirganliklari sababli pedagogik jamoadagi qulay muhitda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar orasidagi qarama-qarshiliklar darajasi pasayib, kasbiy faoliyatdagi eski qoliplar bartaraf etiladi. Ta'lim muassasasidagi innovatsion muhitda o'qituvchining yangilikka bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan tashxislash metodlari ham rang-barangdir. Pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llash imkonini beradigan texnologik muammolar pedagogik tajribalarni tashxislash negizida o'rganilishi lozim. Tashxislash metodlaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatining kuchli jihatlarini namoyon qiladi⁴.

Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni tashxislashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirish davr talabidir. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy xohish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda kasbiy-pedagogik madaniyatni shakllantirish va muntazam rivojlantirishga yo'naltirilgan to'laqonli maqsadli faoliyatni amalga oshirish lozim. Shu asosda har bir yosh o'qituvchining ijod qilishi, yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullanishi, tashabbus ko'rsatishi uchun qulay sharoit yaratish nazarda tutiladi.

³ Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: ИЧП Издательство Магистр, 1997. – С. 224.

⁴ Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami // amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. 94-b.

Tashxislash asosida pedagogik innovatsiyalarni o'rganishning asosini har bir o'qituvchi tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh o'qituvchi ta'lim muassasasida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etiladi.

Innovatsion jarayonlarni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan tashxislash metodlari quyidagilardan iborat ekanligini bo'lajak pedagoglar ongiga aniq yetkazish lozim. Bular:

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni tizimli tarzda o'rganish, bunda o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash;

- ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish kabi ish turlaridan keng foydalanish kabilar.

Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Dastlabki bosqichda bo'lajak o'qituvchilardan anketa so'rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni ekspertizadan o'tkazish, individual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblaridagi ma'lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

2. Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik malakasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi.

3. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o'tkaziladi. Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchining faoliyati oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo'naltiriladi. Guruhdagi talabalar faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko'nikma, malakalari va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish hamda kasbiy pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova G., Azamatova N. *Bo'lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari*. "Xalq ta'limi" jurnali. – T., 2006. 3-son. 54-57-b.

2. Нишоналиев У. *Инновационные педагогические технологии обучения и развития*. – В сб. материалов научно-практической конференции "Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи". – Алма-Ата: Респ. издат. каб. Казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. – С. 235-240.

3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. *Педагогика: Инновационная деятельность*. – М.: ИЧП "Издательство Магистр", 1997. – С. 224.

4. Qodirov B.R., Qodirov K.B. *Kasbiy tashxis metodlari to'plami // amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma*. – T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. 94-b.

Sharibboy ERGASHEV,

Respublika tashxis markazi direktori, t.f.n., dotsent

Aron KOLANTAROV,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodimi

MAKTAB BOSHQARUVI AXBOROT TIZIMINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA JORIY ETILISHIDAN KUTILAYOTGAN ASOSIY NATIJALAR

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi tizimiga qarashli ta'lim muassasalaridagi boshqaruv jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish tajribasi bayon etilgan. Mualliflar bu bo-rada maktab boshqaruving axborot tizimi ta'lim muassasasining axborot-kommunikatsiya muhitining eng asosiy komponentlarining biri hisoblanishini ta'kidlar ekan, uni yaratish va takomillashtirishga oid taklif va mulohazalarini bildirgan.

Kalit so'zlar. Maktab boshqaruvi axborot tizimi, axborot-tahlil quyi tizimlar, elektron kadr-lar bo'limi, o'quvchilar, ota-onalar, xalq ta'limi tizimi.

В статье изложен опыт внедрения информационно-коммуникативных технологий в процесс школьного управления. Авторы подчёркивают, что информационная система школьного управления считается основным компонентом информационно-коммуника-тивной среды образовательного учреждения, вносят свои соображения и предложения относительно её создания и совершенствования.

Ключевые слова. Информационная система школьного управления, информаци-онный анализ, низовая система, отдел электронных кадров, ученики, родители, система народного образования.

This article describes the experience of the implementation of information and commu-nication technologies in the school management process. The authors emphasize that the school management information system is considered to be a major component of information and communication among educational institutions, put forward their views and proposals for its creation and development.

Key words. Information system of school management, information analysis, blowing system, electronic personnel department, pupils, parents, the system of public education.

Ma'lumki, har qanday ta'lim muassasasi faoliyatining umumiy samaradorligi birinchi navbatda o'quvchilarning ta'limiy tayyorgarligi sifati hamda bevositi ushbu muassasaning samarali boshqaruvi bilan bog'liq. O'z navbatida boshqaruv jarayoni quyidagi bir qator muhim omillar bilan chambarchas bog'langan:

– ta'lim muassasasidagi monitoringni tashkil qilish shakl va usullarining maqsad-ga muvofiqligi;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tahlil qilish uchun kelib tushadigan ma'lumotlarning obyektivligi va sifati;

- dastlabki (birlamchi) ma'lumotlarning tezkor kelib tushishi va ularning qayta ishlanishi;

- ta'lim jarayonining asosiy tashkilotchi va ishtirokchilari o'rtasida axborotlar tarqatilishining tezkorligi, tartiblashtirilganligi va ulardan maqsadli ravishda foydalanish uchun sharoitlarning mavjudligi.

Ko'p yillik tajribalarga asoslanib qayd etish mumkinki, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish uchun qanchalik zamonaviy texnologiyalar qo'llanilsa, zamonaviy ta'lim muassasasining faoliyatini tashkil etish maqsadida shunchalik samarali va maqsadga muvofiq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari boshqaruv jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maqsadli joriy etish ishlari XX asrning 90-yillari o'rtalarida boshlangan edi. Aynan shu yillarda kompyuter texnologiyalari yordamida monitoringni (birlamchi ma'lumotlarni yig'ish va tahliliy qayta ishlash) tashkil qilish va axborotlarni tezkor almashishning dastlabki tajribalari yig'ilgan edi. Jumladan:

- turli bosqichdagi (respublika, viloyat va tuman/shaharlar) ta'limning boshqaruv organlari o'rtasida modem aloqasi tizimi joriy etilgan;

- me'yoriy, yo'riqnoma-metodik hujjatlar va berilgan topshiriqlar ijrosining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarning tezkor almashinuviga yordam beruvchi korporativ elektron pochta faoliyati tashkil qilingan.

Microsoft Excel bazasida ta'lim muassasalari va ta'limning boshqaruv organlari faoliyatining turli yo'nalishlari monitoringini amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus elektron hisob-tahliliy jadvallar ishlab chiqilgan edi. Ular quyidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilishga mo'ljallangan:

- ta'lim muassasalari binolarining rekonstruksiya qilinishi va kapital ta'mirlash ishlarining borishi to'g'risidagi;

- ularning moddiy-texnik holati to'g'risidagi;

- maktab o'qituvchilarining malakalari va kompetentligi darajasi to'g'risidagi;

- o'quvchilarning darslik va o'quv materiallari bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi;

- o'quvchilarning ta'lim tayyorgarlik darajasining Davlat ta'lim standartlari talablariga mosligi to'g'risidagi;

- o'tish va bitiruv imtihonlari natijalari va boshqalar to'g'risidagi elektron jadvallar ishlab chiqilib, joriy etilgan edi.

Mazkur elektron jadvallarda to'plangan va ular yordamida qayta ishlangan axborotlar almashinuvi xalq ta'limi boshqaruvining barcha bo'g'inlari o'rtasida, korporativ elektron pochta vositasi yordamida amalga oshirilgan.

2000-yillarning boshlarida xalq ta'limi tizimida maktab boshqaruvining axborotlashgan tizimi (MBAT)ning¹ tajriba-sinov variantini yaratish ishlari boshlangan va bu borada ma'lum muvaffaqiyatlarga ham erishildi. Natijada butunlay yangicha bo'lgan va quyidagilarni ta'minlab beruvchi dasturiy mahsulot ishlab chiqildi:

- maktabda amalda bo'lgan barcha asosiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va avtomatik ravishda tahliliy qayta ishlash;

¹ Boshqaruv tizimi – boshqariladigan obyektga uning faoliyat yuritishi va samarali rivojlanishi uchun uzluksiz va maqsadga yo'naltirilgan ta'sir qilish jarayonini ta'minlovchi mexanizm.

– maktabdan Xalq ta'limi vazirligigacha bo'lgan ta'lim jarayoni boshqaruvining barcha bo'g'inlarini vertikal bo'yicha yagona axborot almashinuv tizimiga birlashtirish.

Xalq ta'limi tizimidagi axborotlashtirish ishlari bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda. Masalan, Xalq ta'limi vazirligiga qarashli ko'pgina muassasalar "Ziyonet" tarmog'iga ulangan va u orqali tizimdagi boshqa muassasalarga ham chiqish imkoniyatiga ega. Ya'ni har bir rahbar ishlab chiqarish zaruratiga ko'ra, xat va xabarlarini (farmoyish, buyruq, reja, hisobot, ma'lumotnoma va b.q.) yuborish va olishga mo'ljallangan Internet tarmog'iga ulangan.

Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazi tomonidan ta'lim boshqaruvi axborot tizimi elementlarini yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Web-maktab, Web-bog'cha, MTM, School.uz, web-musiqqa, Bitiruvchi, maktab.uz kabi elektron resurs va dasturiy mahsulotlar yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Hozirda Xalq ta'limi vazirligining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish yuzasidan tegishli ishlar olib borilmoqda.

Qayd etish joizki, yaratilayotgan har bir resurs amaldagi me'yoriy-ma'lumot axborotlar klassifikatoriga mos kelmaydigan o'z axborot makoniga ega (SOATO, OKONX, OKPO, INN kabi), mazkur resurslararo axborotlar almashish (aytaylik, Xalq ta'limi vazirligining har yillik asosiy ko'rsatkichlarini tuzish) uchun konvertor-dasturlar yozish kerak yoki ma'lumotlardan umuman samarali foydalanish mumkin emas.

Bunday yirik ishlab chiqarish tarmog'ini boshqarish uchun faqat yuqoridan pastga yo'naltirilgan vosita emas, balki barcha yo'nalishlar bo'yicha (shu jumladan, pastdan yuqoriga) samarali axborotlar oqimlarini tashkil etilishi va shakllantirilishi talab etiladi.

Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti (uzedu.uz) va axborot-ta'lim portali (eduportal.uz)da me'yoriy hujjatlar, ota-onalar, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan axborotlar jamlangan. Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar, 800 nomdan ortiq darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarining yetti tildagi elektron nusxalari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, video darslar va boshqa axborotlarni shu yerdan topish mumkin.

Shuningdek, qator interaktiv xizmatlar joriy etilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar hujjatlarini elektron qabul qilish, onlayn rejimidagi ko'rik-tanlovlar o'tkazish tizimi, malaka oshirganligi yoki qayta tayyorlovdan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat va diplomlarni tekshirib ko'rish dasturi va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbarligida "Ta'lim" korporativ axborot tizimini yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazi tomonidan maktab boshqaruvining axborotlashgan tizimini yaratish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilgan. Bular qatoriga elektron dars jadvalini, elektron jurnal, o'quvchilar (tinglovchilar) davomatining elektron nazorat qilish dasturi, maktab bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hujjat topshirishlari va ularning harakatini nazorat qilish dasturi kabi bir qator misollarni keltirish mumkin.

XXI asrning axborotlashgan jamiyatini shakllantirishning zamonaviy sharoitlarida maktab boshqaruvining axborot tizimi (bundan keyin MBAT) umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida yanada muhimlashadi va dolzarb ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, MBAT ta'lim muassasasining axborot-kommunikatsiya muhitining eng asosiy komponentlarining biri hisoblanadi. Axborot-kommunikat-

siya muhitining boshqa komponentlari dasturiy vositalari bilan bir butun holda, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi, ularni tizimlashtiruvchi va sifatli axborotlarga aylantiruvchi, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida tezkor axborot almashinuvi va ularning boshqaruvini amalga oshiruvchi MBATning dasturiy vositalari ta'lim muassasasining virtual portalini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, yig'ilgan ko'pyillik tajribalar va o'tkazilgan tadqiqotlar yagona Respublika Ta'lim Boshqaruvining Axborot Tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligini va uni MBATni yaratish va takomillashtirishdan boshlash zarurligini ko'rsatmoqda.

MBATning umumiy tuzilmasi va uni tashkil etuvchi alohida bo'g'inlari (quyi tizimlari)ning funksional vazifalarini ko'rib chiqamiz.

MBAT uning asosiy funksiyalarining amalga oshirilishini ta'minlovchi quyidagi axborot-tahlil quyi tizimlarini o'ziga birlashtiradi:

I. Boshqaruv quyi tizimi quyidagilarni ta'minlaydi:

- ta'lim muassasasi virtual portalida namunaviy generatsiyalashgan modullarni yaratish va ularning ishini nazorat qilish;
- foydalanuvchilarni ro'yxatga olish, ularga ma'lum huquqlarni berish va bu huquqlarni axborot manbalariga ruxsat etilganlik darajasiga mos ravishda amalga oshirish;
- ma'lumotlar bazasini shakllantirish va moddiy-texnik baza hamda o'qitish vositalarining joriy holatini ro'yxatga olish;
- ta'lim muassasasi virtual portalining ochiq qismida ma'lumotlarni joylashtirish va boshqalar.

II. Hisobga olish quyi tizimi (elektron kadrlar bo'limi) quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qituvchilar to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bazasini yaratish va ularning joriy holatini tizimli ravishda ro'yxatga olib borish;
- elektron “O'quvchilar harakati kitobi”ni yaratish va ular kontingentining joriy holatini tizimli ro'yhatga olib borish;
- ta'lim oluvchilarning maxsus ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritish, shu jumladan, ularning sog'ligi holati ma'lumotlari bazasini yaratish;
- boshqa kategoriyadagi foydalanuvchilarning “shaxsiy varaqa”larini yaratish va yuritish.

III. O'quv jarayonini tashkil etish quyi tizimi quyidagilarni ta'minlaydi:

- sinflar va o'quvchilar guruhlarini shakllantirish;
- dars mashg'ulotlari jadvalini rejalashtirish va tuzish;
- o'quv jarayonining borishini nazorat qilish;
- o'quvchilar davomatining hisoboti va tahlili;
- o'quvchilarning o'quv adabiyotlariga bo'lgan ehtiyoji va ta'minlanganlik darajasi monitoringi;
- buxgalteriya hisobi, o'quv yuklamalar va tarifikatsiya hisob-kitobi tizimini takomillashtirish.

IV. Ta'lim jarayoni natijalarining hisoboti va nazorati pastki tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- davomatni ro'yxatga olishni, o'quvchilar o'qishi natijalarini tizimli hisoboti va tahlilini va o'quvchiga tegishli bo'lgan “elektron kundalik”ni ko'rishga ruxsat berishni ta'minlovchi, mos sinf jurnali birlashtirilgan elektron sinf jurnallari to'plami;
- o'quvchilar (ularning ota-onalari) uchun o'z bilimlarini Davlat ta'lim standartlari talablariga moslik darajasini mustaqil tekshirib ko'rish hamda bilim, ko'nikma va malakalarida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beruvchi test olish vositalari;

- o'quvchilar bilimlarini Davlat ta'lim standartlari talablariga moslik darajasining tashqi (ma'muriy) monitoringi vositalari;
- o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini turli savollar orqali aniqlash bo'yicha test olish vositalari;
- ota-onalar va mahalla aholisi orasida ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi test olish vositalari;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ruxsat etilganlik darajasiga mos ravishda sinf elektron jurnallari va test olish vositalariga kirish imkonini beruvchi vositalar.

V. Kutubxona pastki tizimi (elektron kutubxona) quyidagilarni ta'minlab beradi:

- ta'lim standartlari, o'quv rejalar va dasturlar, elektron axborot texnologiyalari resurslari, o'quv-metodik adabiyotlar, didaktik materiallar va boshqalarni butlash va saqlash;
- ta'lim jarayoni o'quv-metodik ta'minotining joriy holati katalogini tuzish, hisobini va ro'yhatini yuritish;
- foydalanuvchilarning vakolatlari doirasida elektron kataloglar, elektron darsliklar va boshqalardan foydalanishga ruxsat etishni tartiblashtirish.

VI. Statistika va hujjatlashtirish pastki tizimi quyidagilarni ta'minlab beradi:

- ta'lim muassasasi faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish;
- standart va nostandart hisobot formalarini shakllantirish va ishlab chiqish;
- ta'lim muassasasi virtual portali boshqaruvchisi tomonidan berilgan shakllardagi hujjatlarning qog'oz ko'rinishlarini chiqarish;
- ta'lim muassasasi statistik ma'lumotlari va hisobot shakllariga bunday ma'lumotlarni oluvchilar uchun o'rnatilgan qoidalar va ro'yxatga olish tartibiga mos ravishda ruxsat berish.

VII. Ofis pastki tizimi quyidagilarni ta'minlab beradi:

- turli me'yoriy hujjatlarni va ko'rsatmalarni ijrochilarga yetkazish, tezkor nazoratini yuritish, ularning ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tuzish;
- maktab ish hujjatlari holatining monitoringi;
- ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilariga metodik, didaktik va boshqa materiallarni yetkazib berish;

- vazifalarni bajarishi bo'yicha turli grafiklar, jadvallar va taqvim rejalarini tuzish.

Kelgusida MBAT tuzilmasiga maktab faoliyatining ba'zi turlari va yo'nalishlari monitoringini yuritish bo'yicha maxsus quyi tizimni ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi. Shu jumladan, quyidagilarning monitoringini yuritish zarur:

- moddiy-texnik bazaning holati va rivojlanishi;
- uni moliyalashtirish holati;
- byudjetdan tashqari tushumlar va ularning ishlatilishi, turli manbalar hisobidan maktabni rivojlantirish jamg'armasini shakllantirish jarayonini boshqarish;
- kadrlar bilan ta'minlanganlik va uning joriy holati, ehtiyojlarini prognozlash;
- kontingentning "harakati" va saqlanishi;
- maktab va o'quvchilar ota-onalarining hamkorligi va boshqalar.

MBATning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ayrim umumiy talablarni belgilaymiz:

- yagona ma'lumotlar bazasining mavjudligi;
- kelgusida tahrir qilish imkoniyatini beruvchi bir martalik ma'lumotlarni kiritish;
- ma'lumotlarga kirish huquqini chegaralash;

- turli ilovalar va jarayonlarda bir xil bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish;
- eksport-import operatsiyalarini bajarmasdan turib turli quyi tizimlar (amaliy dasturlar) orasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash.

MBATni yaratish loyihasini amalga oshirilishi natijasida quyidagi ayrim natijalarga erishish nazarda tutiladi:

Umumiy o'rta ta'lim maktabi darajasida:

- maktab faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yig'ilayotgan ma'lumotlarning aniqlik va xolisligini oshirish, ma'lumotlar sifatini va unga mos boshqaruv qarorlarini takomillashtirish;
- maktab pedagogik xodimlari va ma'muriyat a'zolarining turli faoliyat turlari bo'yicha mehnat sarfini hamda ularni amalga oshirish uchun vaqt sarfini kamaytirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida axborotlar almashinuv tezkorligini oshirish;
- o'quvchilarning ta'limiy faolligini va o'qituvchilarning pedagogik faolligini oshirish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ota-onalar, mahalla, shuningdek, o'quvchilar jamoasining roli va ta'sirini oshirish;
- o'quvchilarning bilim darajalarini Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablardan past bo'lmasligini ta'minlovchi sharoitlarni yaxshilash;
- ta'lim muassasasining virtual portalini yaratish va axborot-kommunikatsiya muhiti shakllantirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash.

Xalq ta'limi tizimi darajasida:

- maktab va muassasalar orasida bir butun umumta'lim axborotlashgan muhiti yaratiladi;
- xalq ta'limi tizimidagi vertikal ta'limning boshqaruv organlari o'rtasida axborot almashinuvi va yagona ma'lumotlar bazasiga asoslangan ta'lim boshqaruvining axborotlashgan tizimi (TBAT) yaratiladi;
- xalq ta'limi tizimidagi barcha muassasa va tashkilotlar – pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, davlat pedagogika institutlari, umumiy o'rta ta'lim, bolalar musiqa va san'at hamda bolalar va o'smirlar sport maktablari, maktabdan tashqari ta'lim, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari yagona ta'lim boshqaruvining axborotlashgan tizimiga birlashadi;
- manfaatdor vazirlik, markaz va idoralararo tezkor axborotlar va interaktiv xizmatlar ko'rsatish sifati oshadi;
- xalq ta'limi boshqaruvining axborotlashgan tizimi “Ta'lim” korporativ axborot tizimi bilan integratsiyalashadi;
- ta'lim boshqaruvining axborotlashgan tizimi “Elektron hukumat” davlat tizimiga birlashadi va keng jamoatchilikka interaktiv va ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Xulosa o'rinda shuni ham qayd etish joizki, MBATni yaratish maqsadida quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgan. Jumladan:

- maktab boshqaruvi axborot tizimining umumiy tuzilmasi, uni tashkil etuvchi quyi tizimlarning funksional vazifalari va joriy etilishidan kutilayotgan asosiy natijalar asosidagi ma'lumotlar va g'oyalar asosida “Maktab boshqaruvi axborot tizimini yaratish va maktablar faoliyatiga tatbiq etish Konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi;
- mazkur loyihani amalga oshirishning asosiy bosqichlari, maqsadlari, vazifalari va mazmuni belgilandi;
- MBAT dasturiy ta'minotini yaratish uchun ish turlari, shakllari va ketma-ketligi belgilandi, dasturlash tilini tanlash masalasi bo'yicha takliflar tayyorlandi;

– MBAT tuzilmasiga tegishli bo'lgan alohida komponentlari (ma'muriy axborot tizimi, ofis axborot tizimi, boshqaruv qarorlarni qabul qilishga ko'maklashuvchi analitik informatsion tizimi va boshqalar)ning maketlari (interfaol sahifalar namunalari) ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Maktab Boshqaruviga Informatsion Tizim (MBAT)ni tatbiq etish, o'quvchilarning o'qishda erishgan yutuqlari monitoringini takomillashtirish loyihasi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2001-yil 29-dekabrdagi 193-sonli buyrug'iga 1-ilova.*

2. Калонтаров А. Доклад Формирование и развитие информационной системы управления школами, Международная конференция по вопросам ИКТ в общем образовании, ЮНИСЕФ, МНО Республики Узбекистан, – Т., 2005.

3. Эргашев Ш. Т., Колантаров А. У. Информационная система управления школы – важнейший компонент информационно-коммуникационной среды образовательного учреждения. Описание структуры и элементы макета, Приложение к материалам проекта прикладного исследования на тему: “Создание и внедрение информационно-коммуникационной среды средней общеобразовательной школы”. МНО Республики Узбекистан, УзНИИПН, – Т., 2016.

4. Благоев В. В., Доклад Информационно-коммуникационная среда в образовательном учреждении, ГБОУ Лицей-интернат – Пенза, 2012. №3.

5. Болдина Т. Г., Карпущина Л.В. Реферат Использование информационных технологий в управлении школой, Московский комитет по образованию, государственное образовательное учреждение гимназия. № 1526, – М., 2005.

6. Громов В. В., Чулкова О. В. Курсовая работа по педагогике Информационное обеспечение управления школой, Министерство образования и науки, Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования “Шадринский государственный педагогический институт”, факультет физической культуры, кафедра теоретических основ физического воспитания.

7. Бримкулов У. Н., Жумабаева Ч. Н. Веб-сайт как основа информационной системы управления школой (на примере Кыргызстана), Кыргызско-Турецкий Университет “Манас”, – Бишкек.

8. Якушина. Е.В. Информационные системы для школы, лаборатории медиаобразования ИСМО РАО.

Tahririyat: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari kundalik yashash tarzimizga shu qadar chuqur kirib bordiki, ularsiz hayotimizni tasavvur etolmaymiz. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimiga qarashli ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsion muhitni yaratish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mualliflarning mazkur to'rtinchi maqolasida maktab boshqaruvining axborot tizimini joriy etish masalasi yoritilgan bo'lib, u avvalgi maqolalarga hamohang va ta'lim muassasasi axborot-kommunikatsion muhitining asosiy komponentlaridan biri sanaladi.

Turg'unoy HAKIMOVA,

Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi

307-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'qituvchisi

YOSHLARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT RESURSLARINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada muallif yoshlarning barkamol bo'lib ulg'ayishida kitob mutolaasining o'rnini atroflicha tahlil qilib bergan. Shu bilan birga, yosh avlodni Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqatli, irodali, mustahkam e'tiqodli qilib tarbiyalashda kitob o'qishning ahamiyatini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Kitob, mutolaa, ta'lim-tarbiya, ziyo, nur, kelajak avlod, yoshlar kamoloti, ma'naviyat, tafakkur, mafkura, bestseller.

В статье анализируется роль чтения книг в совершенствовании подрастающего поколения. Вместе с тем автор раскрывает значение чтения книг в воспитании у молодёжи любви к Родине, преданности идеям независимости, сильной воли и убеждённости.

Ключевые слова. Книга, чтение, образование, учебно-воспитательная работа, просвещённость, луч, совершенство молодёжи, мышление, духовность, идеология, бестселлер.

The author comprehensively analyzes the role of reading books in development of younger generation. Besides, the author reveals the role of reading books in the development of love for the motherland, loyalty to the ideas of independence, a strong will and conviction.

Key words. Book, reading, education, training and educational work, enlightenment, the beam, the perfection of youth, thinking, bestseller.

Bugun o'sib kelayotgan avlodning oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini oshirish, ular ongiga milliy qadriyatlarga hurmat, fidoyilik, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda, avvalo, ta'lim-tarbiyaning, kitob mutolaasining o'rnini juda katta.

Bejizga ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgararga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq", deya ta'kidlagan.

Bu fikrlarni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" nomli ma'ruzasida ham alohida qayd etib o'tdi.

¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar, – T.: Ma'naviyat, 2006.

Kitob mutolaasi kishini komillik sari yetaklaydigan, uning tafakkur xazinasini boyitadigan, zehni o'tkir, mushohadasini teran qiladigan muhim vositadir. Insoniyat tomonidan kashf qilingan eng buyuk ixtiro, hech shubhasiz, kitobdir. Asrlar osha bashariyat qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lsa, albatta, buning zamirida kitobga mehr, mutolaaga ishtiyoq mujassam.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir chiqishlarida yoshlarimizni kitobxonlikka o'rgatish, bu ishga ijodkorlarni jalb etish haqida bot-bot ta'kidlaydi. Zero, navqiron avlodni boy ma'naviy merosimiz bilan tanishtirish, ular qalbida tariximizga muhabbatni uyg'otishda kitob beqiyos ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi yurtdoshlarimizni, xususan, yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etishda yangi davrni boshlab berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, kitoblar, ilmiy-ommabop qo'lyozmalar xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotidan hikoya qiluvchi o'ziga xos ko'zgudir. Aqlni charxlaydigan, yaxshilik sari yetaklaydigan kitoblarning baxtli kelajagimiz kamolidagi, tinch va osoyishta, farovon hayotimizdagi o'рни beqiyos.

Zero, yaxshi kitob insonda milliy urf-odatlariga hurmat, azaliy qadriyatlarga muhabbat tuyg'usini kuchaytiradi. Mafkuraviy kurash avjga chiqqan hozirgi sharoitda yosh avlodni millatimizga yot, buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya qiladi.

Yaxshi kitob tafakkurni charxlaydi. Bu mezon qancha mustahkam bo'lsa, kishi yuksak cho'qqilar sari intilishdan hech qachon to'xtamaydi.

Aslida yoshlar o'rtasida kitob mutolaasini shakllantirishni farzandlarimizning yoshligidan boshlashimiz maqsadga muvofiq. "Agar bolalaringiz aqlli bo'lishini istasangiz, ularga ertaklar o'qib bering. Agar yanada aqlli bo'lishlarini xohlasangiz, undan-da ko'proq ertak o'qib bering", degan edi buyuk olim va kashfiyotchi Albert Eynshteyn.

Siz-chi, aziz ota-ona, bolangizning aqlli bo'lishini istasangiz kerak? Yoki savolni biroz o'zgartirsak: oxirgi marta farzandingizga qachon kitob o'qib berdingiz yoki ertak so'zladingiz?!

Kitob – ziyo. Uning nuridan munavvar qalbga esa yomonlik begona. Bugun axboriy xurujlar nafaqat inson, balki millatlar taqdiriga daxl qilayotgan davrda ma'naviy immunitetni oshirish, keng tafakkur va dunyoqarash orqaligina undan saqlanish hamda qarshi turish mumkin.

Kitob o'qish – inson ma'naviyatini yuksaltirish uchun eng samarali vosita. Mutolaa dunyoqarashni kengaytirishi, tafakkurni o'tkirlashi borasida ko'p va xo'p aytilgan, mulohaza yuritilgan. Ayniqsa, yosh avlodning mutolaadan yiroqlashgani, texnologik vositalar kitob o'rnini bosgani haqida ham bot-bot so'z yuritilayotir. Biroq nazarimizda, mazkur masalaning yana bir jihati borki, uni aslo e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Bugun kelajak avlod zamonaviy bilimlarni va xorijiy tillarni o'zlashtirayotgani quvonarli hol. Axborot oqimi kuchli bo'lgan ayni zamonda ularga o'z imkoniyatlarini oshirish uchun yetarli sharoit va vositalar mavjud. Texnologik vositalar orqali yoshlar bilimlarini mustaqil mustahkamlashi, ilmiy yangiliklardan boxabar bo'lishi mumkin.

Biroq kirib kelayotgan ana shu ma'lumotlar orasida barchasi ham farzandlar ongini oshirishga xizmat qiladi deb bo'lmaydi.

“Bestseller” asarlar sifatida yurtimizga kirib kelayotgan yoki bizning ayrim qalamkashlar tomonidan yozilayotgan kitoblar orasida ma'naviy jihatdan qashshoqlari ko'proq, nazarimizda. Detektiv, sarguzasht yoki turli maishiy mavzularga bag'ishlangan bunday kitoblarni ham mutolaa qilayotganlar serob. Ular orasida esa, yoshlarning ham ko'pligini asarlar tili oddiy va voqealar rivoji esa shiddatligi bilan izohlash mumkin, lekin mazmun...

Azaldan Sharqda oilaga muqaddas maskan, ota-onaga esa ulug' zot sifatida munosabatda bo'lishadi. Ammo erkinlikni chegarasiz deya hisoblagan G'arbda bugun ushbu tushunchalarga qarash birmuncha o'zgacha. “Ommaviy madaniyat”ga xos yashash tarzi avj olgan g'arb davlatlaridagi notinchliklar, sodir etilayotgan jinoyatlarning tub ildizi ma'naviy qashshoqlikka borib taqaladi.

Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ertamiz egalarini oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini oshirish, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat, fidoyilik, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda, shubhasiz, mahalla faollari va ular tomonidan tashkillashtirilayotgan ma'naviy targ'ibot tadbirlarining o'zni katta.

Ayniqsa, farzandlar ma'naviy olamini boyitishda ularni mutolaaga o'rgatish, kitobxonlikni keng targ'ib etish misli ko'rilmagan samaralar berishi tabiiy. Kitob mutolaasining foydasi haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Asosiysi, ko'p kitob o'qigan inson ijtimoiy faol bo'ladi. Kitob o'qish hayotiy maqsadni aniq belgilashga, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklar va muammolarni yengib o'tishga yordam beradi, sabr-toqat va vazminlik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Qolaversa, kitob insonning hayotga, oilaga munosabatini o'zgartiradi.

Yosh avlodning kitob mutolaasiga mehr va ishtiyoqini uyg'otishda ota-ona o'rnak, mahalla-ko'y esa tashabbuskor bo'lsa, ayni muddao. Zero, ma'naviyatning ikki qanoti bo'lgan kitob olami ertamiz egalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burchi va mas'uliyatini teran his etadigan, oilaparvar, yurtparvar va taraqqiyparvar inson sifatida voyaga yetishlariga xizmat qiladi, millatning g'ururini o'stiradi.

Kitob xarid qilayotib farzandimiz kelajagi uchun imtiyoz yaratayotganimizni unutmaylik. Ko'pincha ularning ongiga hayotda pul muhim ekanini bilib-bilmay singdiramiz-da, ertaga moddiy boylik deb biror noxush ish qilsa, aybdorni izlaymiz. Farzandimiz pul topadi, biroq insoniy tuyg'ularni narxlaydigan bo'lib voyaga yetishi mumkin. Kitob nafaqat tarbiyada ko'makchi, u bolani orzu qilishga o'rgatishi va ularga yetishishda bilim berishini unutmaslik lozim.

Odatda bolalarga kitob o'qishni bot-bot ta'kidlaymiz, ba'zida majbur qiladiganlar ham bor. Ammo ayrim ota-onalar bir haqiqatni – bolasi o'ziga o'xshashini, ya'ni, avvalo, ulardan o'rnak olishini yoddan chiqarishadi. Unda kitobga mehr uyg'otishda, qiziqtirishda kattalarning o'zni beqiyos. Kitob o'qi, degan bilan ish bitmaydi. Bu kitob nimasi bilan qizig'u foydali tomonlari nimada ekanini bolaga erinmay sharhlash, kerak bo'lsa, boshlanishida birga o'qish orqaligina mutolaaga rag'bat, ishtiyoq uyg'onadi.

Mutolaaning inson organizmiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Uning natijalariga ko'ra, bir kunda olti daqiqa kitob o'qish stress holatini oltmish foizga kamaytirar ekan. Shu bilan birga, o'quvchining yurak urishi bir maromda bo'lishi, mushaklarni bo'shashtirishi ham isbotlangan. Psixologlar tushkunlikdan aziyat chekayotgan bemorlarga kitob mutolaasini tavsiya qilishadi. Chunki bu musiqa tinglash yoki ichimlik ichish bilan kayfiyatni ko'tarishdan afzalroq.

"Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o'xshaydi", degan edi faylasuf Tsitseron. Men esa mutolaasiz o'tgan umrni g'ariblikka mengzagim keladi. Mebel xarid qilayotib uning pishiqligi, rusumi, bezaklariga alohida e'tibor qaratamiz, axir, u ko'p yillar oilaga xizmat qilishi kerak. Biroq har qanday narsa biror falokat sabab zahmat yetishi, keraksiz bo'lib qolishi mumkin. Saviyali kitobdan olingan bilim va tarbiyaning esa, yil sayin qirralari ochilib, sayqallanib boraveradi, kishining ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda, farzandimizning ziyoli bo'lib voyaga yetishi, kitobga oshno tutinishida, avvalo, ota-ona mas'ul. Zero, ma'naviyat himoyachilari hisoblangan oila boshliqlari farzandlarining kamoloti yo'lida har qanday fidoyilikka tayyor turishi, loqaydlik, boqibeg'amlikdan yiroq, bo'lishi lozim.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"², degan so'zlari barcha ota-nalarga muhim dasturilamal bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*, – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Avloniy A. *Tanlangan asarlar*, – T.: Ma'naviyat, 2006.
3. Fitrat A. *Tanlangan asarlar*, – T.: Ma'naviyat, 2006.
4. Jo'rayev N. *Agar ogoh sen...*, – T.: Yozuvchi, 1998.
5. "Xalq so'zi" gazetasi, 2016-yil 8-dekabr.

² Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*, – T.: Ma'naviyat, 2008.

Umarali QODIROV,
Surxondaryo viloyati XTXQTMOI rektori,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

YOSHLARDA INFORMATSION-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimiz yoshlarining informatsion-psixologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan axborotlardan foydalanish ko'nikmalari, mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Muallif informatsion-psixologik xavfsizlik – muayyan shaxs yoki shaxslar guruhining informatsion sohada salbiy informatsion-psixologik ta'sirlardan himoyalanganlik holati va shu bilan bog'liq shaxs, davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari ekanligiga urg'u berib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar xususida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Axborot xavfsizligi, mafkuraviy immunitet, yoshlar, yoshlar siyosati, ta'lim, tarbiya, ommaviy madaniyat.

В статье отмечено важное значение навыков пользования информацией в обеспечении информационно-психологической безопасности молодёжи нашей страны и формировании у неё идеологического иммунитета. Подчеркивается, что информационно-психологическая безопасность, защищённость определённых лиц или определённой группы лиц от отрицательных информационно-психологических влияний в информационном пространстве являются жизненно важными интересами личности, государства и общества.

Ключевые слова. Информационная безопасность, идеологический иммунитет, молодёжь, молодежная политика, образование, воспитание, массовая культура.

The article notes importance of the skills to use information, in providing information and psychological security of our country's young people and the formation of their ideological immunity.

Underlining that information and psychological security, protected certain individuals or certain groups of people from negative information and psychological influences in the information space are vital interests of the individual, the state and society, the author discusses the problems that need to be implemented.

Key words. Information security, ideological immunity, youth, youth policy, education, public culture.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yoshlarni har tomonlama mukammal etib voyaga yetkazishda ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va qonuniy chora-tadbirlar tizimini mukammallashtirishni nazarda tutadi.

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular qatorida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu jihatdan qaraganda, shaxs va jamiyatning informatsion-psixologik xavfsizligini ta'minlash fanlararo muammo bo'lib, turli mutaxassislarning birgalikdagi faoliyatini taqozo qiladi. Ijtimoiy fanlar sohasi vakillari esa, mazkur muammoni hal etishda bevosita ishtirok etishlari zarur, zero ta'lim muassasalari, xususan, oliy ta'lim muassasalari pedagogik jamoasi yoshlarning informatsion-psixologik xavfsizligini ta'minlashda asosiy subyektlardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ilm-fanida shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning yo'l, shakl, vosita, usul, shart-sharoitlariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar paydo bo'ldi. Biroq ta'lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olgan holda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hali yetarli emasligini ham ta'kidlash lozim.

Shaxsni salbiy informatsion ta'sirlardan himoyalash, informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili bu boradagi eng muhim vositalardan biri – insonga qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalar fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslanganligini, ya'ni tanqidiy tafakkur shakllanganligini ko'rsatdi. Ammo yoshlarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishini tadqiq etishning dolzarbligi bir qator mavjud ziddiyatlar bilan tavsiflanadi. Xususan:

- ijtimoiy-pedagogik xarakterdagi, ya'ni kasbiy faoliyatda salbiy informatsion ta'sirlardan himoyalashga, informatsion-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qodir mutaxassislarga bo'lgan jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hamda ijtimoiy tuzilmalarning mazkur vazifani ba'zan yetarli darajada, to'liq uddalay olmasligi;

- ilmiy-nazariy xarakterdagi, ya'ni yoshlarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishining ilmiy asoslangan modelini yaratish zaruriyati hamda uning nazariy jihatdan ishlab chiqilmaganligi;

- ilmiy-metodik xarakterdagi, ya'ni yoshlarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishi lozimligi hamda mazkur jarayon mazmuniy-metodik ta'minotining yetarli darajada emasligi.

Ushbu ziddiyatlar kasbiy faoliyatda, yoshlarni salbiy axborot ta'sirlaridan himoyalashda tanqidiy tafakkur shakllantirilishining tegishli tamoyillari, mazmuni, shart-sharoitlari, metodikalarini aniqlashtirish muammosini asoslaydi. Kasbiy faoliyatdagi salbiy informatsion ta'sir sifatida negativ mazmundagi manipulyativ xarakterga ega informatsion-psixologik ta'sirlarni ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda, informatsion-psixologik xavfsizlik – muayyan shaxs yoki shaxslar guruhining informatsion sohada salbiy informatsion-psixologik ta'sirlardan himoyalanganlik holati va shu bilan bog'liq shaxs, davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari.

Salbiy informatsion-psixologik ta'sir – shaxs yoki insonning ruhiyatiga ta'sir etuvchi maxsus vosita va usullar orqali ularning ixtiyori, rozilgisiz ta'sir ko'rsatish. Bunday ta'sirning shaxs, davlat hamda jamiyat uchun natijasi salbiy hisoblanadi.

Maxsus ta'sir vositalari – shaxs yoki insonlar guruhiga salbiy informatsion-psixologik ta'sir ko'rsatish uchun qo'llanadigan texnik va dasturiy vositalar.

Maxsus ta'sir usullari – shaxs, davlat, jamiyat uchun salbiy oqibatlariga olib keladigan inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish usullarining ketma-ketligi. Bunday oqibatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- inson salomatligiga zarar yetkazish;
- shaxs erki, xohish-irodasini uning uchun anglanmagan darajada to'sish, bo'g'ish;
- sun'iy ravishda tobelik hissini uyg'otish;
- shaxsning siyosiy, madaniy, axloqiy jihatdan o'zini o'zi anglashi qobiliyatini yo'qotish;
- ijtimoiy ongni boshqarish, manipulyatsiya qilish;
- mamlakatning yaxlit informatsion va ma'naviy hududiga daxl qilish, shakllangan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy negizlarni, shuningdek, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini barbod qilish.

"Informatsion-psixologik xavfsizlik" va "salbiy informatsion-psixologik ta'sir" tushunchalariga ayrim tadqiqotchilarning bergan boshqa ta'riflari ham mavjud. Masalan, S.Y. Reshetnikov va G.L. Smolyan informatsion-psixologik xavfsizlik tushunchasi ostida "inson – informatsion muhit" tizimidagi individual va guruh psixologik salohiyatning belgilangan, lozim darajadan quyiga pasaymasligi vaziyatini tushunadilar¹. Bunda "vaziyat" atamasi tizim unsurlarining o'ziga xos holati va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa hamda axborot almashinuvini anglatadi. Individual psixologik salohiyat esa, ular fikricha, samarali hayotiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi, individ barcha psixologik xususiyatlarining jamlanma tavsifidir. Individual psixologik salohiyatning asosiy tavsiflari sifatida shaxsning bazaviy yo'nalganligi, inson zakovatining xarakter xususiyatlari, uning psixofiziologik holatini ko'rsatish mumkin.

G.V. Grachev shaxs informatsion-psixologik xavfsizligini inson psixikasining turli-tuman informatsion omillar ta'siridan himoyalanganligi holati sifatida talqin qiladi. Bunday informatsion omillar sirasiga insonning adekvat ijtimoiy xulq-atvori shakllanishiga, shuningdek, uning o'ziga va atrof-muhitga subyektiv munosabatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi. Informatsion-psixologik ta'sir tushunchasi mazmunini oydinlashtirishda G.V. Grachev muayyan jihatlarga e'tibor qaratadi. Birinchidan, mazkur tushunchada axborotning insonlarga yo'naltirilgan maxsus vosita sifatidagi maqsadli funksiyasiga urg'u beriladi. Ikkinchidan, informatsion ta'sir obyekti – inson psixikasi xususiyatlari tahlil etiladi.

Hozirgi kunda ushbu tushunchani qo'llash inson hissiyotlari va sezgi organlariga ramziy-belgi hamda timsolli vositalar orqali ko'rsatiladigan psixologik ta'sir turini tavsiflashga asos bo'ladi. Biroq adabiyotlarning nazariy tahlili "informatsion-psixologik ta'sir" va "informatsion ta'sir" tushunchalariga turli olimlar tomonidan har xil ta'rif berilganligini ko'rsatdi. Bizningcha esa, bularni o'zaro yaqin tushunchalar sifatida qo'llash xato hisoblanmaydi.

Salbiy informatsion-psixologik ta'sir oqibatlariga quyidagi holatlarni kiritish mumkin:

- hayotiy faoliyatning noto'g'ri o'zandan yo'naltirilishi;
- shaxs faolligini ta'minlovchi atrof-olam, kishilar, munosabatlar to'g'risidagi bilim, tasavvurlarning noto'g'ri shakllantirilishi;

¹ С.Ю. Решетникова, Г.Л. Смолян. Проблемы информационно-психологической безопасности: сборник статей и материалов конференции. – М.: Изд-во ин-та психологии РАН, 1996. – С. 18-26.

– insonda nomuvofiq guruhiy va ijtimoiy me'yorlar, ehtiyoj, qiziqish, moyilliklarning namoyon bo'lishi;

– jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydigan o'zini o'zi baholash darajasi, shaxslararo munosabatlar, dunyoqarash, e'tiqod, maslak, qadriyatlar, yo'l-yo'riq, ta-fakkur tarzi, xulq-atvor va muloqot uslubi, odat, ko'nikmalarning ifodalanishi².

Ta'kidlash lozimki, inson psixikasiga ta'sir turli shakllarda amalga oshirilishi ehti-moli mavjud. Psixologik ta'sir shakllarini tasniflashda tadqiqotchi V.G. Krisko ularning kamida 6 xil turiga e'tibor qaratadi: informatsion-psixologik; psixogen; psixoanalitik; neyrolingvistik; psixotron; psixotrop.

Informatsion-psixologik ta'sir – so'z, ma'lumot vositasida amalga oshiriladi. Bundan maqsad – shaxsda muayyan mafkura, g'oya, dunyoqarash, tasavvur, ishonch-ni shakllantirish bo'lib, u insonlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ular, hatto ommaviy reak-siyalar (masalan, vahima)ni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixogen ta'sir – inson miyasiga ko'rsatiladigan ta'sir (bosh jarohati yoki fizik omillar) yoki yon-atrofdagi holat yoxud voqealar (teraktlar, zilzila qurbonlari va h.k.) na-tijasida yuzaga keladi. Psixogen ta'sir natijasida inson odatda ratsional, oqilona hara-kat qilish xususiyatidan mahrum bo'ladi, makondagi mo'ljal, oriyentatsiya, yo'nalishini yo'qotadi, tushkunlik yoki vahimaga tushadi, harakatsiz bo'lib, qotib qoladi.

Psixoanalitik ta'sir – insonning ong osti sohasiga turli terapevtik vositalar orqali ko'pincha gipnoz yoki chuqur uyqu paytida ta'sir ko'rsatishdir.

Neyrolingvistik ta'sir – maxsus lingvistik dasturlar orqali kishilarning ongiga ta'sir o'tkazib, ularning motivatsiyasini o'zgartirishga xizmat qiladigan psixologik ta'sir turi.

Psixotron (parapsixologik, ekstasensor) ta'sir – insonlarga his etilmaydigan idrok orqali axborot, ma'lumotni uzatish va shu yo'l bilan ularni manipulyatsiya qilish. Shu bilan birga, miya faoliyatini o'zgartirishga xizmat qiladigan yuqori va past chasto-tali generatorlarni yaratishga bo'lgan urinishlar ham mavjud (rus fantast-yozuvchisi A. Belyayevning "Jahongir" romanida mazkur ta'sir badiiy tarzda ifodalangan).

Psixotrop ta'sir – inson miyasiga tibbiy preparatlar, dori-darmonlar, kimyoviy yoki biologik vositalar orqali ta'sir ko'rsatishdir.

Bunda informatsion-psixologik ta'sir usuli obyektlarni eng yuqori darajada qamrab olish va universal xarakterdagi ta'sir ko'rsatish usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Informatsion jarayonlar shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda o'zida aqliy-rat-sional (informatsion jihat) va hissiy (psixologik jihat) unsurlarni jamlovchi informatsi-on-psixologik ta'sir insonlar salomatligiga putur yetishiga ham sabab bo'lyapti. Xusu-san, ekologiya va ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan hozirgi zamon odami uchun real xavf-xatar mavjuddir. Shu yo'nalishda tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning fikricha, *informatsion-psixologik xavfsizlik deganda, inson psixikasining turli destruktiv infor-matsion ta'sir (shaxs ongi yoki ong osti sohasiga muayyan buzg'unchi g'oya, halokat-ga olib keluvchi yoki zararli axborotning kiritilishi)dan himoyalaniishi nazarda tutiladi*. Informatsion-psixologik jihatdan muhofaza qilinmagan inson yon-atrofdagi voqealarni noadekvat idrok etadi, uning hayotiy muhim manfaatlari, erki, qadr-qimmati poymol etiladi.

Shaxs informatsion-psixologik himoyasi insonning psixik salomatligi, xotirjamligi, psixologik muhitning maqsadga muvofiqligi, faoliyatning samaradorligini ta'minlashga

² Г.В.Грачев. Личность и общество: информационно-психологическая безопасность и пси-хологическая защита. – М.: ПЕПСЭ, 2003. – С. 304.

xizmat qiladi. Rossiyalik olim I.N. Panarinning ta'kidlashicha, informatsion-psixologik ta'sir aholi psixikasi va xulq-atvoriga, davlatning rivojlanishiga bevosita salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ataylab yo'naltiriladigan va tarqatiladigan maxsus axborotlardir. Ba'zi mualliflar informatsion-psixologik ta'sirni tavsiflaganda, uning yo'naltirilayotgan obyektga bildirilmasligiga alohida e'tibor qaratadilar³.

V. Ye. Lepskiyning fikricha, salbiy, negativ informatsion-psixologik ta'sir eng avvalo, shaxsga, uning tasavvurlari va hissiy-irodaviy sohasiga, ommaviy ongga ko'rsatiladigan, subyektlarni o'zining yoxud muayyan shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, tuzum manfaatlariga zid xatti-harakatlarni amalga oshirishga zimdan yoki oshkor manipulyativ tarzda undaydigan ta'sirdir⁴.

Mazkur ta'rif S.G. Kara-Murzaning manipulyatsiya tushunchasi haqidagi fikriga o'xshaydi. Unga ko'ra, manipulyatsiya – insonlarning xulq-atvorini dasturlashtirish orqali ularga ruhiy, ma'naviy ta'sir o'tkazish va hukmronlik qilish. Mazkur ta'sir insonning ruhiy tuzilmasiga yo'naltiriladi, yashirin amalga oshiriladi, kishilarning o'y-fikrlari, qarorlari, maqsadlari, intilishlarini o'zgartirishni nazarda tutadi⁵.

Albatta, informatsion-psixologik ta'sirning negativligini aniqlashtirishda uning manipulyativ xarakterda ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, shaxslararo munosabatlar doirasida informatsion-psixologik ta'sir subyektlar o'rtasidagi turli o'zaro kommunikatsion munosabat shakllari vositasida amalga oshiriladi.

Y.L. Dotsenko bunday vositalarning besh xil shaklini ajratib ko'rsatadi: hukmronlik, manipulyatsiya, raqobat, hamkorlik va hamdo'stlik. Biroq bizningcha, mazkur bo'g'indagi hamkorlik va hamdo'stlik tushunchalari informatsion-psixologik ta'sir vositalari sifatida qabul qilinmasa ham bo'ladi, chunki hamdo'stlik bir-biriga ko'maklashuvchi, o'zaro do'st kishilar orasidagi munosabatni anglatga, hamkorlik ish-faoliyatda birga, hamkor bo'lish, ma'lum bir maqsad yo'lida birgalashish, ayni bir ishni teng bajarishni nazarda tutadi.

Hukmronlik va raqobatning ham salbiy informatsion ta'sir ko'rsatish vositalari sifatida ko'rib chiqilishi bizningcha, bahslidir. Chunki o'zaro muloqotda nizoli vaziyatlarning mavjudligi, subyektlar manfaatlarining turlichaligi (raqobat), muloqotga kirishuvchi subyektlardan birining ikkinchisi manfaat, qiziqishlari, intilishlarining nazar-pisand qilinmasligi (hukmronlik) muayyan ma'noda salbiy informatsion ta'sir maqsadlariga mos kelsa-da, biroq bu yerda muhim bir jihat – ta'sirning yashirinligi ko'zga tashlanmaydi.

Shu nuqtayi nazardan salbiy informatsion-psixologik ta'sirni amalga oshirishning eng maqbul, mazmun-mohiyati jihatidan to'g'ri keladigan yo'li manipulyatsiya hisoblanadi.

Insonga informatsion-psixologik ta'sir ko'rsatishning asosiy subyektlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- davlat (shu jumladan, xorijiy davlatlar);
- davlat va boshqaruv organlari, davlat tuzilmalari va tashkilotlari;

³ Панарин, И.Н. Информационно-психологическое обеспечение безопасности государства в XXI веке // И.Н.Панарин // Материалы Международной конференции "Информационные технологии, безопасность и разрешение конфликтов". – М.: Центр политических и международных исследований (ЦПМИ), 1998.

⁴ Лепский, В.Е. Информационно-психологическая безопасность субъектов дипломатической деятельности. В.Е. Лепский // Дипломатический ежегодник – 2002: сборник статей колл. авторов. – М.: Научная книга, 2003. – С. 233-248.

⁵ Кара-Мурза, С.Г. Краткий курс манипуляции сознанием [Текст]: Серия: Тропы практического разума / С.Г. Кара-Мурза. – М.: Алгоритм, 2002. – С. 288.

– jamoatchilik (turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy (shu jumladan, xorijiy tashkilotlar);

– har xil ijtimoiy guruhlar (formal va noformal, barqaror va tasodifiy, katta va kichik va h.k.);

– alohida shaxslar (shu jumladan, davlat va jamoat tuzilmalari, turli ijtimoiy guruh vakillari).

Bunda ta'sir manbalarining ichki va tashqi manbalar sifatida baholanish ehtimoli mavjud bo'ladi.

Hozirgi paytgacha kelib jahonda bo'lib o'tayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar ilgari yetarli darajada ahamiyat berilmagan bir qator fenomenlarga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. Shaxsning ijtimoiy "o'lchamlari" inson tarbiyalangan muhit, ishtirok etayotgan madaniy jarayonlar, muloqot singari mezonlar natijasida shakllanadi. Shaxsning turli guruhlar (oilalar, jamoalar, tengdoshlari davrasi)da bajaradigan ijtimoiy rollari, shuningdek, muayyan taassurotlar natijasida shakllangan o'zi haqidagi subyektiv "Men"i hamda boshqa shaxsdan kutadigan xatti-harakatlari natijasida namoyon bo'ladigan tashqi "Men"i muhim ijtimoiy komponentlar sifatida tasnif etiladi.

Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, ularni salbiy-informatsion-psixologik ta'sirdan muhofaza qilishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratishda antimanipulyativ xulq-atvorni shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur. Antimanipulyativ xulq dogmatik xarakterga ega bo'lmasdan, uning rivojlanishiga ijtimoiy, biologik, psixologik va siyosiy omillar ta'sir o'tkazadi. Ushbu xulq modelini yaratishda ijtimoiy-biologik, ruhiy-ijtimoiy unsurlardan foydalanish samarali natija beradi. Shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog'lom ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro moslik va ularning bir-birini to'ldirishi yoshlarning yot, buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga imkon yaratadi. Yoshlarda tegishli xulq shakllanmaganligi, mafkuraviy immunitet tarkib topmaganligi, axborot iste'moli madaniyati lozim darajada rivojlanmaganligi ularning nojoiz g'oyalar ta'siriga tushishida asosiy sabablar sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlar, yigit va qizlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, yosh, jinsiy, hududiy, demografik, etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olish lozim.

Yoshlarning mikro va makro muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olmasliklari ularning yot g'oyalar va destruktiv guruhlar ta'siriga tushishi ehtimolini oshirishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat yoshlarning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishga, balki undagi tanqidiy tafakkur, mustaqillik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Ayni maqsadda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, psixologik manipulyatsiya va uning ta'sirini bartaraf etish vosita va usullarini tadqiq etish, yoshlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi davrda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakat, shaxs xavfsizligiga tahdidlarning mavjudligi sharoitida ularga munosib va o'z vaqtida javob bera olishga qodir xulq shaklini tarkib toptirish va mazkur masalaning metodologik ahamiyatini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Albatta, bir maqola doirasida hozirgi kunda ahamiyatli hisoblangan yoshlarni, fuqarolarni salbiy informatsion-psixologik ta'sirlardan himoyalash muammosini to'la tadqiq etishning imkoni yo'q. Shuning uchun yoshlar xulqining anglanmagan regulativ

mexanizmlarini o'rganish, shaxs xususiyatlari bilan bog'liq yoshlik davriga xos himoya mexanizmlarini tadqiq etish, jins xususiyatlari bilan bog'liq ravishda yoshlik davridagi psixologik himoya ko'rinishlarining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, shaxsning yoshlik davrini tavsiflovchi hissiy-irodaviy, kommunikativ, intellektual xususiyatlarini o'rganish, shaxsning individual-psixologik tavsifi va turli himoya mexanizmlari xususiyatlari o'rta-sidagi mutanosiblik, bog'liqlikni batafsil tadqiq qilish psixologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov U.D. *Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya.* – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2013, 236-b.
2. Грачев Г.В. *Личность и общество: информационно-психологическая безопасность и психологическая защита.* – М.: ПЕРСЭ, 2003. – С. 304.
3. Кара-Мурза С.Г. *Краткий курс манипуляции сознанием: Серия: Тропы практического разума / С.Г. Кара-Мурза.* – М.: Алгоритм, 2002. – С.288.
4. Лепский В.Е. *Информационно-психологическая безопасность субъектов дипломатической деятельности // В.Е. Лепский // Дипломатический ежегодник – 2002: сборник статей колл. авторов.* – М.: Научная книга, 2003. – С. 233-248.
5. Панарин И.Н. *Информационно-психологическое обеспечение безопасности государства в XXI веке // И.Н.Панарин // Материалы Международной конференции "Информационные технологии, безопасность и разрешение конфликтов".* – М.: Центр политических и международных исследований (ЦПМИ), 1998.
6. Решетникова С.Ю., Смолян Г.Л. *Проблемы информационно-психологической безопасности: сборник статей и материалов конференции.* – М.: Изд-во ин-та психологии РАН, 1996. – С. 18-26.
7. "Аргументы и факты" газета, 2015. № 26.

Tahririyat: Bugungi globallashuv jarayonida informatsion tahdidlarning inson ruhiyatiga ta'siri dolzarb muammoga aylangan. Shu jihatdan yoshlarni chetdan bo'layotgan informatsion va boshqa turli ta'sirlardan saqlashda ularning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalasi juda muhim bo'lib, buni muallif o'z maqolasining asosiy g'oyasiga aylantirgan.

Hozirgi kunda bu mavzuda faqat nazariy fikrlar yuritilayapti. Biz bunga e'tiroz bildirmaymiz. Chunki aholini, xususan, yoshlarni turli ta'sirlardan himoyalashning aniq bir metodikasi bayon etilib, uni dars jarayonlarida qo'llash mexanizmini amaliyotga keng joriy etish dolzarb bo'lib kelmoqda.

Nargiza MUSAYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVIDA MULOQOTNING O'ZIGA XOS O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning kommunikativ funksiyasini shakllantirish haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ushbu muammoni o'rganish bo'yicha adabiyotlar tahlili hamda o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Korreksiya, aqli zaiflik, imkoniyati cheklangan bolalar, intellekt, muloqot, defektolog, pedagog, oila, nutq, ta'lim-tarbiya.

В данной статье раскрыты особенности развития навыков общения детей с ограниченными возможностями, способы облегчения адаптации учеников с ограниченными возможностями посредством формирования их общения. Приведены результаты исследований специалистов и анализ источников литературы по освещению данной проблемы.

Ключевые слова. Коррекция, умственная отсталость, дети с ограниченными возможностями, интеллект, общение, дефектолог, педагог, семья, речь, обучение и воспитание.

This article is focused on peculiarities of development of communication skills of children with disabilities, ways to facilitate adaptation of pupils with disabilities through the formation of their communicative skills, measures of responsibility of teachers and parents in the development of communication of such children.

Key words. Correction, mental retardation, children with disabilities, intellect, communication, therapist, teacher, family, educational and educational work.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning iqtidori, qobiliyatini ro'yobga chiqarishda hamda ularning intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan.

Har bir insonni shaxs sifatida shakllanishiga yaqin insonlari, ya'ni ota-onasi, qarindoshlari, pedagoglar, tengdoshlari, atrofni o'rab turgan insonlar, shuningdek, jamiyatdagi boshqa insonlarning ham ta'siri kattadir. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatdagi insonlar har xil qabul qiladilar: ba'zi insonlar bunday bolalarga nisbatan befarq, ya'ni ularga ahamiyat bermaydilar, yordam qo'lini cho'zmaydi, ularni inson sifatida qabul qilmaydi; ba'zi ota-onalar o'ta rahmdil, bu bolalarni hammadan asrab, hech kimga ko'rsatmaydilar, bu toifadagi bolalarda hattoki o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirmasdan ularning o'rniga barcha ishlarni o'zlari bajaradilar; yana ba'zi insonlar bunday bolalardan qo'rqadi yoki nafratlanib, o'z sog'lom farzandlarini ulardan olib qochadilar. Vaholanki, jamiyatda barcha teng huquqlidir.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar to'g'risida jamiyatdagi ko'pgina insonlar noto'g'ri tasavvurga egadirlar, bu noto'g'ri tasavvurlarning kelib chiqishiga avvalo, ota-onalar aybdordir. Bu toifadagi bolalarni ko'chada, madaniy hordiq chiqarish joylarida kamdan-kam uchratish mumkin, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalari o'z farzandlaridan uyalgan holda ularni jamiyatga qo'shmaydi, hammadan olib qochadi, farzandiga biron-bir inson yomon ko'z bilan qarashini yoki xafa qilib qo'yishidan qo'rqadi, farzandini uydan chiqarmaslikka, ko'chaga olib chiqishi lozim bo'lib qolgan hollarda farzandiga ko'chada jim ketishini tayinlaydi, boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishini man etgan holda olib yuradi. Buning natijasida bu toifadagi bolalar odamovi, qo'rqoq, o'jar, o'zgalar bilan o'zaro munosabatga kirishishdan o'zlarini olib qochadigan bo'lib qoladilar. Bu esa o'z navbatida bunday bolalar haqida noto'g'ri tasavvurlarni kelib chiqishiga olib keladi. Turli xil salbiy ta'sirlar esa intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar hayotdagi ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi va buning oqibatida bolaning muloqot qilish ko'nikmalarining rivojlanmay qolishiga olib keladi.

Muloqot – insonlar o'rtasida o'zaro munosabatni o'rnatuvchi ko'p tarmoqli murakkab jarayon. Ushbu jarayon insonlarga boshqa odamlarni tushunishga, ularning his-tuyg'ularini, harakatlarini baholashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida uni hayotda o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashadi. Xususan, muloqot insonning asosiy faoliyat turlaridan bo'lib, boshqa insonlar bilan munosabatga kirishish orqali o'zini baholay olish imkonini beradi, ya'ni shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj tug'ma hisoblanmaydi. U hayot davomida atrofdagi insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishish natijasidagi amaliy tajribasi davomida shakllanadi.

Bolaning muloqot qilish ko'nikmalari qachon shakllanadi? Qachonki, bola bilan atrofdagi insonlar, tengdoshlari ko'proq munosabatga kirishsagina, uning muloqot qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Agar ota-ona o'z farzandining kamchiligidan uyalmagan holda uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilsa, jamiyatdagi insonlar ham shunday qabul etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar inson uchun xos bo'lgan xursandchilik, mayuslik, qahr, g'azab, qo'rquv kabi emotsional xulq-atvorlarni atrofdagi insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishgandagina o'rganadilar. O'zgalar bilan muloqot qilish orqali imkoniyati cheklangan bolalar boshqa insonlar yoki tengdoshlariga nisbatan rahm-shafqatli bo'lish, o'zgalarni hurmat qilish va yordam qo'lini cho'zish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Pedagog va tarbiyachilar ham imkoniyati cheklangan bolalar shaxsini rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi. Turli xil mashg'ulotlar, mashqlar hamda kundalik maishiy predmetlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan doimo muloqotda bo'lish lozim. Bajarilayotgan harakatlarni ifodalash, nomlash orqali ular bilan ko'proq gaplashish lozim. Bolaning turli harakatlarini va atrof-muhitga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda qo'llab turish kerak. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatda muloqot jarayonlarini rivojlantirish ota-ona, pedagog, defektolog, tarbiyachi, psixologlardan katta e'tibor va sabr-toqat talab etadi. Pedagog, defektolog, tarbiyachi hamda ota-onalar bolaning barcha faoliyati jarayonidagi nutqiy o'zgarishlarini kuzatib borishlari lozim, bu kommunikativ muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, insonning bilish jarayonlari o'zaro faoliyat va muloqot asosida rivojlanadi. Muloqot jarayonidagi nuqsonlar shaxsning rivojlanishiga ta'sir etadi. Bolalar o'zlarini shaxs sifatida anglashga qiynaladilar, bu esa o'zaro munosabatga kirishishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi¹.

¹ Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005.

V.G. Petrovaning e'tirof etishicha, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlariga nisbatan muloqot qilishda qiynaladilar. Bu bir necha sabablarga bog'liq. Avvalo, ushbu toifadagi nogiron bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi past bo'ladi. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi nafaqat kech chiqadi, balki o'ziga xos nutqiy kamchiliklar bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra intellektida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqi uning barcha faoliyatlarini zaiflashtiradi, muloqot qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir etib, kommunikativ funksiyasining sifatli shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Nutqiy tashabbusning yo'qligi hamda nutqiy fikrlash vositalaridagi kamchiliklar intellektida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda nutqiy negativizm, odamovilik, nutqiy munosabatga kirishishda bir xil andoza va qolipdan foydalanishni yuzaga keltiradi².

Muammoni o'rganish bo'yicha adabiyotlar tahlili hamda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- muloqot bu bolani psixik rivojlanishining muhim omilidir;
- muloqot bolaning bilish jarayonlarini to'liq rivojlanishiga, maktabda bilim olishga zarur bo'lgan muhim omillarni rivojlantirishning muhim ko'rsatgichidir;
- intellektidagi nuqsonlar – bosh miyaning organik jarohatlanishi bo'lib, bunda bolalarda nafaqat intellektual faoliyatida, balki ruhiy, jismoniy hamda emotsional rivojlanishidagi kamchiliklar kuzatilishi mumkin;
- intellektida nuqsoni bo'lgan bolaning shaxsini to'liq rivojlanishi uchun unga bola va kattalar o'rtasida hamda bola va tengdoshlari orasida yaxshi ijobiy sharoitlarni yaratish orqali erishish mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda pedagoglar, defektolog va tarbiyachilar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- Defektologlar imkoniyati cheklangan bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagoglar hamda ota-onalar uchun doimiy ravishda seminarlar o'tkazishi va maslahat berib borishi kerak;
- psixologik-pedagogik tashxis natijalarini birgalikda muhokama qilib, har bir bolaning kundalik ta'lim-tarbiyasi samarali kechishi uchun ijobiy korreksion ish uslubini tanlashlari lozim;
- bolaning muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarga sharoit yaratish: kommunikativ muloqotni rivojlantiruvchi mashqlar va treninglarni o'tkazish, mashg'ulot va dam olish paytida relaksatsion audio musiqalaridan foydalanish, bolalarni psixolog mashg'ulotlariga jalb etishlari kerak;
- bolalar o'zlariga to'g'ri baho berishlari uchun o'yin va mashg'ulotlar davomida barchasining faol ishtirokini ta'minlashlari zarur;
- o'yin davomida pedagog bilvosita ishtirok etib, pedagogning ishtiroki o'yinning sharti, vazifasi hamda bolalarning nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. O'yin davomida bolalarning nutqiy kamchiliklarini to'g'rilab borish, kerakli korreksion ishlarni olib borish, bolalarning yutuqlarini izohlab, rag'batlantirib borishi lozim.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalardan ham katta mehnat, mas'uliyat talab etadi. Ular quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

1. Ota-onalar farzandlarini doimo rag'batlantirib turishi, vazifalarni bajarishda unga yetakchilik qilib, bolaga o'z kuchiga ishonish hissini rivojlantirishi lozim.
2. Ota-onalar bolasining bajargan ishlarini boshqa bolalar bilan solishtirmasdan, balki o'zining avvalgi ishlari bilan solishtirib, erishayotgan yutuqlarini aytib, rag'batlantirib borishlari kerak.

² Петрова В.Г. Психология умственно отсталых школьников: Учебное пособие. – М.: Академия, 2002.

3. Ota-ona bolaning barcha xohlagan ishini bajarishiga yo'l qo'ymasdan, uni barcha narsadan ham chegaralab qo'ymaslik lozim.

4. Farzandini turli xil madaniy hordiq chiqarish joylariga doimiy ravishda olib borib, bolaning tasavvurlarini kengaytirish zarur.

5. Ota-ona farzandiga turli xil qiziqarli kitoblar o'qib berishi, uning kitobga bo'lgan mehrini uyg'otishi lozim.

6. Imkoniyati cheklangan bola ota-onasining mehrini his etib turishi zarur. Bolaning erishayotgan yutuqlarini doimo aytib va rag'batlantirib, unga dalda bo'lish kerak. Farzand ota-onasi uchun azizligini bilib turishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari defektologlar, tarbiyachilar hamda ota-onalar imkoniyati cheklangan bolalarni muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi shaxsiy sifatlarni shakllantirishda yordam berishlari zarur:

- muloqotga kirishish jarayonida o'zini to'g'ri tutish qoidalariga rioya etish;
- muloqot qilish jarayonida o'zining ijobiy xislatlarini ko'rsata olish (tanigan yoki tanimagan insonlari bilan, tengdoshlari, o'zidan katta va kichiklarga nisbatan);
- bolaga nisbatan qaratilgan verbal va nonverbal muloqot vositalarini to'g'ri tushinishga va o'zi ham muloqot jarayonida ushbu qobiliyatlardan foydalana olish;
- o'zaro munosabatga kirishgan holda dialogda ishtirok eta olish;
- o'quv faoliyatida, kundalik maishiy vaziyatlarda hamda bayramona holatlarda o'zini mustaqil tuta olishi kabi fazilatlarini shakllanishiga yordam berishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarni hayotda o'z o'rinlarini topishlarida hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini to'liq ta'minlanishida muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy ko'nikmalar imkoniyati cheklangan bolalarga barcha jabhalarda: maktab yoki boshqa maxsus o'quv muassasasida, shuningdek, o'zining oila a'zolari, do'stlari bilan o'zaro munosabatga kirishish vaqtida kerak bo'ladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning muloqot qilish ko'nikmalari rivojlangan taqdirdagina ular jamoada erkin hayot kechirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muminova L.R. *Bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish*. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Алексеева М.М., Яшина Б.И. *Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред. пед. учеб. Заведений*. – 3-е изд., стереотип. – М.: Издательский центр Академия, 2000.
3. Воронковой В.В. *Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе*. / Под ред. – М.: Школа-Пресс, 1994.
4. Выготский Л.С. *Психология развития человека*. – М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005.
5. Петрова В.Г. *Психология умственно отсталых школьников: Учебное пособие*. – М.: Академия, 2002.

Abdusalim KENJABOYEV,

Surxondaryo viloyati XTXQTMOI dotsenti

Akmal MAXMADALIYEV,

Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi

FO‘O‘BOXMO bo‘yicha o‘quv kursining bo‘lim boshlig‘i

YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA “OILA- MAHALLA-TA’LIM MUASSASASI” HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqola yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligining o‘rni bayon etilgan. Shuningdek, mualliflar ta’lim muassasalarida yoshlar bilan tizimli profilaktik tadbirlar o‘tkazish hamda samarali tashkil etish mumkinligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Mahalla, ta’lim muassasalari, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oila, yoshlar, ong, fuqaro, hamkorlik.

В статье рассматриваются проблемы воспитания молодежи и формирования у них духовности. Эта проблема является актуальнейшей задачей современности, и она неразрешима без сотрудничества семьи, махалли и учебных заведений.

Ключевые слова. Махалля, учебные заведения, национальные ценности, традиции, семья, молодежь, гражданин, сотрудничество.

The article deals with the problem of bringing up the young generation and forming their spirituality. This is issue is very important problem in contemporary society and cannot be resolved without cooperation between family, mahalla and schools.

Key words. Mahalla, the family, educational institution, national traditions, humanity, connection.

Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida tarbiya va ta’lim berish, ularni yuksak ma’naviyatli qilib voyaga yetkazish – bugungi kunda “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “...Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur¹”, – degan so‘zlari ayni shu ma’noni anglatadi. Bu esa har birimizni yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti, g‘oyaviy chiniqishiga, har xil buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008, 115-b.

mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda barchamizning tinch hayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga hurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyati asoslari haqida tushuncha berish barchamizning burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, jumladan, ijtimoiy tuzumni liberallashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish sharoitida, yangi jamiyat sari qadam qo'ygan mamlakat oldida yoshlarga nisbatan e'tiborning yangicha yondashuvini talab etmoqda.

Ma'lumki, tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda tarbiya deb, tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum nuqtayi nazardan tizimli ta'sir ko'rsatishi lozimdir.

Oila davrasida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining ikki jihati mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Birinchidan, ota-ona tomonidan bolada shakllantirilayotgan ma'naviy tushunchalar bolaga bo'lgan talab asosida hamda yuzaga kelayotgan muammolarni katta tomonidan hal etish uslubi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda ota yoki ona biron narsani boladan talab qiladi-yu, lekin o'zi bunga rioya qilmasligi va hatto o'z aytganiga qarshi ish tutishi bolada noaniqlik, ishonchsizlik hissini yuzaga keltiradi. Buning oldini olish oila muhitida barqarorlik hukm surishi, ta'kidlanayotgan talab va xulq birligi bolada ishonch, e'tiqodning shakllanishiga asosiy zamin bo'lishi lozim. Bola ulg'ayishi davomida nima to'g'ri-yu nima noto'g'riligiga, nima yaxshi-yu nima yomonligi haqida axloqiy bilimga ega bo'lib boradi. Bu bilimlar bolaning xulqida namoyon bo'lishi juda muhimdir. Shu munosabat bilan ota-ona bola tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan harakatlar mazmunini unga tushuntirishi lozim. Bu turli-tuman munosabatlar asosida bolada yuksak ma'naviy kuch, axloqiy qadriyat va ularga monand ehtiyoj shakllana boshlaydi. Aynan shu ehtiyoj ulg'aygan shaxsning tafakkurida ma'naviy qadriyatlar shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar majmuidir. Oilada qalban yaqinlik va bir-birini tushunmaslik hamda qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi turli nojo'ya harakat va oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ko'pgina hollarda bola xulqidagi bunday salbiy o'zgarishlar uning oila a'zolarida, ayniqsa, ona tomonidan yetarli darajada mehr berilmaganligida namoyon bo'ladi.

Oila va mahalla muhiti shaxs g'oyaviy barqarorligini shakllantiruvchi omil sifatida yetakchi o'rinda turadi. U murakkab tizim bo'lib, unga xos muhit nafaqat er-xotinning xarakter xususiyati, balki shu oila va mahallaga bevosita ta'sirini o'tkazuvchi qariyalar, yoshi katta avlodlar tomonidan saqlanib kelgan an'analar asosida ham shakllanadi. Bundan tashqari, har bir oila va mahalla jamiyat talablari asosida yashaydi va zamon, davr talabiga mos farzandni tarbiyalashda faol ishtirok etadi.

Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning oilaviy tarbiyada birdamlik va tenglikka erishishi, kuch-g'ay-

ratlarining birlashtirishiga bog'liq. Oilaviy tarbiya emotsional asosga quriladi, chunki tarbiyachilar bolaning eng yaqin kishilari, uni tarbiyalaydi. Boshqa kishilar ehtiyojiga asoslanadi. Oilaviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri-bolani xushxulq bo'lishga o'rgatishdir.

Oilaviy tarbiya jarayonida bolani shaxs sifatida shakllantirish asosan ikki yo'l bilan: oila turmush tarzining ta'siri ostida va ota-onalarning maxsus tarbiyaviy ta'sir o'tkazish natijasida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada ota-onalarning roli katta ahamiyatga egadir. Bunga erishish uchun ular avvalo, o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari, doimo o'zlarini komillashtirib borishlari, o'zgalarga mehribonlik, atrofda qilargalarga adolatli munosabatni hamisha tarbiyalab, takomillashtirishlari tufayli obro'-e'tibor qozonishlari talab etiladi. Bolalarda taqlid qilishlikka rag'batni uyg'otuvchi katta yoshdagi oila a'zolarining namunasi oilaviy tarbiyadagi eng ta'sirchan omillardan biridir. Oilaviy tarbiyaning tugal maqsadi – boladan komil insonni yetishtirishdir. Jismoniy va ruhiy qonuniyatlarni yaxshi bilmay turib, oilaviy tarbiyada o'z maqsadiga erishib bo'lmaydi, zero, bola mana shular asosida rivojlanadi. Bu qonunlarning sabablarini tushunmaslik oilaviy tarbiyadan kutilgan maqsadning yuzaga chiqmasligiga sabab bo'ladi. Shu maqsadda Davlatimiz va Hukumatimiz tomonidan yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida qator qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-martdagi "Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 52-sonli qarori ijrosini ta'minlash uchun mahalla faollari kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda nima qilishlari kerak?

Buning uchun kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'z sohalari bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lishlari, kelajakda o'zlari ishlamoqchi bo'lgan tashkilotlarda amaliyotlarini o'tab bo'lgach, korxona rahbarlari tomonidan tashkil qilingan mehnat yarmarkalarida ishtirok etishlari va bo'sh ish o'rinlari haqida kerakli ma'lumotlarni bilishlari kerak bo'ladi.

Bugungi yoshlarni ishga joylashtirish faqat mahallaning vazifasi bo'libgina qolmay, balki tuman, shahar hokimlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hududiy kengashlar tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilinadi hamda joriy yilning 30-martiga qadar kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilari egallagan kasblari bo'yicha ishga joylashtiriladi.

Tashkiliy huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasalar va tashkilot rahbarlariga kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va egallagan kasblari bo'yicha ishga joylashtirishga ko'maklashadilar.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy-g'oyaviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun dasturlar, konsepsiya va tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida, 1994-yilda ishlab chiqilgan "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi" konsepsiyasi yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalash uchun keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida mahallalar uchun muhim dasturilamal bo'ldi.

Ma'lumki, jamiyatimizning demokratik qadriyatlari oila va mahallada o'z ifodasini topgan. Darhaqiqat, bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar

aynan oila va mahalla muhitida kamol topadi. Uning xalqimiz ijtimoiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Ota-ona va mahalla faollarining har bir ishda amaliy namuna ko'rsatishlari oila va mahallada ma'naviy tarbiyaning yanada takomillashishiga hamda talab darajasida bo'lishiga olib keladi.

Bugungi kunda mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida hukumatimiz tomonidan alohida chora-tadbirlar rejasi tuzilgan:

- tuman, shahar, viloyat va respublika bosqichida turli sport musobaqalarini o'tkazish va yoshlar o'rtasida qobiliyatlarini tanlash;

- turli musiqa, san'at sohalarida musobaqa, tanlovlar o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish;

- fanlar bo'yicha maktab va kasb-hunar kollejlari fan bellashuvlari, olimpiadalarning o'tkazilishini tashkil qilish;

- mahallalarda Mustaqillik, Konstitutsiya, Yangi yil bayrami, Navro'z bayramlarini o'tkazishda tashkilot, korxonalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash;

- xalq sayllari, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, bunga mahalla faollari bosh-qosh bo'lishi lozim bo'ladi;

- tashkilotlar, korxonalar homiyligida turli hasharlar tashkil etish va bunda faol yoshlarni homiy korxonalar yordamida turli tarixiy joylarga ekskursiyalarga borishini ta'minlash ijobiy samara beradi.

Hozirda yoshlarning huquqiy saviyasini yuksaltirishda zamonaviy imkoniyatlardan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Kelajak avlod tarbiyasi barcha zamonlarda xalqimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bu kabi maqsad va vazifani bajarishga nafaqat tarbiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, balki barcha-barchamiz mas'ulmiz.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazishlari, o'zlari xohlagan yo'nalish bo'yicha qiziqish va mahoratlarini oshirishlariga yordam ko'rsatilmoqda. Afsuski, farzandlarimizni turli aldov yo'llari bilan jinoyat va razolat botqog'iga boshlovchilar ham topiladi. Noqoquniy yo'llar bilan mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan razilliklarga undovchi audio va video mahsulotlari va millatimizga yot bo'lgan g'oyalar, dunyoqarash va tushunchalar, diniy oqimlar, barcha-barchasi bizga hamda farzandlarimizga bo'layotgan tajovuzlardir. Biz yoshlarimizni ana shunday illatlardan, ko'cha-kuyda bemaqsad yurishlaridan xoli qilib, befoyda va zarar keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanishlariga bo'sh vaqt qoldirmasligimiz kerak. Ular ongiga milliy qadriyatimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz asoslarini, axloq va odob tushunchalarini singdirishimiz lozim.

Shunga ko'ra quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlarni yanada samarali tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, aholi, ayniqsa, ota-onalar va farzandlar o'zlarining huquq va majburiyatlarini tushunib olishlarida ko'maklashish, ularni ushbu sohadagi yangi ma'lumotlardan xabardor qilish, Jamoat kengashi a'zolarini tegishli targ'ibot materiallari va tavsiyalar bilan qurollantirish, voyaga yetayotgan qizlarni turmushga tayyorlash, sog'lom turmush tarziga ko'nikma hosil qilish va sog'lomlashtirishga erishish, erta turmush qurishning oldini olish, balog'at yoshi garmonik o'zgarishlardan xabardor etish uchun jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda uslubiy qo'llanma va tavsiyalar

tayyorlash, huquqiy axborotlarni o'z ichiga olgan buklet, ma'lumotnoma va tarqatma materiallar ishlab chiqish, "Orasta qiz yon daftarchasi" nomli uslubiy qo'llanmadan mahalla tizimida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularning mahallalar bilan hamkorligini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qonunchilik talablaridan kelib chiqib, jamoatchilik nazoratini o'rnatish, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda mahallaning o'rnini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash.

Uchinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini tanqidiy-tahliliy o'rganish, vazifalarini aniq belgilash va samaradorligini yanada oshirish, mahallalardagi tashabbuskor yoshlarni ta'lim-tarbiya masalalarini o'rganishga keng jalb qilish va hisobotlarini eshitishni yo'lga qo'yish.

To'rtinchidan, ta'lim tizimidagi yutuqlar va islohotlar haqida ota-onalarning zarur ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida "Ota-onalar universiteti" faoliyatini kuchaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish choralari belgilash, ularning faoliyatiga oid hisobotlarni eshitish, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda mahallalarda "Oila – muqaddas tushuncha", "Oilaviy an'analar", "Mahalla va oila ma'naviyatining mustahkamligi", "Ota va ona – oila tayanchi", "Oilada sharqona sadoqat" mavzularida suhbatlar va savol-javob kechalarini o'tkazish maqsadida soha mutaxassis-lari, malakali professor-o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalari hamda namunali oila vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini shakllantirish, ular uchun o'quv seminar tashkil qilish, ularni zarur qo'llanma va ma'ruza matnlari bilan ta'minlash, targ'ibot guruhlarini a'zolarini hududlar bo'yicha taqsimlash va tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.

Beshinchidan, o'quvchi-yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, mahallalarda noqobil, notinch oilalarda tarbiyalanayotgan bolalalarning ta'lim-tarbiyasi hamda ularga har tomonlama ijtimoiy ko'maklashish ko'lamini kengaytirish maqsadida mahallalarda faol, el orasida hurmat qozongan ziyoli insonlarni hamda tegishli idoralar vakillarini jalb qilgan holda, oilalarni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash, ularning yechimini topishga ko'maklashish hamda notinch oila farzandlarini o'quv jarayoniga to'liq jalb etish choralari ko'rish, mahallalar va ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar uchun tashkil etilgan fan to'garaklari, sport seksiyalari faoliyatini kengaytirish orqali ommaviylikni ta'minlash, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni o'z-lari qiziqqan kasb-hunarga yo'naltirish.

O'quvchi-yoshlar, ayniqsa, o'g'il bolalarni hududdagi usta-hunarmandlarga biriktirish hamda kasb-hunarga o'rgatish ishlarini takomillashtirish. To'garaklarda o'quvchi-yoshlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning ko'rgazma savdosini tashkil etish orqali ularda tadbirkorlik bo'yicha bilim va malakalarni rivojlantirish, o'quvchi-yoshlar orasida turli milliy mentalitetimizga zid bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha hamda profilaktik nazoratda turuvchi o'quvchilarni tarbiyalashda ota-onalar, mahalla,

huquq-tartibot idoralari, davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish, ichki ishlar profilaktik nazoratiga va ta'lim muassasalarining ichki nazoratiga olingan o'quvchi-yoshlar bilan yakka yoki ommaviy tarzda maqsadli ishlarni olib borish, ularni to'garaklarga jalb etish va mas'ullarni biriktirish.

Oltinchidan, barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishning, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarining mazmun-mohiyatini keng targ'ib etish maqsadida Jamoat kengashi ishtirokida ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid masalalarni muhokama etishni yo'lga qo'yish, mahallalarda jamoatchilik asosida “Ota-onalar universiteti”ni tashkil etish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, yoshlarga ibrat bo'ladigan an'ana va urf-odatlarini keng targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li*. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I. A. *Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz*. – T., 2000. 8-jild.
3. Karimov I.A. *Bizning maqsadimiz – erkin va farovon, demokratik hayot qurish*. – T.: O'zbekiston, 2015.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch* – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. – T.: O'zbekiston, 2015.
6. *Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi*. – T., 2002.
7. *Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (Yangi tahriri)*. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: Adolat, 1998.

Salohiddin BABADJANOV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MEDIATA'LIM – YOSHLARNI DESTRUKTIV AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada informatsion makonning globallashuvi sharoitida oliy ta'lim talabalariga qo'yiladigan yangicha talablar, ularning mediata'lim sifatini oshirish orqali destruktiv axborotlardan himoya qilish vositalarining mazmun va mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Mediasavodxonlik, mediata'lim, mediamuhit, destruktiv axborotlar, axborot muhiti, virtual muloqot.

В статье раскрываются новые требования, предъявляемые к студентам высших учебных заведений и сущность средств защиты от деструктивных информации через повышение качества их медиаобразования в условиях глобального информационного пространства.

Ключевые слова. Медиаграмотность, средства массовой информации, образование, окружающая среда, разрушительные информации, информационная среда, виртуальное общение.

This article reveals new requirements imposed to students of higher education, and essence of means to protect from destructive information through increasing the quality of their media education in the conditions of global information space.

Kew words. Media literacy, media education, media, environment, destructive information, the information environment of virtual communication.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasidagi ishlar bugun o'z samarasini bermoqda, ta'lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyatining globallashuvi ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta'sirini har jabhada kuzatish mumkin, bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan. Shuning bilan birga e'tirof etish lozimki, mediaaxborotning foydalanuvchilariga bo'lgan nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'siri ham oshib bormoqda.

Shu o'rinda mediaaxborotning tarkibiy qismlari, uning ma'no-mazmunini, destruktiv (salbiy) jihatlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Media – lotincha *media*, *medium*-vosita, o'rtada turuvchi, muhit ma'nosini anglatadi va an'anaviy (bosma, radio, ovoqli, kinematograf, televideniye) hamda zamonaviy

(video, uyali aloqa vositalari, CD, DVD, kompyuter, Internet) vositalarni o'z ichiga oladi. Bugungi axborotlashgan davrda har bir inson o'ziga kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlashni, media kanallar orqali ko'rgan, o'qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni o'rganishi kerak. Shuningdek, mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan “tanqidiy munosabatda bo'lish” deganda, biror narsani tanqid qilishni emas, balki bizga taqdim etilayotgan axborotni tanqidiy tahlil qilishni, ushbu axborotni haqqoniyligini aniqlashni, unda yashirin ma'noda berilayotgan manipulyativ elementlarni topishni tushunishimiz kerak.

Ommaviy axborot vositalarining kuchli ta'siri sharoitida oqni-qoradan, yaxshini-yomondan ajrata olish uchun yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlarimiz negativ va destruktiv axborotlar ta'siriga tez tushuvchi qatlam hisoblanadi.

Fikrimizning isboti sifatida ommaviy axborot vositalaridan biri – televideniye orqali berilayotgan G'arb seriallarga e'tibor bersak, bizning milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga mos kelmaydigan, mentalitetimizga tamomila teskari bo'lgan sahnalarni ko'rishimiz mumkin.

Ushbu seriallar go'yoki oddiy hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan syujet orqali teletomoshabinlarga zo'ravonlik, behayolik g'oyalarini xuddi bir oddiy holat, me'yor va G'arbnning “ommaviy madaniyat”i sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yana bir misol, nima uchun oxirgi vaqtlarda o'z farzandlari tarbiyasi, taqdiriga befarq bo'lmagan ko'plab ota-onalar xorijda ishlab chiqarilgan multfilmlarning farzandlariga foyda va xavfsizligiga shubha bilan qarashmoqda? Farzandlarimiz bunday multfilmlarni tomosha qilayotganda biz kattalarda xavotirlanish hissi qayerdan paydo bo'lmoqda?

Yosh bola atrofidagi olamni obrazlar orqali tasavvur qiladi va anglaydi, ular asosida o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Multfilmlardagi ayol qahramonlarini tomosha qilar ekan, farzandlarimiz o'zining obrazlarini yaratadi, ularga ongsiz ravishda taqlid qilishga harakat qiladi.

Psixologlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, ba'zi xorijiy multfilmlardagi ayol obrazidagi qahramonlar shunday yaratilganki, ularni surunkali ravishda tomosha qilish yoshlarning ongida ayol obrazi ko'proq ona timsolida emas, balki yovuzlik timsolini aks ettiruvchi, ayollarga xos bo'lgan sharm-hayo, ibo kabi xislatlardan xoli bo'lgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu multfilmlarda bizning ayollarimizga xos bo'lgan kamtarinlik, uyatchanlik, hayo va ibo kabi xislatlar devalvatsiyaga uchramoqda va kulgi ostiga olinmoqda. Xorijiy multfilmlar bizning farzandlarimizga qanday ta'sir qilishini qisqagina formulirovka bilan tasvirlash mumkin: intellektual va ma'naviy degradatsiya. Bunday multfilmlarning asosiy maqsadi shundan iboratki, obrazlarning almashishi tufayli bola ruhiyatini o'zgartirish.

Ma'lumki, televideniye kunlik axborotga ega bo'lishimizda asosiy manbalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab kanallarda uzatilayotgan qo'shiqlarning, videokliplarining hech birida negativ jihatlar yo'qdek – yoshlar musiqa tinglab, kliplarni tomosha qilib, hordiq chiqarishmoqda. Afsuski, mazkur kanallarda beriladigan kliplar, undagi yoshlarning kiyinish odobi, qo'shiqlarning ma'nosizligi va so'zlari milliy qadriyatlarimizga zid kelishini kuzatishimiz mumkin.

Bunday sharoitda mediata'limning joriy etilishi alohida dolzarbligi bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mediata'lim xalqimizning urf-odatlariga, milliy qadriyatlarimizga

tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatga asoslangan holda tashkil etilishi kerak. Shuningdek, yoshlarimizni zamonaviy OAV bilan xavfsiz va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi, ularda media ogohlikni, media savodxonlikni, media madaniyatni va media kompetentlikni shakllantiradi.

Bilamizki, Internet bugungi kunda ulkan axborot manbayi sifatida bilimlarni egalashning eng samarali vositalaridan biriga aylangan. Internet tarmog'i orqali o'quvchilar o'zlarining bilimlarini oshirishi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishi mumkin. Albatta, shak-shubhasiz Internet kunlik hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Lekin Internetning ham yoshlar tarbiyasiga destruktiv ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi.

Internetning yoshlar tarbiyasiga negativ ta'siri sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tish yetarli bo'ladi: pornografiyaga oid, pirotexnika, suitsid, narkotik moddalarni sun'iy yo'llar bilan tayyorlash va uning inson organizmi ta'siriga oid saytlar va ushbu saytlarda mazkur masalalarni muhokama qilinishi hamda ularga qiziqishi orqali yoshlarning hayoti va sog'lig'iga putur yetishi mumkin.

Yoshlar virtual muloqotda turli xil shaxslar bilan anonim holatda muloqotda bo'ladi. Bunday holatlarda o'smirlar turli radikal oqimlar va diniy sektalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Inkor etilmaydigan haqiqat shuki, butun olam "o'rgimchak to'ri"ga ilingan o'smir yoshlar o'zining ko'p vaqtini behudaga sarflamoqda, uning oqibatida ham psixologik, ham jismoniy zarar yetmoqda. Ko'p holatlarda virtual dunyo yoshlarning ijtimoiy faolligi o'rnini qoplab, real dunyodan ajratib qo'ymoqda.

Globalashuv asrida butun dunyo ta'lim mutaxassislari aholi o'rtasida mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshayotganini e'tirof etishmoqda. Shu sababli, hozirgi kunda ko'plab davlatlar yoshlarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini tan olgan holda, o'zlarining mediata'lim yo'nalishi bo'yicha milliy standart va dasturlarini yaratishmoqda.

Bizda ham, dunyoda turli g'oyalar raqobatlashayotgan murakkab davrda, qaramaqarshi mediamuhit sharoitida yoshlarni kelajak hayotga tayyorlashda yangi yondashuv va vositalarga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Shu bois yoshlarga mediaaxborotlarni to'liq va to'g'ri tushunishlari uchun axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Jamiyatning har bir a'zosi uchun o'z o'rnini mustahkam egallashida an'anaviy savodxonlik (o'qish, yozish, hisoblash) yetarli bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mediata'limni ta'lim tizimiga joriy etish va uni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi kerak.

Ta'kidlash lozimki, hattoki iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lmagan davlatlarda ham mediata'lim orqali mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha alohida fan sifatida hamda mediata'lim elementlarini boshqa fanlar mazmuniga singdirish (integratsiya) orqali muayyan ishlar olib borilmoqda.

Mediata'limni bizning mamlakatimizda joriy etilishini tahlil qilar ekanmiz, ushbu yo'nalishda faqatgina bir nechta mutaxassislarning ushbu muammoga bag'ishlangan maqolalari OAV orqali chop etilganini ta'kidlashimiz mumkin, xolos. Mediata'limning ba'zi elementlari umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'quv fanlarga integratsiya qilish orqali o'qitilib kelinyapti, lekin mediata'lim yo'nalishi tizimli ravishda alohida fan sifatida o'qitilishi o'quv dasturida ko'zda tutilmagan.

Mediata'limni rivojlantirish va joriy etish, uning tarixi, mazmunini shakllantirish va uning kelajakdagi rivojiga bag'ishlangan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar ham olib borilmayapti.

Mediata'lim nima? Oksford ensiklopediyasining 2001-yildagi nashri mediata'limni “Mediata'lim – media orqali ta'lim berishdan tashqari mediani o'rganishdir. Mediata'lim bir vaqtning o'zida mediamatnlar qanday yaratilishi va tarqatilishini anglash bilan birgalikda, o'quvchi yoshlarda OAV orqali uzatilayotgan axborotlar mazmunini tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirish tushuniladi. Shuning bilan birga, mediata'limning asosiy maqsadlaridan biri – mediamahsulotlarni yaratish bo'yicha o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi.”¹

Mediata'lim orqali shakllangan mediasavodxonlik va mediamadaniyat ko'nikmalari OAV orqali uzatilayotgan axborotlarni tushunish, ularni shaxsga va jamiyatga ta'sirini o'rganish jarayonini nazarda tutadi.

Mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lgan inson mediamatnlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarga ega bo'ladi, ulardagi ijtimoiy-madaniy va siyosiy kontekslarni tushuna oladi.

Shunday qilib, mediata'lim har bir shaxsda mediamahsulotlar va axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashuvni, muloqot qilish ko'nikmasini, tanqidiy fikrlashni, axborotlar orqali uzatilayotgan asosiy maqsadlarni va yashirin g'oyalarni aniqlash, mediamahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash, axborotlarni filtrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi iqtisodiyot, yangi dunyoqarash, yangi ijtimoiy munosabatlar paydo bo'lyapti. Bunday jamiyatda ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy o'sish jismoniy mehnat yoki yer osti va usti tabiiy boyliklarga emas, balki bilim va aqliy mehnatga bog'liqdir. Bunday iqtisodiyot – bilimlarga asoslangan iqtisodiyot deyiladi (knowledge economy).

Jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida nazoratsiz axborot shunday kuchga aylanadiki, uning yordamida insonlar ongi va reallikka ta'siri har qanday quroldan kuchli ta'sir qiladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida hozirgi yoshlarni kelajak hayotga tayyorlashda OAV turlari, ular orqali axborotlarni yaratish va uzatish usullarini o'rgatish orqaligina erishishimiz mumkin. Bugungi yoshlar televideniye, gazeta, jurnal, radio va Internet bilan kunlik hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda va bunday jarayonga pedagogik aralashuvsiz, aniq va maqsadli rejalarsiz o'sib kelayotgan avlodni kelajak hayotga tayyorlash mumkin emas.

Bugungi kunda Internetni yopish va ta'qiqlashning, ekranlarda uzatilayotgan turli syujetlardan chegaralashning, ya'ni barcha turdagi axborotlar ta'siridan izolyatsiyalanish imkonini yo'q.

Aynan shu sababli mediata'lim yoshlarimizda bugungi hayotimizda o'ta muhim bo'lgan “g'oyaviy immunitetni” va shaxsiy hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan shuni ko'rish mumkinki, mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni shakllantiradi, ularning ma'naviy-estetik va intellektal jihatdan, ularning nutqini va muloqot qilish, bilish va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mediata'limni alohida fan sifatida hamda uning elementlarini boshqa fanlarga singdirib, umumiy o'rta ta'lim o'quv rejasiga kiritish orqali farzandlarimizni kelajakda

¹ Safarova R.G'., Jo'rayev R.X. Pedagogika Ensiklopediyasi. 2015.

muvaffaqiyatli bo'lishlariga, hayotda munosib o'rin egallashlariga va ularni turli destruktiv axborotlardan himoya qilish mumkin.

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida mamlakatimizda mediata'limni samarali joriy etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Mediata'limni barcha ta'lim bosqichlariga joriy etish Konsepsiyasini yaratish.
2. Mediata'lim fani bo'yicha barcha ta'lim bosqichlari uchun o'quv dasturlar, ular asosida o'quv va metodik qo'llanmalar, mediakompetentlik darajasini aniqlovchi mexanizmlarni yaratish.
3. O'qituvchilarni mediata'lim, mediamadaniyat, mediasavodxonlik bo'yicha bilimlarini oshirish va ularning mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash va malakalarini oshirish tizimini shakllantirish.
4. Mediata'lim yo'nalishi bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish.
5. OAV orqali mediasavodxonlik va mediamadaniyatni targ'ibot qilish, teleko'rsatuvlarni tashkil qilish, mediata'lim muammolari va yutuqlariga bag'ishlangan jurnal tashkil etish;

6. Mediata'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.²

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarning destruktiv ta'sirining oldini olishda mediata'limdan foydalanish samarali natijalarni beradi. Zero, mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni shakllantiradi, intellektual, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda destruktiv axborotlarga qarshi immunitetni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // *“Xalq so'zi” gazetasi*. 2010-yil 30-yanvar. № 21.
2. Safarova R.G', Jo'rayev R.X. *Pedagogika ensiklopediyasi*. – T., 2015-y.
3. Babadjonov S.S. Jamiyatning mediavaxfsizligi sharti sifatida mediata'lim sohasining rivojlanishi // *Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o'tmish tajribasi, istiqbollari*. 2016-yil 15-aprel 1-qism.
4. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. – М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО “Информация для всех”, 2007.
5. <http://edu.of.ru/mediaeducation>

Tahririyat: Maqolada yoshlarni destruktiv axborotlardan himoya qilishning samarali usullari haqida so'z yuritilgan. Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab maqolalar chop etilmoqda.

Muallif oliy ta'lim tizimiga, xususan, pedagogika yo'nalishiga mediata'limni alohida fan sifatida o'quv rejasiga kiritish taklifi bilan chiqib, ta'lim samaradorligini yanada oshirishni ko'zlagan.

² Babadjonov S.S. Jamiyatning mediavaxfsizligi sharti sifatida mediata'lim sohasining rivojlanishi. Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o'tmish tajribasi, istiqbollari. 2016-yil 15-aprel 1-qism.

Абдулла МАГРУПОВ,
самостоятельный соискатель

ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ: ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ И ПРИНЦИПЫ В УПРАВЛЕНИИ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

